

Melkabgacha va maktəb ta'limi vazirlığı hazırladığı
İstislasbtırılgan ta'lim muassasaları agentligi

IJOD BOĞ'IDAN
Guldasta

IV



Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi

IJOD BOG'IDAN

Guldasta

Toshkent - 2024

UDK821.512.133-1
KBK84(5O')-5 U 13

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori
Alisher Ubbiyev tahriri ostida ishlab chiqilgan

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Ijodiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Ijod bog'idan guldaста: to'plam.
T.: "Adastpoligraf" nashriyoti, 2024. -320 b.

Mazkur kitobda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil qilingan ijod mакtablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning adabiyot sohasidagi ijod namunalari jamlandi.

Ushbu to'plam orqali she'riyat, nasr yo'nalishida o'z iqtidorlarini namoyon qilayotgan o'g'il-qizlarni xalqimizga tanishtirish, ularning ijodlarini keng jamoatchilikka taqdim etish maqsadi ko'zlangan.

ISBN 978-9943-8621-3-5



O‘z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o’tmasin! Yoshlik – umrning eng bebafo davri. Am o’tda yonmaydigan, suvda cho’kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev*

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbuslari bilan Respublikamizda 9 ta ijod maktabining faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Mazkur ijod maktablarining bosh maqsadi jamiyatning ilg‘or, yetakchi qatlamini tashkil etuvchi, chuqur bilim, keng dunyoqarashga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy singari ma‘rifatparvar ajodolarimizga munosib ziylolilarning yangi avlodini tarbiyalashdir.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimidagi Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi ijod maktablarining bosh maqsadi sifatida belgilab olingan vazifalardan ayrimlariga to‘xtalishni joiz deb topdim. Ya‘ni ijod maktablarida:

badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalariga qiziqadigan ijodkor o‘quvchilarni saralab olish, ularning intellektual, ilmiy va ijodiy (she‘riyat, nasr, dramaturgiya, publitsistika va boshqa yo‘nalishlardagi) iste‘dodini yanada rivojlantirishga imkoniyatlar yaratish;

milliy qadriyatlarga tayangan holda ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlarning sifatli ta‘lim tizimini joriy etish, “Uchinchi Renessans” poydevorining rivojlanishiga, o‘zbek tili va o‘zbek adabiyotini dunyoga tanitishga xizmat qiladigan ijodkor yoshlarni tarbiyalash;

o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, liderlik, tizimli tahlil qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llash, notiqlik san‘ati, loyihalarni boshqarish ko‘nikmalariga o‘rgatish;

dunyo tillari orasida o‘zbek tilining o‘ziga xos o‘rni va nufuzini hamda uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish, jahon hamjamiyati o‘rtasida o‘zbek adabiyotini, uning boy tarixini targ‘ib qilishdir.

Ushbu maqsadlarga erishish bo‘yicha ijod maktablarida tizimli ishlarni olib bormoqda. Jumladan:

ijod maktablari tashkil etilgandan buyon 350 nafardan ortiq o‘quvchilarning ijodiy ishlari chop etildi;



ijod maktablar uchun chuqurlashtirilib o‘qitiladigan fanlardan darsliklar 100 foiz mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablar darajasida ishlab chiqildi;

Muhammad Rizo Ogahiy, Abdulla Oripov, Hamid Olimjon va Zulfiya hamda Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktablarida ikkinchi xorijiy til sifatida turk tilini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Xorijdan turk tili o‘qituvchilar jalb etildi;

“Ijodiy to‘garak”, “Yosh tarjimonlar”, “Doira”, “Dutor”, “Nay”, “G‘ijjak” va “Qashqar rubob” to‘garaklarining dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi;

ijod maktablari o‘quvchilarini zamonaviy va milliy kasb-hunarlargaga yo‘naltirish maqsadida 21 ta kasb-hunar ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib, bugungi kunda 1 098 nafar (68 foiz) o‘quvchilarini zamonaviy va milliy kasblarga o‘rgatish ishlari olib borilmoqda.

Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy mahoratini oshirishlari uchun shart-sharoit yaratilayotganligi bugungi o‘quvchilarimizning intellektual, ilmiy va ijodiy iste‘dodini, ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlardan sifatli ta‘lim olayotganligini ta‘minlamoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘tgan qisqa vaqt ichida Prezidentimiz tashabbuslari bilan ochilgan ijod maktablari o‘zining ilk kurtaklarini yoza boshladi. O‘quvchilarining ijod namunalari mahalliy va xorijiy gazeta-jurnallarda chop etilmoqda, ularning ijodiy ishlari to‘plami kitob holida ham nashrdan chiqarilib adabiyot ixlosmandlariga taqdim etildi.


Kitobxonlarning fikr-mulohazalariga tayanib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi ijod maktablarida yangi zamon ijodkorlari tarbiyalanmoqda desak xato bo‘lmaydi.

Ijod maktablari ijodkor bolalarimizning qobiliyati va iste‘dodini yoshligidanoq kashf etishga xizmat qilmoqda. Agar imkoniyat berilsa, kerakli sharoit yaratilsa, bu iste‘dod yanada kuchayib, bir kun yulduz bo‘lib porlashi muqarrar. Ijod maktablari yoshlar uchun ana shunday kreativ muhitni, har tomonlama qulay bilim maydonini yaratib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Umid qilamanki, ushbu to‘plamga kiritilgan ijod maktablari o‘quvchilarining ijodiy ishlari ham sizni befarq qoldirmaydi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi





IBROYIM YUSUPOV
NOMIDAGI

Ijod maktabi





**Aysuliw Muratbaeva
8-sinf o‘quvchisi**

JULDIZLAR

Mine, búgin boldı aqsham,
Juldızlarǵa toldı aspan,
Jarqırayıdı kóz aldımda,
Olar maǵan berer ilham.
Qolım jetpes-alıstasız,
Tańda qayda asıǵasız,
Ketpey turiń, hey gózzallar,
Maǵan qosıq jazdirasız!

USTAZ

Qollarında kitabı,
Mektepke asıǵadı,

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Waqıtları qádirli,
Ádiwli ustazlardıń!

Bilim berip sharshamas,
Bilmegenshe tıñshımas,
Kewilleri nur quyash,
Ádiwli ustazlardıń!



Gózzal Reypnazarova

10-sinf o‘quvchisi

ÓMIR-GÓZZAL!


Ómir-gózzal, kóp jollardan óterseń,
Jaqsılıq, jamanlıq, sabır, qanaat...
Ómirdi mazmunlı súreyin deseń,
Miynetkesh bol- tabıladı rähát.

Bul ómirde baxıtlınıń biri- men,
Altın, gáwhar taslarınıń dúrimen,
Ómir- seni súyip qaldım sonshelli,
Aydın keleshekke qaray júremen.

Dúnyanıń isleri- qızıq, tawsıłmas,
Qiyıñshılıqtan qorqpa, mudam algá bas,
Tek ózińde bolsa kúshli isenim,
Ómir sınaqları hárqız jeńalmas .

Sabırlı bolıwdı úyreter olar,
Ómirim mazmuni- jánnet anam bar,
Jeńermen hárqanday ómir sınavın,
Sebebi, súyener asqar tawım bar.





**Gúldana Qídırbaeva
10-sinf o‘quvchisi**

KEWIL MUZLASA

Lavalar eritpes kewil muzlasa,
Qıynaydı azabı jarań qozǵalsasa,
Ómirden heshqashan kewliń tolmasa,
Adam dep bilmeseń ózińdi hasla.

Dártiéne shergiń kóz jasiń bolar,
Tıńlaydı, kim seniń janıńdı alar,
Sonshama qıynalıp júrgeniń bolar,
Janıńdı jabbarǵa bermeseń bunsha.

Ómir salǵan soqpaqlardı baspasań,
Asqar-asqar tawlardan sen aspasań,
Kúlip-oynap baxıttan hesh taspasań,
Ózińdi insan dep bilmesseń hasla!

BIZ JASLAR

Jaratılıp imkaniyatlar jaslargá,
Keleshekke niq qádemdi taslawǵa,
Jurtbasshimız isenimin aqlawda,
Izleniwden toqtamaymız-biz jaslar!

Kóteremiz bayraqıńdı kóklerge,
Ata jurtım atıń jańlar ellerde,
Elbasshimız qanat bolıp bizlerge,
Izleniwden toqtamaymız-biz jaslar.

Ádebiyat, sport basqa tarawlar,
Qızıǵadı ana watan jasları,
Berilmekte kóp imkaniyatlar,
Dúnyaǵa tanitiwda Ózbekstandı!





Diana Ablakimova

9-sinf o‘quvchisi

IBRAYIM ATAMIZDAY

Men qosıqlar jazaman,
Jaslığımnan etip árman,
El-xalqıma tanılsam,
Ibrayım atamızday.


Kitapxanalarǵa barıp,
Kóp oqıp, bilim alıp,
Qálem menen dos bolıp,
Ibrayım atamızday.

Dúr tawıp poeziyadan,
Marjan dizip poemadan,
Mańızınan nur shashılǵan,
Ibrayım atamızday.

Húrmet tawıp, el kórip,
Kóp kitaplar dóretip,
Júrsem ardaqlı bolıp,
Ibrayım atamızday.

Niyet etip jasayman,
Atam jolın quwaman,
“Qaraqalpaqtıń zor shayırı”
Degen ataq alaman.





Gúlshad Sársenbaeva
9-sinf o'quvchisi

QÁLEM MENEN ÓSHIRGISH
(timsal)

Timsal aytsam men sizge:
Qálem ushi ótkirlenip,
Sóz basladı óshirgishke,
Sóyler dawısın bárent qılıp,
Kerildi óshirgishke qarap:
-“Mennen de zor zat joq biraq,
Kóp adamlar mensiz- olaq!,
Men bir jazǵish qálemmen dá!,
tiymesin maǵan kóziń- jora!”,
Óshirgish der: “Qálem dostım,

Isenbeymen, aytqan sóziń,
Ushní bolsa ótkir, uzın,
Mına dápter tawsılǵansha,
Shıraylanıp bir shıjbayla!”
Sonda qálem oǵan qarap,
Ashıwlanıp bılay dedi:
“Keregiń joq dım heshkimge,
Kesent eteseń hámmege,
Sen bolmaǵanıńda eger,
Insanlar qáte islewden,
Qorqıp durıs sızar edi,
Sen bolmasań heshkim qáte,
Jazıw jazıp júrmes edi,
Isenedi saǵan hámme!
-Dedi de ol ashıw menen,
Hámme jerge sıza ketti,
Tawsılıp qaldı ushi da,
Óshirgish te izinen jetti...





Muqaddes Kóbeysinova
11-sinf o‘quvchisi

SHAYIRA ZULFIYA APAMA

Eger birew bolsa opadar hayal,
Erine, watanga sadiq dünýada,
Onda siz tánhásız, kelmesin málel,
Eger ekew bolsa- ózií ziyada.

Sağınış, ármanlarıń azap bergende,
Qosıq bolıp jawdı qaǵaz betine,
Qarashiqtan jas móldirep kelgende,

Siyaǵa qarısıp ketti-aw shetinen.

Qosıq dúnýasına háykel qoydınız.
Eline, erine opadar degen,
Hayal aspanında quyash boldınız,
Nurińızdan poeziya dóregen.

SAĞINIP JASAYIQ

Sizler menen kóp jıl partalas bolıp,
Bilmegendi sorap kewlimiz tolıp,
Birge ármanlastıq keleshek jolın,
Saǵınıp jasayıq bir-birimizdi.

Bazda turar edik juldızdı ańsap,
Arzıw ayıp emes kóklerge baqsaq,
Dúnyaǵa jaqsılıq shıraqın jaqsaq,
Qollap-quwatlayıq bir-birimizdi.

Ketsekdaǵı monshaqtayın shashılıp,
Aq paxtaday bop turayıq ashılıp,
Menmenlikten bara bersek tasınıp,
Joldan qaytarayıq bir-birimizdi,

Turmistiń kóp biz júrmegen soqpaǵı,
Kimlergedur tiyer onıń toqpaǵı,
Bult qaplasa bolar onıń shaqmaǵı,
Xabardar eteyik bir-birimizdi.




IJOD BOG'IDAN *Guldasta*


Degen gáp bar “diyanatlı hár kisi-
ómirdegi diywaldıń bir gerbishi”
Qoldan kelse azaytayıq táshwishin,
Gúl menen kúteyik hár kúnimizdi.
Saǵınip jasayıq bir-birimizdi!





JÖD MAKTADE






MUHAMMAD YUSUF
NOMIDAGI

Ijod maktabi



MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI
Fjod maktabi



**Shahnoza Ahmadullayeva
11-sinf o‘quvchisi**

BOBUR – PODSHOH

Uzun kecha xotiralar qilar janglar,
Bir imkondir otayotgan ajib tonglar,
Qalam chertar yurakdag'i faxriy bonglar,
Bobur – podshoh moziyda ham, qalbimda ham.

Xatolardan olib saboq topar yo‘lni,
Tanushtirar tabiatni, o‘ng-u so‘lni.
Ta’zimdaman o‘t ko‘ksimga qo‘yib qo‘lni,
Bobur – podshoh moziyda ham, qalbimda ham.



IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Yurt visoli armon bo'lgan bobojonim,
Temur so'zi darmon bo'lgan bobojonim,
Men yulduzman, siz charog'on nur-osmonim,
Bobur – podshoh moziyda ham, qalbimda ham.

So'zlar bor yurakdan chiqmagan,
Va ular ulg'aygan shu yerda.
Sohibi kutmagan, kutmagan,
Bilmagan u nima? Qayerda?

So'zlar bor yurakdan chiqmagan,
Aytishga yetmagan jur'atlar.
Yozilgan, tashlangan, yirtilgan
Xullas, yetib bormagan ishq-xatlar.

So'zlar bor yurakdan chiqmagan.



MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI
Ijod maktabi



**Gulbadanbegim Aliqulova
11-sinf o‘quvchisi**

VATAN

Vatanim, iforing gullar atriday,
Har go‘shang so‘limdir shohlar qasriday,
Azizlik bormidi inson qadriday,
Senga quchog‘imni ochib sevaman!

Ko‘z ochib ko‘rganim - jannatim o‘zing,
Tengi yo‘q bebahon ne’matim o‘zing,
Yelkamni suyagan, savlatim o‘zing ,
Bag‘ringda qush kabi uchib, sevaman!

Kundan kun ko'r kamdir xiyobonlaring,
Shahar-u qishlog'ing, biyobonlaring,
Kun osha ko'paysin sharaf - shonlaring,
Obihayot mehring ichib, sevaman!

Sen mening shavkatim, shuhratimdirsang,
Butun jahon uzra qudratimdirsang,
Ikki dunyo jonim rohatidirsang,
Butun borlig'im-la, quchib sevaman!

URUSH NAFASI

Urush...

Hammani qon qaqshatgan beayov yillar,
Vahima bombadek, kuchayar har kun.
Zambarak o'qlari teshib o'tardi,
Atom yovlaridan kelganda hujum.

Kimdir yorin kutib uxlamaydi hech,
Kimning farzandidan mudhish qoraxat.
Uyda qolgan o'sha minglab qorako'z,
Tinimsiz Allohga qilgay ibodat.

Mehrdan ayrılgan murg'ak go'daklar,
Har tomon dod solib otasin izlar.
Velosipedini tuzatmay ketgan,
Akasin yo'lida intizor ko'zlar...

Shunday o'tar edi har lahza, har kun,

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI

Fjod maktabi

Ko‘cha chiroqlari ko‘ngildek xira.
Butun xalq qo‘rquvda urush vahmidan,
Dag‘-dag‘ titrar yurak, tinchimas sira.

Urush...

Bosh olib ket endi, yiroqlash bizdan,
Biz shodon kunlarga yetaylik omon.
Shamoldek uchgın-u, bitsin zahmating,
Baxtiyor yashaylik, tinch bo‘lsin zamon.



Odina Rahmatullayeva

11-sinf o‘quvchisi

Aytay sizga izhori dilim,
Qalamimning so‘z-ilhomlari.



IJOD BOG'IDAN *Guldasta*



Sarson bo‘lib tanlolmaydi yo‘l,
“Ikki eshik...” qahramonlari.

“Geroy“ nomin oldi Muzaffar,
Lek onasiz o‘sdi, ulg‘aydi.
Xayolida har kun Munavvar,
Sevgisini o‘ylab mung‘aydi.

Robiyaning ishqida sarson,
Ketdi ajal ostonasiga...
Bo‘lib qoldi, ming afsus, armon,
“Kimsan?” – deya o‘z onasiga.

Qora amma – mittigina jon,
Ko‘rgilikdan goh asab tarang.
Mehnatga qo‘l uzatdi tinmay,
Goh nafasin olsa-da arang...

Vafodorlik timsoli bo‘lib,
Mangu qoldi tilda Robiya.
Eh, tog‘asin uyida qolib,
Bitib o‘tdi mangu marsiya.

“Tekstilda” sen pariruxsor,
Eding qizlar ichinda a’lo.
O‘z nafsingga qul bo‘lding, esiz,
Muzaffarning onasi – Ra’no.

Chaqmoq telpagini qo‘ymasdan,
Zaharxanda so‘zlar otuvchi.
Nog‘ayqo‘rg‘on tilida mashhur
Qonun bilgan – Umar zakuchi.





MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI

Fjod maktabi

O'n gulidan bir gul ochilmay,
Zilzilada qoldi Munavvar.
Shirxo'ralik yukini bilmay,
Ko'ngil qo'ygan edi Muzaffar.

Asar hayot janggohi bo'ldi,
Mo'min qulga qattiq jabrlar.
Varaqlarda do'ppayib turar,
Tiriklarni ko'mgan qabrlar!

“PADARKUSH”

ASARI HAQIDA O'YLARIM

Behbudiy o'qiydi millionlab odam,
“Padarkush” asari dillarda mangu.
Mana, necha asr o'tgan bo'lsa ham,
Ko'ngillardan ketmas mudhish bu qayg'u.

Boyning ahvoliga yig'lar butun xalq,
O'z ota qotili bo'ldi Toshmurod.
Axloqi buzuqlik chiqargan odat,
Tangriqul maqsadi bo'lindi murod.

Millatchi musulmon gapini tinglab,
Zarda-la eshigin yopmaganda boy.
Notavon o'g'lini etganda isloh,
Berib qo'ymas edi hayotini boy.





Robiya Mahmudova
10-sinf o'quvchisi

VATAN

Qayga bormay qalbda g'urur, yurakda nur,
Yurak emas, vujudimsan o'zing butkul.
Kuysan, nayning navosiday ajib, yolqin,
Ulug'versan, yuraklarga shuncha yaqin.

Onamdirsan, malhami jon yuraklarga,
Mukofotsan, olivy ezgu tilaklarga,
Shahdim ila maqsad etib bilaklarga,
Poylaringga tuproq bo'lay jonim, Vatan.

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI

Fjod maktabi

O‘xshatolmas ojiz qalam tenging topmay,
Shoirlar lol sen haqingda she’r yozolmay.
Bolangga deb ilinasan qovun totmay,
Vatan, bitta yuragimda bitta o‘zing.

Shiyponlarda bog‘bonimsan chekib zahmat,
Yomg‘ir bo‘lding tuproqlaring etib himmat,
Xalqim, Vatan, senga rahmat,
Senga rahmat!
Otam bo‘lding, soyabonim oftoblarda.

Chinor yanglig‘ sug‘orilding ziylardan,
Kami bo‘lmas jannatiy dilfuzolardan,
Tushmagaysan tillardagi duolardan,
Vatan, bitta yuragimda bitta o‘zing.

Qalamimda, qarog‘imda asragayman,
Yozsam bitmas dostonlarim senga, Vatan.
Menga tikkan umidingni oqlagayman,
Bog‘-u – rog‘im, osmonlarim senga, Vatan.

Humo bo‘lay, qushday uchib osmoningda,
Navo etay madhingni gul bo‘stoningda,
Yorqin yulduz bo‘lay men ham osmoningda,
Taraqqiyot tulporida mag‘rur, xalqim,
Bizga mangu ilingaysan masrur, xalqim!





**Marjona Nizomjonova
10-sinf o'quvchisi**

BOLALIK PILLAPOYALARI

Orzularga to'lgan yuraklar cheksiz,
Bolalik, sen qanday mo'jizasan, ayt
Mehrdan yaralgan tilaklar cheksiz,
So'zlayman shu haqda, aks ettirar bayt.

Bolalarcha kulgi, bolalaracha his,
Tushda samolarga parvoz qilishlar.
Yoshligim o'tmoqda va qolmoqda iz,
Qani, biroz yotib uxbab olishlar?

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI

Fjod maktabi

Kuzatib qoladi yopilmay kitob,
Yoshlikning eng yorqin sahifalarin.
Zinalar yuqori uchadi shitob,
Yuklar bizga dunyo vazifalarin.

Og‘ushida sirlar yotgan qishloqqa,
Yoshlik quyosh bo‘lib botgan qishloqqa,
Kipriklarim bilan oqib borarman,
Balaligim o‘tgan go‘zal chorborg‘ga.



**Durdona Tolipova
10-sinf o‘quvchisi**

NAVOIY YODI

Besh asrkim so‘nmas siz yoqqan gulxan,
Dillarni chiroqdek yoritar hamon.



IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Sizni eslab qalam tebratdim dildan,
Shuhratingiz har bir tillarda doston.

Turkiy tilga Masih bo'lgansiz, bobo,
She'riyat olamin gullatgan ham siz.
Bu kun ijodingiz bo'ldi kuy - navo,
Sizga havas bilan intilgaymiz biz.

Navoiy yodini unutmam sira,
Yuragim tubiga mangu joylayman.
Ishoning, o'sha siz yoqqan gulxanga,
G'urur osmonida yonib bo'ylayman.



MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI
Fjod maktabi



**Sarvinoz Dadajonova
9-sinf o‘quvchisi**

BOLALIK

Otamning yelkasin sog‘indim shu on,
Yo‘qlamay qo‘yibman anchadan buyon.
Ulg‘ayish aybdor, vaqt o‘tgan shodon,
Orqaga qaytmagay endi bolalik.

Ko‘chada dugona o‘rtoqlar bilan,
O‘ynardik loy va tosh, yaproqlar bilan.
Endi she’r yozaman turoqlar bilan,
Orqaga qaytmagay endi bolalik.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Varrak uchirsam-chi, endi bo'lmaydi,
Go'zal xotiralar aslo o'lmaydi.
Yurish-turishingdan ko'ngil to'lmaydi,
Orqaga qaytmaydi endi bolalik.

Onam pishirganda issiq kulcha non,
Suvga oqizardik, quvlashib giryon.
Sog'indim yuragim qo'msaydi hamon,
Orqaga qaytmaydi endi bolalik.

Yaqinda uyimizga,
Kirib keldi chaqaloq.
Ushlab ko'rsam yuzini,
Biram yumshoq-baqaloq.

Shokoladim mittivoy
Nazariga ilmaydi.
Opajon, yana bering
Muzqaymoqlar, demaydi.

Biram shirin jilmayar,
Hamma yaxshi ko'radi.
U ham bizni ko'rganda
Sho'x qiliqlar qiladi.

Chaqaloq ukajonim,
Katta yigit bo'ladi.
Xuddi dadajonimdek,
Elga xizmat qiladi.

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI
Fjod maktabi



**Jasmina Komilova
9-sinf o'quvchisi**

Moviy osmoniga ko'rak qo'shar bulut,
Yo'lingiz yoritar tungi yulduzlar.
Hilol – oy ko'rinar nafis va yorqin,
Quyoshdek porlaydi kecha - kunduzlar.

Mazasin ko'ring-chi, shirmoy nonlarin,
Qarang Andijonning bek do'ppisini.
Xorazm, Buxoro, Surxon eli-yu,
Hazrati Sultonning tik cho'qqisini.

IJOD BOG'IDAN

Guldasta

Go‘zal qizlarining atlaslarida,
Rango-rang milliylik bo‘yi mujassam.
Semurg‘ qushlarining har sasida,
Tinchlik suratini yaratar rassom.

Zangori poyandoz to‘shar saxiy yer,
Sofdil yuraklarga poklik baxsh etib.
Mag‘rur hilpiraydi osmonda bayroq,
Go‘yoki ezgulik, erklikka eltib.

ZULFIYAXONIM

Z-arrin nurlarini avaylab sochib,
U-mid uchqunlarin taratar quyosh,
L-olalar mayliga quchog‘in ochib,
F-alakdan yog‘dirar sevinchli ko‘zyosh.
I-ntiqib ochilar bodom gullari,
Y-ana bahor keldi seni so‘roqlab.
A-rmonlar chekindi bulut singari,
X-azon-u qirovlar ketdi yiroqlab.
O-ydin osmonda oy ko‘rinar yorqin,
N-amchil anhorlarning etaklarida,
I-ltifot ko‘rsatar senga bu yo‘llar,
M-angusan bahorning kurtaklarida!

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI
Fjod maktabi



**Rohila Ro'zimannopova
8-sinf o'quvchisi**

ONA TILIM

Mustabidning zanjiriga boylangan sen,
Qancha yomg'ir, do'lida qolib loylangan sen,
Bulbullarning xonishiga aylangan sen,
Navoiydan qolgan buyuk meros tilim,
Bugun jahon ayvonida e'zoz tilim.

Dedilarki : "Savodsizsan, o'z tiling yo'q".
Sendan oldin yaralgan-ku "Devon-u turk".
"Oh" demadi yuragiga qadalsa o'q,
Qadim turkiy bobolardan meros tilim.
Bugun jahon ayvonida e'zoz tilim!

Til – bu asli bashariyat non-u tuzi,
Til – bu asli bir millatning yorug‘ yuzi,
O‘z tilingdan ayro bo‘lsang unut o‘zni.
Avloniy-u – Behbudiydan meros tilim,
Bugun jahon ayvonida e’zoz tilim!

“Kecha-kunduz” ko‘rdi qancha qaro tunlar,
Jozibasin ko‘rsatganda “O‘tkan kunlar”,
Tomiringni cho‘qib ko‘rdi ko‘r quzg‘unlar,
Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriydan meros tilim,
Bugun jahon ayvonida e’zoz tilim!

Bosib o‘tding yorug‘-qaro zamonlarni,
Yuragingdan yulib tashla tikanlarni,
Vaqti keldi endi gulgung davronlarni.
Men o‘zbekman, buyuk xalqdan meros, tilim.
Bugun jahon ayvonida e’zoz tilim!

QIZG‘ALDOQ
(Muhammad Yusuf she’riga nazira)

“Qizg‘aldog‘im, qirdan bo‘lak koshonang yo‘q,
Kokil yoysang, yerdan bo‘lak toshoynang yo‘q.
O‘ksib-o‘ksib turganingda o‘zim borib,
Peshonangdan o‘pay desam, peshonang yo‘q...”

Ona yerning barcha dard-u g‘amin olib,
Alvon rangda zavq ulashding bosh ko‘tarib.
Rashkim kelar, sen quyoshga boqsang kulib,
Dardlaringni tinglay desam, dilxonang yo‘q.



MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI

Fjod maktabi

Shabnam o‘pgan yuzlaringdan suyib olay,
Aytgin , menga dardlaringni kuyga solay.
Yaproq‘ingga dastxatimni qo‘yib olay,
Ko‘zyosh to‘ksang, darding tinglar bir onang yo‘q.

Xiyonatdan qizil yuzing qaro bo‘lar,
Hijroningda yurak-bag‘rim yaro bo‘lar.
Dardlarimni sendan bo‘lak kim ham bilar,
Asli mendek ishq izlagan sarsonang yo‘q.

Visolingga to‘yolmasdan ketsa bahor,
Oshiqlaring diydoringga zor-intizor.
Andijonda Muhammaddek oshig‘ing bor,
Bir shoirdan o‘zga do‘s-t-u devonang yo‘q.





Elnura Norqulova
8-sinf o‘quvchisi

Hali uzoq ketmasang-da,
Sog‘indim, bolaligim.
Har ne qilsam yarashganim,
Gulzorim – lolaligim.

Yodingdami, sen bilan
Arg‘imchoqda uchardik?
Tun oqshomi osmonda,
Yulduzlarni quchardik.

Erkaliklar yarashardi,
Yig‘lasam ham baqirib.

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI
Sjod maktabi

Dadam meni ovutardi,
Oymomani chaqirib.

Topishmoqlar olamida,
Kezar edim sen bilan.
Onajonim allalari
Hamroh edi men bilan.

Endi hadding bil, deydilar
Yosh bolaga o‘xshama.
Katta bo‘lib qolding,
Qani, kitob o‘qi, uxlama.

Uy ishlari kutar bunda,
Undan qochib bo‘lmaydi.
Afsuski, yo‘q deyolmayman,
Vijdonim yo‘l qo‘ymaydi.

Xullas, qo‘lim tutib asta,
Erkaligim ketkazding.
Mendan olib sho‘xligimni,
Singilchamga yetkazding.

Hayotimning qaymoq fasli,
Bolaligim – sho‘x paytim.
She‘rlarimning mazmunisan,
Eng bebaho shoh baytim.





Muhayyo Ohunjonova
8-sinf o'quvchisi

AGAR

Ruhim iztirobga tiz cho'ksa agar,
Umidlar armonga dil to'ksa agar,
Bag'rimni chokidan g'am so'ksa agar,
Senga topinaman, ona, onajon!

Boshimdan yog'ilsa g'iybatlar duv-duv,
Do'stlarim ko'nglimga solsalar g'uluv,
Nochorligim elda bo'lsa gar shov-shuv,
Senga talpinaman, ona, onajon!

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI

Fjod maktabi

Sendan o‘zga hech kim bo‘lmaydi hamdam,
Quvonch-u , g‘amimni ko‘rmaydi baham.
Baxtimga bir umr yashagin bardam,
Senga yukinaman, ona, onajon!



Zilola G'ofurjonova

8-sinf o‘quvchisi

SHOIR BO‘LISH ORZUSI

She’riyat poyonsiz bog‘ bo‘lsa,
Bog‘ ichra bir shirin mevaman.
Ustozlar bir bo‘ydon daraxt-u,
Men esa shu bog‘ni sevaman.





IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Nazmlar ichinda oralab,
Dildoshi bo'lgayman ularning.
Har sahar yaprog'in avaylab,
Ifori bo'lgayman gullarning.

Va menga kiprigin qoqib shod,
So'zlashar:
– Qand, bolga to'lgaysan.
Navoiy yaratgan bo'stonda ,
Eng sara shoira bo'lgaysan.

Shu kundan dugonam – gulchalar,
Shu kundan men nafis nihola.
She'riyat, quchoq och parvozda,
Bo'lg'usi Zulfiyang - Zilola.



MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI
Fjod maktabi



Kamola Anorboyeva
8-sinf o‘quvchisi

BAHOR

Ko‘klamoy kelsa-yu, gullar ochilsa,
Samoni to‘ldirib uchsa qaldirg‘och.
Boychechak jilmayib, ko‘kka termilsa
Bulutjon, yalpizga marjoningdan soch.

Kamalak rangini ko‘z-ko‘z aylasa,
Oq harir libosin kiysa bodomlar.
Va ukam hayqirsa: “Eshitdingizmi,
Navro‘z kelmoqdadir, eh-hey, odamlar?”

Azizim kumush qish, sen xafa bo‘lma
Har fasl qadrli asli men uchun.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Navbatni bahorga beraylik endi,
Zaminga ko'rsatsin chaqmoq o'z kuchin.



Sarvinoz Latibova

9-sinf o'quvchisi

OYGA ILTIJO

Oynadan tikilgan siniq nigohlar,
Jimlikka cho'milgan sershovqin xonam.
Oyga tikilgancha beraman savol:
Qishlog'im yaxshimi?
Yaxshimi onam?

Tun.

Zulmat qa'rida cheksiz yulduzlar,
Onamning holidan bo'lgandir ogoh,

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI

Fjod maktabi

Munisam yuzlarin silagan shamol,
G‘arib kulbamga ham bo‘lgandir guvoh...

Sog‘inch ummoniga g‘arq bo‘lgan tunim,
Yolg‘iz onam meni etolgay xalos.
Uning jilmayishi qilar kifoya,
Mungli nigohimda chaqnaydi charos.

Oymomo, senga bir o‘tinchim bor, kel,
Diydorga tashnaman fursat topib qo‘y.
Yulduzing avaylab alla aytganda,
Onamning yuzidan bitta o‘pib qo‘y.

TA’TIL

Yaqinlashar quvnoq fasl yoz!
Yaqinlashar eng uzoq ta’til!
Barcha oylar qiziq o’tsa ham,
Lek biz mayni, kutdik baribir.

Biz ketamiz qo‘limiz silkib,
Qolaverar kitoblar ma’yus.
Sevaman deb yozilgan izhor,
Qolib ketdi partada hanuz.

Bo‘yoqchidan qutuldim deya,
Xursand bo‘ldi hatto parta ham.
Ustoz aytdi jo‘sib baralla:
“To‘qson kunga, miyamizga dam!”

Tezroq tuga, maktab, deganlar,
Turibdilar lablarin burib.



IJOD BOG'IDAN
Guldasta



Uch oy qanday yashaymiz endi?
Biz sog'indik ketmasdan turib.

Chorlar bizni sho'x-shodon ta'til,
Lek yurakda, kuchli qaltiroq.
Kimga quvonch, kimga g'am berib,
Chalinadi so'nggi qo'ng'iroq!



Guloyim Mamadaliyeva

8-sinf o'quvchisi

**BIR QIZ YIG'LAR
BULOQ BOSHIDA**

"Bir qiz yig'lar buloq boshida,
Ma'yus majnuntollar qoshida.



Ko‘ngil ohi ko‘zin yoshida,
Bevafo ko‘p ekan dunyoda ”.

Yo‘llarini to‘sadi tog‘lar,
Xuddi dilga sanchilib tig‘lar,
Qiz barchasin unutmas yig‘lar,
Bevafo ko‘p ekan dunyoda.

Savollarga javoblari ko‘p,
Ayriliqning shitoblari ko‘p.
Kuygan yurak azoblari ko‘p,
Bevafo ko‘p ekan dunyoda.

Sayyoh yolg‘iz yurgan sahrolar,
Uzoqlarda qolgan Laylolar,
Ayrilganday Tohir-Zuhrolar,
Bevafo ko‘p ekan dunyoda.

Bas yig‘lama, hoy parivashim,
Nolasi ko‘p, ey parivashim.
Yuzlari moh, oy parivashim,
Bevafo ko‘p ekan dunyoda.





Rayhana Hakimova
9-sinf o'quvchisi

SHAMOL HIKOYASI

Sokin kecha bo'lar dil pora,
Dam olmoqda osmon-u falak,
Ammo bugun shamol bechora,
Olam uzra sarson-u halak.



MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI

Sjod maktabi

Hech ham tinmaydi izlab boshpana
Tirqishlarga urar o‘zini.
Unga rahmi kelgan oshxona,
Shamoljonga aytar so‘zini:

“Nimasidir endi bu ahvol,
Hech qayerga sig‘masa shamol.
Kelgin beray o‘zim boshpana”.
Shamol uchun bo‘ldi tantana.

Ammo oyning o‘n beshi yorug‘,
Va yarmida bo‘lar qorong‘u.
Shamol shu dam soldi zap dovrug‘,
Oshxonani bosdi g‘am-qayg‘u.

Birdan sindi idish-tovoqlar,
Chimirildi bundan qovoqlar.
Oshxonadan haydaldi shamol,
Yana o‘sha sargardon xayol.

Yana sho‘rlik izlar boshpana,
Tirqishlarga urar o‘zini.
Shunda ko‘ngli bo‘sh og‘ilxona,
Shamoljonga aytar so‘zini:

Qadrdonlar, shundaymi himmat,
Bir sho‘rlikka shumi muruvvat?
Kelsang beray o‘zim boshpana,
Shamoljonga bo‘ldi tantana.





IJOD BOG'IDAN

Guldasta


Shamol kirdi to‘polon bilan,
Buzoqchalar hayronda qoldi.
Uchib ketdi bir talay somon,
U oxiri ko‘chada qoldi.

Aslin bilsa ona tabiat,
Shamoljonga bo‘ldi qiblagoh.
Faqatgina beminnat, beg‘am,
Ona zamin bo‘lgaydir panoh.



MID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
IJOD MAKTABI





HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI

Ijod maktabi



HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi



Zarifa Mardiyeva
11-sinf o‘quvchisi

Qara, kuzning ma'yus ko'zлari,
Xazonlardan qarayotgandek.
Mehmon bo'lgan turnalarning ham,
Safarlari qariyotgandek.

Tabiat ham tobora so'lg'in,
Nastarinlar gullamay qo'ydi.
Bahordagi gulgun chog'larni
Tush misoli sarobga yo'ydi.

O'sish, unish, oxiri xazon,
Asli shundan iborat dunyo.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta



Boshimizda zangori osmon,
Xolis hakam bariga go‘yo.

Vaqt millari to‘xtamaydi hech,
Kuz keladi, o‘zgasi ammo.
Turnalarni to‘xtatmoqchiydim,
Qo‘lni silkib bo‘lmadi hatto.

Men bahorni kutib yashardim,
Hozirgi payt qadriga yetmay.
Bilsam, bahor ekan har onim,
Shodliklarim ko‘ngildan ketmay.

Ko‘kka boqib surasan xayol,
Miyig‘ingda kulib qo‘ysan.
Anduhlarni unutib darhol,
Hammasini baxtga yo‘ysan.

So‘z qotishga juftlansa og‘iz,
Orzulardan ochasan mavzu.
Ular soni yulduzdan-da ko‘p,
Barchasiga begona qayg‘u.

Yuragingning tubida dengiz,
To‘lqinlari misoli ashkdan.
Moychechakni dildan sevasan,
Boshqa gullar yonmoqda rashkdan.

Hali hanuz boladek qalbing,
Tushunolmam qanday odamsan?

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Fonuslarni xayol qilguvchi
Sen butun bir o‘zga olamsan....

Sado chiqmas, hech kimdan olqish.
Bu zulmatga bergandek yordam,
Bulut to‘sdi quyosh yuzini.

Qor tagida qolgan bo‘lsa ham
Yurak sezdi gulning isini.



Mashhura Umaraliyeva
10- sinf o‘quvchisi

HAZIL SHE’R

Ol, ye deydi olmajon kulib,
Lekin nomi olmagin deydi.

Mashhura-chi, uning nomini
Adashtirdim deb, olma yeydi.

“KAMTAR QIZALOQ”

Bugun o‘zim birinchi bor,
Shiringina nonlar qildim.
Xamir qorish mashaqqatin,
Ozmasligin endi bildim.

Dadam kelib o‘z ishidan
Non yedilar hidlab-hidlab.
“– Opang qilgan taom ila
Yana shirin”, – deya maqtab.

Onam kelib o‘z ishidan
Nonni ko‘rib “oh” dedilar.
“– Charchog‘im chiqdi”, – deya
Nonim o‘pib xo‘b yedilar.

Ko‘p maqtandim nonim uchun,
Xamir qorib oshirganim.
Yaxshiyamki, men nonimni
Duxovkada pishirganim!


ASLIYAT

Ko‘p bora o‘ylardim bola fikrimcha,
Quyosh aylanar-u Yer harakatsiz.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi

So‘ng ulg‘ayib, bildim: Quyosh jilmasdan,
Yerni aylantirar atrofida zir.

Shunda men his qildim ro‘yi maskanda,
Ko‘ringan narsalar emas aslicha.
Mohiyatin sezsak barcha-barchasin,
Siyrat-u surati asli ayricha.



Mohira Diniqulova
10-sinf o‘quvchisi

QUSHLAR

Mana qish ham keldi. Qara qushlarga,
Uzoq-uzoqlarga uchib ketyapti.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta



Xayrlar aytishib, qanot qoqishib,
Iliq diyorlarga borib yetyapti.

Men ham ketgim keldi zamin qishidan,
Bu sovuq dunyoning g'azab nishidan.
Hech qolgim kelmaydi, qahratonlarda,
Charchadim dunyoning tashvish, ishidan.

Meni olib keting bu yerdan qushlar,
Iliq diyorlarning diyordorlariga.
Mening nafaslarim qoldirib ketmang,
Bu yerning sovuqlik g'uborlariga.

Zag'chalar yonida qoldirmang meni,
Qarg'alar tomonga itarmang sira.
Ularda qoralik, sovuqlik mangu,
Ularning dunyosi shunchalar xira.

Meni o'z dunyomga olib ketinglar,
U yerda yoz bo'lsin, bahorlar bo'lsin.
Saxovati bo'lsin, bo'lsin ibodat,
Oqibatlar oqqan anhorlar bo'lsin.

Meni olib keting, bu yerdan, qushlar...

* * *

Ota...
Ko'ryapsanmi anov tog'larni?
Sen tog'day yuklarni boshda ko'tarding.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi

Men yelkangda ko‘rdim asov tog‘larni,
Lekin, dardi yo‘qdek kulib o‘tarding.

Ota...

Ko‘ryapsanmi anov xirmonni?
Bizning qorin to‘ydi, o‘sha xirmonda.
Biz qorin g‘amini yegandik faqat,
Sen esa hali ham o‘sha armonda.

Ota...

Ko‘ryapsanmi, anov sovuq qish,
Lablaring sovuqdan demaydi bir un.
Bizlar po‘stin kiyib sovuqda qotdik,
Seni ilitdimi kiyiming – yupun.

Ota,
Otajonim,
Davlatim otam,
Men ko‘rdim sochingda oppoq tolangni.
“Kel, dardingni olayin”, – demadim bir bor.
Kechirolsang, kechir aybdor bolangman.

Ota...

Ko‘ryapsanmi, qalbimda ishonch,
Yoningga ishonching oqlab boraman.
Meni duolaring qo‘llasa abad,
Men o‘sha sen kutgan farzand bo‘laman.



Gulyora Jamolova
10-sinf o'quvchisi

ARZIMAS DUNYO

Kapalak umri misol,
O'tkinchidir bu dunyo.
Bir kunlik kabitidir bu –
O'tgan umrimiz go'yo.

Arzirmi, xafa qilmoq,
Na-da xunob bo'lishga?
Tayyorlaning, har ish-chun
Savol-javob qilishga.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Sjod maktabi

UYQU

Uyqu, senga bir savolim bor,
Nega buncha to‘ymayman senga?!

Axir qancha erta uxlamay,
Baribir ham shirinsan menga.

Charchaganda vujudim, jussam,
Ko‘zlarim ham yumilar behol.
Qolib ketar qo‘limda kitob,
O‘qimoqqa qolmaydi majol.

Etma meni o‘zingga maftun,
Yuksalishim, o‘sishim kerak!
Axir qanday farzand bo‘laman,
G‘aflat bosib uxlasa yurak?!

Uxlatguvchi allalar emas,
Uyg‘otguvchi bongga oshiqman.
Meni buyuk zafarlar sari
Yetaklovchi tongga oshiqman!





**Hilola Ziyatova
10-sinf o'quvchisi**

ESHITGIN, HAYOT

Mavjlangan daryo kabi,
Aytaman qo'shiq,
Dard-u alam yo'qolsin,
Kuylayin jo'shib.

Hayot, seni sevaman!
Eshitgin takror,
Sen haqingda kuylayman,
Uzilsa-da, tor!

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi

Berarsan baxt-u omad,
Yo aksi bo‘lar.
Ammo seni sevaman,
Ne bo‘lsa bo‘lar!

Shamollarda to‘zg‘igan,
Sochlarim guvoh.
Seni sevaverishlik,
Bilmam, ne gunoh?!


Savollarim javobsiz,
Na qilay hayhot?!
Seni sevaveraman,
Eshitgin, hayot!

MADAD

Uyg‘onganda gar bilim uchun
Shayton boshlar vasvasasini.
Ey Allohim, o‘zing madad ber
Yengishim-chun talvasasini.

Bilim uchun ochilgan ko‘zlar,
Aldanmasin ikki dunyoda.
Ey Allohim, oson qil yo‘lni,
Bilimimiz bo‘lsin ziyoda!

Tundan tongga bilim o‘rganib,
Bedorlikni quvib o‘tamiz.
Oshno bo‘lsak kitoblar bilan
Maqsadlarga albat yetamiz.



Shahina Ro'ziyeva
10- sinf o'quvchisi.

DIL IZHORIM

Ko'zlarimni ochsam sog'inib seni,
Kun bo'yi xayolda sendan o'zga yo'q.
Hech ham voz kechmayman unutma shuni,
Bundan har soniya ko'ngling bo'lsin to'q!

Tun – bizni visolga yetishtiradi,
Kunduzlar men sensiz chekaman alam.
Sen-la o'tgan kunim xotirjam bo'lsa,
Sensiz o'tgan kunim ko'zlarimda nam.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Sjod maktabi

Hijron meni qiynar senga yetguncha,
Bilasanmi, bu qanday azobli tuyg‘u?!
Sevgimni yashirmay baland aytaman,
Men seni sevaman, sevaman uyqu!

LOLAJON

Yanog‘ingni yanog‘imga qo‘y,
Kuygan qalbim islari ketsin.
Bir sirdoshim sen-ku, lolajon,
“Qaramayman men unga” – debsan?!

Muhabbatning o‘tli shahrida,
Sen o‘zingni qonga bo‘yarding.
Yuragimni yuvsam ham qonga,
Ko‘rarding-u, kulib qo‘yarding.

Men seningdek bo‘lolmadim hech,
Qo‘lga tushsam so‘ldim mastona.
Bardoshimni qayta tiklolmay,
Dardim senga aytgandim, lola.

Muhabbatning o‘tli shahrida,
Yuragimni qonga bo‘yardim.
Qarashlarin, nigohin ko‘rsam,
Men ishqimni chinga yo‘yardim!



Nilufar Qodirova
10-“A” sinf o‘quvchisi

OTA
(Xayollarim)

“Ota qadrin so‘rang otasizdan”, – deb bejizga aytishmagan. Allohga ming shukrlar bo‘lsinki, otam hali hayot. Ba’zan otam va men o‘rtamizda o‘tgan voqealarni ko‘z oldimga keltirsam, o‘zimni vijdonsizdek his etaman. Mana men tug‘ilibmanki, o‘sha vaqtдан beri hanuzgacha otam meni juda-juda yaxshi ko‘radilar. Onamning aytishicha, men tug‘ilganimda, otam juda sevingan ekanlar.

Hozir yoshim yigirmada bo‘lsa ham menga xuddi jajji qizaloqdek munosabatda bo‘ladilar. Meni mehr bilan ko‘p erkalaydilar, doim men uchun qayg‘uradilar.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI

Jod maktabi

O‘zimning eslashimcha, bolaligimda juda yig‘loqi qizaloq edim. Menga qarata zarracha qarshi gap aytilsa, ta’sirlanib yig‘lab yuborar edim. Otam yig‘laganimni ko‘rib, qizim, yig‘lama, hozir men ham yig‘lab yuboraman, – der edilar. O‘sha vaqtda ham otam uchun ko‘z yoshlarimni zo‘rg‘a to‘xtatar edim.

Keyinchalik, ulg‘ayganim sari, otamga nisbatan kamgap bo‘lib qoldim. Bilmadim, bu uyalishdanmi, hech tushunib yeta olmadim. Otam savol bersalar ovozimni past qilib, eshitilar-eshitilmas darajada javob berardim. Yana shuni yodga olaman, har kuni maktabga borar chog‘imda otam meni chaqirib duo qilib qo‘yardilar. Har kuni ularning oldilariga borib duo olishimni tayinlab qo‘ydilar. Keyinchalik bu menga ‘alati tuyula boshladi. Yo‘q duo emas, duo so‘rash.

O‘zi atigi bir og‘iz so‘z aytishga uyalaman-ku, duo so‘rash tilimning uchiga ham chiqmasdi. Bu ham mayli, lekin otam men uchun qayg‘uribmi bilmadim, agar kitob o‘qisam, “yorug‘ joyda o‘qigin” deyishlari, “buncha ko‘p dars qilasan”, “dam olsang, bo‘lmaydimi?”, – deyishlari menga ortiqchadek tuyula boshladi. Vaqt o‘tgan sayin, bu gaplarning ko‘payishi menga otamning g‘amxo‘rligi borgan sayin ortiqchadek, tuyulardi. So‘ng xayolga cho‘mib, atrofimga nazar solib, o‘zimning qanday zulmatga ko‘milib borayotganimni his qila boshladim. – Axir shunchalik ham kalta o‘ylaymanmi?! Keyinchalik hayotimda o‘z tengqurlarimning barchasi ham menday baxtli emasligini tushunib yetdim. Otamning menga bo‘lgan cheksiz va beminnat mehrini tushunib yetdim. Hali ham qalb ko‘zlarim o‘z vaqtida ochilganiga ming bora shukronalar aytaman. Bu haqda so‘zlashimdan maqsad, agar mening holimga tushib, o‘z yo‘lingizga qaytib ulgurmagan bo‘lsangiz, sizga maslahatim yorug‘lik sari intiling, aks holda kech bo‘lishi mumkin. Otalarimiz baxtimizga sog‘-omon bo‘lishsin...

Bizning hayotimizda onalar kabi otalarning ham o‘rnini kattadir!



Marjona Abduqahhorova

10 – sinf o‘quvchisi

YURAK

Eshit, tinglamasang bo‘lmaydi,
Qulqoq tutgin so‘zimga yurak.
Go‘zal kunlar senga kelmaydi,
Sen ularga borishing kerak!

Manzilimiz bunchalar olis,
Hamrohimiz aslida iymon.
Allohimga quldirman ojiz,
Nechun o‘zni zo‘r sanar inson?

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Kutaverma, turaverma jim,
Qara, uzoq mashaqqatli yo‘l.
Oson baxtga erishibdi kim?
Bu hayotning sinovlari mo‘l.

Yomonlikni ko‘rmayin ravo,
So‘zim birdir yaxshi-yomonga.
Bu qalbimga izlab bir davo,
Yo‘l olyapman, Jannat tomonga.

Bejiz umid guli unmaydi,
“Yur Jannatga boramiz, yurak”.
Go‘zal kunlar senga kelmaydi,
Sen ularga borishing kerak!





Kamola Ubaydullayeva
10- sınıf o‘quvchisi

BAHOR

Quyosh bobo doim bahorda,
Daraxtlarning qitiqlar yuzin.
Ular bunga chiday olmasdan,
Tez uyg‘onib ochishar ko‘zin.

Uyg‘onadi ular uyqudan,
Va boqadi go‘zal olamga.
Ular gullab dilni shod etar,
Joylar qolmas dillarda g‘amga

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi

Daraxtlarning go‘zal shoxiga,
Qo‘nib olar xonanda qushlar.
Xonandalar jo‘rovozlikda.
Quvnoq kuylab ko‘ngilni xushlar.

Bugun ko‘kka qarab seni esladim,
Osmonlarda yurgan mitti malagim.
Kechir, sen haqingda yana o‘yladim,
Xayollarim kezgan jajji ertagim.

Yomg‘ir yog‘gan kuni sendan kechgandim.
Xayoldan, visoldan, dildan kechgandim.
Afsus, yana bir bor seni esladim,
Xayollarim kezgan jajji ertagim.

Sensiz yiroqlarda yuribman mana,
Olis xayollarim sendan uzolmay.
Xayolimda qolgan sirimsan yana,
Esiz, yurak dardlariga chidolmay.

So‘zsiz armonimsan, so‘zsiz armonim,
Mendan kecholmagan tengsiz ozorim!





**Nafisa Axrorova
10- sınıf o'quvchisi**

Oy, sening siring bor menga aytmagan,
Yoki ranjitdimi, birorta yulduz.
Bugun sen g'amnoksan, lek avvallari,
Qorong'i zulmatni qilarding kunduz.

Kelgin, ko'k malagi, bo'laylik xursand,
Diydor hadya etib bir - birimizga.
Uchrashuv joyini yaxshi bilasan,
O'sha eski anhor makondir bizga.

O'n besh kun bo'libdi, suhbat qurmabmiz,
Bugun meni tinglab darding to'kkin bir.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Istasang, so‘ylagin tog‘, bog‘-u rog‘dan,
Yo gaplashamizmi dillarga doir?

Oymomo, bilaman shaksiz yodingda,
Shirin suhbatlar-la kechgan tunimiz.
Bizga oshuftadir o‘sha narvoncha,
Hattoki qumsagan pastqam tomimiz.

Qara suhbat avjin olgan pallada,
Yana shu bulutlar bo‘lmoqda baxil.
Bizni o‘zimizdek tushunguvchi yo‘q,
Chunki bizning tashvish, dardimiz bir xil!

MUHAMMAD YUSUFNING
“TILAK” SHE’RIGA NAZIRA

“Har kimning ham sochlariqa oq tushsin,
Ajin tushsin yuzlariga, dog‘ tushsin,
Har kimning ham quvvat ketib belidan,
Qo‘llariga aso-bir tayoq tushsin”.

Har kimga ham nasib qilsin qarimoq,
Onda-sonda injiqlanib og‘rimoq.
Nabiralar chug‘ur-chug‘ur qilsa gar,
Yolg‘ondakam charchab qolib, horimoq.

Nasib etsin to‘qsonda ham yosh bo‘lish,
Xonadonda nur bo‘lish, quyosh bo‘lish.
Ayamasdan nasihat, maslahatni,
To‘y-ma’raka, yig‘inda bosh-qosh bo‘lish.



Mavjuda Irsaliyeva
10 - sind o'quvchisi

BAXT QOMUSI


Har so'zingda alangasi huquqlarning,
Seni derlar bu hayotning baxt qomusi.
Keksa-yu yosh barchaga teng huquq bergen,
O'zingdirsan insonlarning or-nomusi.

Ko'k yuzida quyosh kabi porlagaysan,
Boy-badavlat, bechorani teng yoritib.
Har ish uchun qonunlar bor, barchasini,
Qafas tomon otmagaysan tez qaritib.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Bu hayotdan uqolmagan huquqlarim,
To‘fonlardek otiladi yuragingdan.
Yuzlanadi, albat, senga zulm ko‘rgan,
Fuqaroning bari har dam keragingdan.

Tashakkurlar bo‘lsin senga, baxt qomusi,
Bo‘ronlardan asra bizni huquq bilan.
Sen borsan biz shaxdam qadam tashlagaymiz,
Bosh ko‘tarib yuramiz-da yutuq bilan.



Madina Nurmamatova
9- sind o‘quvchisi

* * *

Hayotimga nazar soldim men,
Balaligim bog‘lardan go‘zal.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Xayollarim bu olamdan keng,
Satrlarim cheki yo'q g'azal.

Yoshligim ham ajoyib dunyo,
Kapalakni derdim uchar gul.
Yasar edim quyosh nuridan,
Onam uchun olmos ba'zan dur.


To'siqlardan sira qo'rqlmayman,
Chunki ular- maqsad kaliti.
Yuqoriga qadam tashlayman,
Bordir olam-olam niyatim.

DENGIZ

Mavj urar to'lqinlar, shovqinli dengiz,
Nimadir deydi u pishqirib ojiz.
Shovullab oqadi, quchadi qirg'oq,
Har gal sovg'a qilar unga chig'anoq.

Kimlarning orzusi uni bir ko'rish,
Qarasam, o'xshaydi feruza toshga.
Unga termilishib qiladi pardoz,
Tunda oyga ko'zgu kunduz quyoshga.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi



Marjona Eshboyeva
9-sinf o'quvchisi

Hali sahar biz uchun erta,
Quyoshdayin charaqlash qiyin.
Insoniyatning dardini olib,
Ufq oqarar soniya sayin.

Ijodkorning sevgisi boshqa,
Tarovati yurakka tadir.
Ustozlarni shirmon non desak,
Biz-chi, xamir uchidan patir.

IJOD BOG'IDAN

Guldasta

Bilolmayman, kimga zarur keragim,
O'chiradi shamlardagi tilakdan.
Na ha deydi, na yo'q deydi yuragim,
Qaytaraymi buni osiy falakdan.

Bor bo'lgisi kelar, lekin juda ham,
Ammo bo'ronlardan juda hayiqar.
Vujudi yog'ochdan bo'lgan kemamni
Bir kun suvning tub-tubiga yiqitar.

BO'LMAADING RO'YO

Eh haqiqat, seni topolmay
Hovuzdag'i aksingga boqdim.
Shundan tanib qolarman deya,
Suv tubiga o'zimni ottim.

Afsus, xato o'ylabman, boshqa
Osmondag'i o'zingday go'yo.
O'yamasdan o'zim otibman,
Oyning aksi! Bo'lmaading ro'yo.

DРАБЛЛАР

Ahmoqlik

– Bu yoqda qo'shig'ingni "Atlas kiy" deb nomlab, u yoqda o'zing nega hindcha ko'yakda o'ynab chiqyapsan?!

O'zbek seriali 2

– O'g'lim, seni oq qilaman.
– Menga desa, ko'k qilmaysizmi...

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi

- Muzdek qordan sovqotayotgandir.
 - Voy! Endi nima qilaman. Bo'ldi, bo'ldi hozir isitaman. Mana qo'shnidan o'tin olib keldim. Birpasda isiysan, bolajonim...
- Onasining qariyalar uyidagi janozasiga kelolmagan o'g'il qabr ustiga shox-shabba to'kdi va o'kirib qorli tuproqni quchdi.



Shohsanam Abduaizimova
9 –sinf o'quvchisi

QIZIQARLI JUMBOQ

Menda o'n beshta shar bor.
Sanayman takror-takror.
Ukamga berdim uchta,
Yorilib ketdi beshta.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Yulib-tortib singilcham,
Oldi sharning ikkitasin.
Injiqlik qilgan edi,
Majbur berdim bittasin.

Qo'llarimdan sirg'alib,
Uchib ketdi ikkitasi.
Qani ayting do'stlarim,
Menda goldi nechtasi?

TUYUQ

O'z qo'llaring bilan erkin qanot yoz,
Aslo to'xtamagin qish-u bahor, yoz.
Hayotda hech qachon yiqilmay desang,
Yolg'onlaringni qo'y, haqiqatni yoz.

HAR YURAKNING BIR BAHORI BOR.

Har yurakning bir bahori bor,
Har yurakka oshno muhabbat.
Ayting, kimning eshigin qoqib,
Zimdan qiyo boqmagan zulmat.

Muhabbat bu sehrli guldir,
G'uncha bo'lib sirin ochmagan.
Muhabbat bu otashin o'tdir,
Lovullab hech so'nib bitmagan.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Sjod maktabi

Muhabbat har qalbdan qurib koshona,
Baralla chaladi ko‘ngil sozini.
Atrofda har kimni qilib parvona,
Kuylaydi hayotning sho‘x ovozini.


QALBDA SO‘LGAN QIZIL ATIRGUL

Qalbim eshididan darchalar ochib,
Mehr olamimga tikanlar sanchib,
Sen ketding yuragim o‘g‘irlab qochib,
Qalbda so‘lgan qizil atirgul.

Demasman hech yomonsan, biroq,
Sen ko‘nglimning tubidan yiroq,
Ketsang gar bilarding, chekishim firoq,
Qalbda so‘lgan qizil atirgul.

Seni a’lo bildim, hammadan yaxshi,
Axir sen eding-ku hayotim naqshi.
Nima ham der edim, qalbing xohishi,
Endi sen qaytmaysan, bu taqdir ishi.





Shaydo Ergasheva
8- sind o'quvchisi

Algebrani o'rganib zimdan,
Tokchalarda qoldi adabiyot.
Fizikaga jon berib dildan,
Ona tilim, qayda taraqqiyot.

Peshtaxtalar yozuvida ham,
Imlo xato uchraydi ammo.
Hatto Nyuton ishlay olmagan,
Masalada yo'qdir muammo.

Mendeleyevning davriy jadvalin,
Sonigacha yod olgan ekan,

Ammo Navoiy g‘azalidan,
Aytolmasa xo‘p uyat ekan.

Elementning tarkibidagi
Molekula sonin bilarmish.
Bobur tavalludiga kelsak,
“O‘tmaganmiz” deya kularmish.

Siz bilmagan ona tili ham,
Tabiiy fanlar kabi muhimroq.
O‘z tilini bilmagan odam,
Doim bo‘lib qoladi qoloq.

DRABLLAR...

Vaqt o‘tganini sezmay qolibman. Uning katta-katta beg‘ubor ko‘zlariga, uzun-uzun kipriklariga termilib qolaveribman. Unga shu darajada umid ila tikilar edimki, u ham meni tushungandek qarab qo‘yar edi. Shu vaqt uzoqdan onamning ovozi eshitildi.

– Qizim, qo‘yxonadan kelsangchi!

Bugun Santining tug‘ilgan kuni. Uning kayfiyati yo‘q. Chunki bugun uni hech kim tabriklamadi. Havo ham horg‘in, uyam charchagan. Aksiga olib, uyiga kelsa, chiroq ham o‘chgan. Uning nigohi qorong‘uda kimningdir qadam tovushlarini sezganday bo‘ldi. Uning fikriga uyiga o‘g‘ri tushgani keldi. Payqar-payqamas qarshisidagiga musht tushirdi. Oradan vaqt o‘tib, yuzi ko‘kargan do‘satlari bilan tug‘ilgan kun nishonladi.

U endigina bulutdan tug'ilgan edi. Hali bunga xursand bo'lib ulgurmay, yerning issiq bag'rida tomchiga aylandi

QORPARCHA

Insonning yuragi qilgan xatolarga uning aqli javobgar emas.

Kaktusning faqat tikanlari qattiq, uning qalbi bebaho.

Ba'zi insonlar o'zlarini osmondag'i yulduzga o'xshatishadi, lekin bilishmaydiki, yulduzlar so'nib qolmaydi. Men ularni sun'iy yo'l doshga o'xshataman. Chunki ular ma'lum bir muddat osmonda bo'lishadi, so'ngra yerga tushishadi. O'z atrofida boshqa sun'iy yo'l dosh bo'lsa ishlamay buzilib ham qolishadi.

— Qo'lingda puling bormi?
— Yo'q, umrim va vaqtim bor.

— Qara, naqadar ulkan daraxt!
— To'g'ri, lekin uning ham tarixida qattiq qish-usov uq kuzlar bo'lgan.

— Hozir gulxan yoqaman.
— Yo'q, shart emas, endi u meni isita olmaydi.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Sjod maktabi

TELEVIZORIM
(Bola tilidan)

Televizorim xo‘p qiziq,
Bilmaganni o‘rgatar.
Jilmayib turar doim,
Ko‘rmaganni ko‘rsatar.

Qulog‘ini burmasam,
Qorayib turar yuzi.
Qulog‘ini bursam gar,
Yetti olam bir o‘zi.

Musiqami, yo kino,
Bulbuldayin sayraydi,
Quvonadi ko‘zlarim,
Ko‘rib, dilim yayraydi.

Yoshligimda eshitgan,
Ertaklar ham bor unda.
Seriallari bir talay,
Ko‘rsatib turar tunda.

Reklamasi dunyoni,
Buzaman deb turadi.
“Jonga tegdi”desam gar,
“Signal yo‘q”ni beradi.

DRABALLAR

Toshdan toshga urilib oqib kelayotgan soy bir kun o‘ziga:
“Taqdirning sinovlari nega bunchalar qattiq”, – debdi.

Unga uzoq vaqt quyoshga qarab turish zararli ekanligini
tushuntirdim. U mening gaplarimga qulon solishni istamadi,
gaplarimni faqat quyosh botganda tushundi va egilib qoldi.



HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Fjod maktabi



**Pokiza Erkinova,
8-o‘quvchisi**

**DO‘STLARIM
(Nazira)**

Naqadarlik og‘riydi bag‘rim,
O‘zni tanho sezaman bu kun.
Do‘sstarimning sog‘inchi, bahri
Yuragimda ko‘tarib to‘lqin.

O‘z domiga tortar meni goh,
Ko‘p sezaman o‘zimni yolg‘iz.
Borardim-u, sog‘inch ustidan,
Shoir vaqtি ekan-da tig‘iz.

Lek bilaman, hayot sinovga
Boyligi-la go‘zal tuyg‘ular.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Chiqib biroz bilim oviga,
Unutildi do'stlik, tuyg'ular.

Albat, do'stlar yig'ilib bir kun,
Unutilmas damlar so'zlaymiz.
Diydorga hech to'ymaymiz bugun,
Saodatni mudom ko'zlaymiz.

Yaxshi yo'ldan ortga qayrilmay,
Yopib ketgan kam-u ko'stlarim.
Do'starimdan hecham ayrilmay,
Ayrilsa ham mendant DO'STLARIM!

"IRTERNET" (**Bolalar tilida "Internet"** **so'zining aytilishi**)

Har kungiday Nurimon,
Darrov qildi xarxasha.
-Olib bering telefon,
Yuray "irternet" osha.
Dadasin jahli chiqib,
Dangal dedi: Gap shunday,
Internet miyang siqib,
Atrofing qilar tunday.
Darvoqe, yana bir gap, -
Barcha til-la tug'ilgan.
Internetdan tortgin tab',
Nutqing bilan shug'ullan.
"Irternet" deding menga, -
"Qiyin so'z ro'yxatin tuz!"

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Sjod maktabi

Barchasin aytolmasang,
Telefondan umid uz!”
Nurimon bilib shunda
Yig‘di qiyin so‘zlarni.
Dadasi kulib qarar,
Uzmayin hech ko‘zlarni.
Nurimon bilib qoldi-
“Irternet”mas “Internet”,
Aytolmay og‘zi toldi,
“-Kallavaram bo‘lmay ket,
Nutqingni deb endi sen
Telefondan ayrilding.
Hammaning huquqi teng-
Deb kattaga aylanding.
Kattalarga qiyinmas
“Irternet” so‘zin aytish.
Telefon kam tiyinmas.
Lek, mayli darsga qaytish
Foydaliroq men uchun.
O‘qish juda yaxshi, lek,
“Irternet” so‘zi nechun
“Internet”ga qo‘ydi chek?!

OLMANING ALAMI

O‘n yoshda edi Jamol,
Bekatda o‘tirardi.
Juda ayyor edi u-
Yolg‘onni qotirardi.
Avtobus kutib Jamol,
Meva yegisi keldi.
Keldi ozg‘in bir ayol,

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Bir qo'l-la ushlab belni.

Ayol qo'lida paket,
Unda bordir ko'p olma.
Shayton dedi: "Hiyla et,
Sen ham olmasiz qolma!"

Jamol sekin qimirlab,
Paketni atay yirtdi.
Ayol turdi imillab,
Jamolning ishi bitdi.

Olmalar qochib tezda,
Har yon yumalab qoldi.
Jamol turib shu kezda,
Olma o'g'irlab oldi.

Ayol e'tibor bermay,
Indamay ketar edi.
Jamol ham bir so'z demay,
Uyiga yetar edi.

Tezda uyiga borib,
Olmani bir tishladi.
Nima berdi ko'p og'riq,
Birdan ko'ngil g'ashladi.

To'satdan xafa bo'lib,
Sakrab turganidan so'ng.
Ichi siqilib, to'lib,
Ko'zguga qaradi o'ng.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi

Qarasaki bir tishin,
O‘rnida tish qolmagan.
Qarang olmaning ishin,
Tish o‘sibdi olmadan!

Birovning haqqi qachon,
Kimga buyurgan deysiz.
O‘zga haqqin olsangiz,
Ming bor pushaymon yeysiz!



Muqaddas Oxbo'tayeva
8- sinf o‘quvchisi

DRABL

Bobo bilan nabira bo‘g‘dagi yo‘lak bo‘ylab borar edi. Bog‘da uchta it ko‘rindi. Bobo aytdi:

– Yur bolam, narigi so‘qmoqdan yura qolamiz.

Nabira:

– Bobo, ustozimiz aytganlar “Sen hayvonlarga tegmasang, ular ham senga tegmaydi” deb.

Bobo:

– Hamma hayvonlar ham ustozing aytgandek emas.

MEHMON KELSA

(3-4 yoshli bola tilidan)

Uyga mehmon kelganda,
Dasturxonlar to‘ladi.
Dasturxonda turli xil,
Noz-ne’matlar bo‘ladi.

Mehmonxona bizlarga,
Shu kuni yot bo‘ladi.
Hovlimiz esa har vaqt,
O‘z bag‘riga oladi.

Shu xonaga kiramiz,
Shuncha xona bo‘lsa ham,
Darrov qaytib chiqamiz,
Bir bor qarasa onam.

Onam aytar, jahldor:
“Ko‘chada eding har vaqt,
Endi mehmon kelganda,
Uyda yuribsan faqat.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Mehmon kelsa har doim,
Undan konfet so‘raysan.
Sabr qilsang, u ketsa,
Hammasini yegaysan.”

Lekin mehmon oldiga,
Kirgim keldi baribir.
Eshikni sekin ochib,
Qadam bosdim birma-bir.

Kirib mehmonxonaga,
Dasturxонни kuzatdim.
Mehmon menga jilmayib,
Bitta konfet uzatdi.

Bu konfetni jon-jon deb,
Yegan bo‘lar edim men.
Onamning gapin eslab,
Unga shunday dedim men.

“Onam mehmon oldida,
Hech narsa yema”degan.
Hamma shirinliklarni,
Ketsangiz yezman ekan



**Zarifa Hakimova,
8- sınıf o‘quvchisi**

O‘ZLIGING ANGLA

O‘zbegim, o‘tmishga bir nazar tashla,
Daladan qaytarding horg‘in, parishon.
“Bir yelkangda ketmon, birida iymon,”
Sabri osmon xalqim, o‘zliging angla.

Tutqunlik davridan endi sen uyg‘on,
Parvoz et ko‘klarga bepoyon osmon.
Nechun haqqing talab qilmaysan inson,
Ey bezabon xalqim, o‘zliging angla.

O‘g‘lingdan xat keldi, o‘qiyolmading,
Asl tarixingga qaray olmading.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Ijod maktabi

Bug‘doy yo‘q, shirmoy non yopa olmading,
Ey mehribon xalqim, o‘zliging angla.

Muallim paxtadan beri kelmasdi,
Nahotki atirgul cho‘lga yarashar.
Sovqotgan bolalar paxta terishar,
Bobodehqon xalqim, o‘zliging angla.


Qurbon bo‘ldi Vatan uchun o‘g‘lonlar,
Sohibqiron kabi mardi maydonlar,
O‘zbekiston arziydi kechishga jonlar,
Jon, onajon xalqim, o‘zliging angla.

TELEGRAM ISMLI XO‘ROZ

Kun: shanba. Kechki olti,
Kichkina ukam Ahmad
Rosa xarxasha qildi
“Darhol yeyman xo‘rozqand”
Oyim “Telegramida”
Dadamlarga so‘z qotdi
“Olib keling bozordan
Ahmadjonga xo‘roz qand”
...Soat olti yarimdan,
Yettidan sakrab o‘tdi
Sakkiz velopoygada
Yettini quvlab yetdi.
Shu payt eshik qo‘ng‘iroq,
Chalindi jiring-jiring.
Eshikni ochsak shu choq,
Dadam turardi. Qarang

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Bog'langan babaq xo'roz,
Qo'lida bir kilo qand.
Qandni ichdik choy bilan,
Xo'rozqanddek shirin biram
Qurdik uyg'a babaq uchun
Xo'rozga nom "Telegram"
Hikoya so'zlash bizdan
Xulosa bo'lsa sizdan



Shahzodbek Hakimboyev
8-sinf o'quvchisi

ZULFIYAXONIM

Siz, sabr timsoli yorga nisbatan,
Siz, nazm ichida mayin sohirsiz.

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Sizni ardoqlaydi ushbu kun Vatan,
Buncha latofatli, buncha mohirsiz.

Sizni yod etamiz o'zlikka qadar,
Siz uchun biyrondir doim zabonim.
Hayot, ijodingiz buyuk naqadar,
Sizga ta'zimdamiz, Zulfiyaxonim.



**Kumush Muhammadiyeva
8- sinf o'quvchisi**

Yomg'ir. Mayin ovozi
Qulog'imga chalinar.
Yurak qurg'ur shoshilib,
"She'r yozgin", – deb yalinar.


IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Shu tob qoshin chimirib,
Qalam qildi qo'shimcha:
“Chaqir tez ilhomningni”
U ham bildi, menimcha.

Ilhomni-ku aslida,
Hech ham chaqirib bo'lmas.
Lekin ko'ngil va qalam
Usiz chiqarolmas sas.







ABDULLA ORIPOV
NOMIDAGI

Ijod maktabi



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI
Ijod maktabi



Gulsevar Umrzoqova
10-sinf o'quvchisi.

ABDULLA ORIPOV XOTIRASIGA

Samo ko'zgusini yerga tutgan dam,
Nazmiy gulistonda barq urdi ijod.
Qo'ng'irtov bo'yida surgancha xayol,
Uni shoir qilib yaratdi hayot.

So'zni ko'ngil bilan terdi qirlardan,
Ko'zlarin qadagan tog'lar purviqor.
Daryolar mavjiga mudom jo'r bo'ldi.
"Vatanim manim" deb kuyladi ilk bor.

So'z ila qayradi nazmiy shamshirin,
Qalblarni zabit etdi she'rlarin kuchi.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta


Zarhal satrlarda dur kabi ma'no,
Yurt madhi yangradi ko'klarni quchib.

She'riyat osmonin bezagi bo'lgan,
Ul "Mitti yulduz"da baytlarin bitdi.
Ishq vasfin ta'riflab, ko'klam chog'ida
Muhabbat poyiga guldasta tutdi.

Shonli kunlarini yodimga olib,
Xotirlab yozganim shu bir parcha she'r,
Mangu tiriklikning bayoti bo'lib,
Qutlug' bir saharda ko'z ochdi shoir.



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI
Ijod maktabi



Hikmatbek Boyqobilov
9-sinf o‘quvchisi

MADHIYAM MADHI

Olamga nur kabi taralar navo,
Maysalar qulog‘in chertib ohista.
Borliq hayrat ichra tingladi uni,
Yana bir bor qayta yangrashin istab.

Bu kuy hamroh bo‘lgan har bitta yurak,
Tiriklik suvidan ichadi qonib.
Madhiyam hurlikdan berganda darak
Tinib qoldi tongning oydin isyoni.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Yerga kipriklarin qadadi quyosh,
Tuyqusdan bir ohang ko'tardi yohu.
Hali million yillab yangrab turadi,
Madhiyam oftobdek yashaydi mangu.

Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?...

Muhammad Yusuf

Ikkimizga birday makon shu Karbalo,
Bag'rikeng dasht – ishq, ayriliq ungan sahro,
Asli cho'lga aylanibdi bu keng dunyo,
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..

Nayza kabi kipriklaring berar ozor,
Ezgulikka sen ham zorsan va men ham zor,
Bu dunyoning yolg'onidan bo'lib bezor,
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..

Sayyod o'qi qilar seni har dam ta'qib,
Dushmanlaring ketar dilga armon taqib,
Kelgin endi o'shalarning ichin yoqib,
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..



Javohir Abdurasulov

9-sinf o‘quvchisi

BAHOR NAFASI

Ko‘ngillarning erkasi,
Fasllarning bekasi,
Yoqimlidir qush sasi,
Essa bahor nafasi.

Eriydi oppoq qorlar,
Yuviladi g‘uborlar,
To‘lib oqar anhorlar,
Essa bahor nafasi.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Yuraklar baxtga to‘la,
Gullar labida jola,
Qizlar yuzida lola,
Essa bahor nafasi.

Qishning zahrini quvib,
Borliq bag‘rin to‘ldirib,
Kelar qushlar in qurib,
Essa bahor nafasi.

Barcha baxtiyor bo‘lar,
Shodon, xushruxsor bo‘lar,
Quvonchdan o‘ynab kular,
Essa bahor nafasi.

Javobin olmadim ishq maktubining,
Daydi shamollar ham so‘rar visoling.
Telba yuragimni ezborda hijron,
Bir yo‘qlab qo‘ymading Majnuning holin.

Tunlari yolg‘izman, uyqusiz- bedor,
Yodimga o‘rnashgan ming xil o‘y-xayol.
Yodgor bo‘lib qoldi ilk muhabbatdan
Sevgimizga guvoh – keksa majnuntol.

Menga hamroh bo‘lar qorong‘u xona,
Pochtalyon kabutar kelar qon yutib.
Ishqing kuylamoqqa shaydir qalamim,
Hamon yashayapman maktubing kutib...



**Dilxush Abduqaxxorov
9-sinf o‘quvchisi**

Aylanganda hayotning charxi,
Yonib, kuydik sevgi dardida.
Boshlanmayin ishqning tarixi,
Joy qolmadi baxtning bag‘rida.

Hayot go‘yo yelkansiz kema,
Yurak esa bezgan baridan.
G‘ururimiz birinchi, deya,
Joy qolmadi baxtning bag‘ridan.

OTA

Siz – azim tog‘. Men – mag‘rur burgut,
Uchib yurgan ko‘ksini kerib.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Siz borsizki, armonim unut,
G'am-g'ussalar ketadi erib.

Men lochinman shamoldan uchqur,
Yiqilmayman hayot zARBidan.
Qanot qoqsam ostimda bulut,
Yuribmanda otam davrida.



Sevinch Nuriddinova
8-sinf o'quvchisi

SOG'INCH

"Seni sog'insalar,
Sen ko'p sog'inding..."
Xoh qadrdon bo'lsin, xoh u bo'lsin yot.
Kutding kechalari o'rtandi qalbing,
Nahot sog'inishdan iborat hayot.



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI

Ijod maktabi

Shamol kokilingni tarab o‘ynaydi,
Oftobning nurlari tillarang tolang.
Maysalar shitirlab, ishqing so‘ylaydi,
Bag‘rimni tirnaydi mahzun kuy, nolang.

Kelar yo‘llaringga bo‘lib intizor,
Yulduzlar ohidan kuy taraladi.
Isming yuragimga nurday quyilar,
Sog‘inchning taftidan she’r yaraladi.

* * *


Yaltiraydi kumush qor,
Ko‘zimga oyna tutib.
Muzlab yotibdi anhor,
Oqmoqlilikni unutib.

Qalblarda orzu to‘la,
Barcha shodon, baxtiyor.
Bolalarning ko‘zida
Yangi yil shukuhi bor.

Archa o‘yinchog‘ida,
Yorqin bir nur porlaydi.
Jilo bor har chiroqda,
Davra sari chorlaydi.

Yaltiroq qor parchasi,
Yulduz sochar borliqqa.
Bunda hech qanday poklik,
Teng kelmas bu yorliqqa.





Farid Shodimurodov
8- sınıf o'quvchisi

YECHIM

Ne'matjonning yettita,
Uloqchasi bor edi.
Ular bilan Ne'matjon,
Juda baxtiyor edi.

Barchasi oppoq uloq,
Qorako'z, shal pangquloq.
Barchasin o'z ismi bor,
Ajratib bo'lmas, biroq.



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI

Sjod maktabi

Ne qilarin bilmasdan,
Ne'matjon o'yga toldi.
So'ng ularni kamalak,
Rangiga bo'yab oldi.

SAVOL

Quyosh ko'kka chiqqanda,
Oy qayerga botadi.
Kuppa-kunduz qayerda,
Yotib hurrak otadi.

Oy qo'rmasin deb ko'kka,
Yulduzni kim teradi.
Quyoshga kim tunlari,
Alla aytib beradi.

Yog'averib tugamas,
Savollarim yomg'iri
Ona, aytingchi, qayda,
Kamalakning oxiri...





Malika Muhammadbotirova
8-sinf o‘quvchisi

UMMON ICHRA GAVHAR, DUR...
(Badia)

Dars boshlandi. O‘qituvchi o‘quvchilardan Alisher Navoiy haqida fikr bildirishlarini so‘radi. Temurjon Navoiyni buyuk so‘z sultonı dedi. Lola esa uni bitmas-tuganmas xazina deb atadi. Nodira osmondagı nur sochuvchi yulduzlarga mengzadi. Buyuk shoirga ehtirom sifatida keltirilgan ta’riflar shu qadar ko‘payib ketdiki, o‘quvchilar parta boshidan javob keltirganlari uchunmi, hamma gaplar aytib bo‘lingandek edi, nazarimda. Shunda birdan xayolimga tinch va osuda, salobatli, to‘lqinlari mayin jimirlab turgan ummon gavdalandi. Navoiy – ummon dedim, birdan hayajonlanib. Ustozimga gapim yoqdi, shekilli, fikrimda



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI

Fjod maktabi

davom etishimni istagandek ma'noli qaradi. Shu damda o'zimni go'yoki ummon ichida his qildim.

Navoiy ummoni! U yerda ko'zni quvnatguvchi cheksiz xazina yotibdi. Undagi qimmatbaho injular, dur-u gavharlar xayolimni tortdi. "Ustoz, undagi xazina tugab qolsa-chi", – deyman, hayratimni yashirmasdan. Sen aslo xavotirlanma, barchaga yetadi, – dedilar ustozim miyig'ida kulib, bu xazina olgan sari ko'payadi. Ustozimning bu so'zlaridan taskin topgan ko'nglim o'z jomini Ummonga tutadi. Qatragina olib sipqoraman. Haqiqatdan ham, tiriklik suvi! Shunday kezda shu suvdan bebahra qolayotganlarga achinaman.

Chindan ham, Navoiy – butun olam shoiri, koinot osmonidagi porloq yulduz, buyuklik cho'qqisidagi so'nmas quyosh, olam ahlining ma'naviy chanqog'ini qondirguvchi zilol suvli buloq. U she'riyat sohibqironi!

Navoiyning g'azal-u dostonlari qalbimni butunlay rom etib, muhabbatimni oshirdi. Go'zal va betakror misralari horg'inlik ingan tanamga jon bo'lib ingandy bo'ldi.

Ummon tubiga so'zsiz sho'ng'iyman. Mana, katta ganjina topdim – "XAMSA"! Ushbu nodir namunani o'qir ekanman, do'stlarimning barcha ta'riflari rost ekanligiga imon keltiraman. "Hayrat ul-abror"! Men uni o'qib chiqdim! Yaxshi kishilarni hayratlantirgan bu gavhar mening ham hayratimga hayrat qo'shdi. Uning ichidan inson odob-axloqi, yurish-turishi, muomalasi, imon-e'tiqodi borasidagi ehtiyojlarning barchasi uchun asqotadigan marjonlarni teraman.

"Hayrat ul-abror"dagi har bir hikoyat aziz insoningizning sizga aytmoqchi bo'lган bir o'giti kabi qadrli. Undagi hikmatlar sizga islom-u imondan saboq beradi. Ular sizni go'yoki Ayubdek to'g'ri yo'lga boshlaydiki, siz undagi o'g'ri misol qilmishlaringizdan hijolat tortasiz. Bu esa barcha xatolaringizni tuzatish imkonini hadya etadi. Ayniqsa, Xuroson ta'rifi keltirilgan saboqlar sizni Vatanni arzirli muhabbat bilan sevishga chorlaydi. Yana kim uning yanglig': "...Sening tog'laring



IJOD BOG'IDAN

Guldasta

oldida falak ham sodda dasht kabitir”, – deya oladi. Ota-onamizni birdek yaxshi ko‘rib, qadrlashga undashi-chi!

*Boshni fido ayla ato boshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.
Tun-kuningga aylagali nur posh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.*


Navoiy – eng buyuk qalb sohibi sifatida tanilganki, uning saxovati oldida Hotami Toyi ham lol.

Navoiy ijodining ohanrabosi menda she’riy hayot uyg‘otdi. Uning barhayot gulshanidan butun umr gul termoq istagim bor!

Shu qadar jo‘shib so‘zlardimki, tengdoshlarim meni jon qulog‘i bilan tinglashardi. Hamma birdan qarsak chalib yubordi.

Menga olqish olib bergen Navoiy dahosiga ta’zim!





Zemfira Esonova
8- sinf o‘quvchisi

ANOR

(Hikoya)

Bir kuni maktabdan qaytayotib ko‘chamizga burilgan ham edimki, bizdan uch-to‘rt hovli narida, yo‘lda bir tugun anorning sochilib yotganini ko‘rib qoldim. Bu ko‘chada bir oila yashar edi. Ularning hovlisida deyarli har kuni urush-janjal arimasdi. Men anorni ana shu hovli yaqinidan topdim. Tong sahar ularning hovlisidan ko‘tarilgan baqir-chaqir ovozi butun ko‘chani uyqudan uyg‘otib yubordi, desam mubolag‘a qilmagan bo‘laman.

Anorlarni uvol qilgim kelmay, terib papkamga soldim. Uyga kelsam, uy to‘la mehmon ekan. Jiyonlarim hovlini boshiga ko‘tarib shovqin qilib o‘ynashardi. Ularni ko‘rib, zavqim oshib ketdi. Birdan papkamda

anorlar borligi esimga keldi. Anorlarni olib, bolalarga ulashdim. Bolalar anorlarni hovlimizdan oqib o'tayotgan ariqdagi zilol suvgaga yuvib olib, yeya boshladilar. Ular anorlarni shunchalik mazza qilib yeishardiki, ularga qarab rosa zavqlanib o'tirdim.

Ertasi kuni ertalab o'sha xonadon bilan yonma-yon yashaydigan Naima xolaning onam bilan suhbatlarini eshitib qoldim. Birovning gapini eshitish qanchalik noto'g'ri bo'lmasin, o'sha mavzuga aloqador bo'lganim uchunmi, suhbatga beixtiyor quloq soldim...

Voqeа bunday bo'lган ekan. Shahlo opa (o'sha oilada yashovchi ayol) eriga bolalari uchun shirinlik olib kelishini aytibdi. Ammo Umid akaning puli yo'q, yaqindagina maoshidan saqlab qolgan pulini ham ro'zg'or xarajatlari uchun sarflab qo'ygan edi. U bir boy kishining bog'ida daraxtlarni parvarish qilish bilan shug'ullanardi. Xo'jayini juda saxiy va ochiqko'ngil odam edi. Umid aka ishga kelayotib uni yo'lakda ko'rib qoldi. Birdan xayoliga undan qarz so'rash fikri kelib qoldi. Xo'jayini u bilan quyuq so'rashgani uchunmi, uning mehrini suiste'mol qilayotganday tuyulib, pul so'rashga iyemandi. Ammo uning har doimgidek ma'yusligini sezgan xo'jayini yoniga kelib, xomushligining sababini so'radi. Umid aka sir boy bermadi. Xo'jayini anorlardan terib, bolalariga olib ketishini tayinladi. U kechga yaqin anorlarni olib, uyga keldi. Xotinining ertalabki alami tarqamagan ekan, shekilli, qayerdagi chang bosgan anorlarni olib kelibsiz deb urushni yangiladi. Erining bu anorlarning shirin va foydali ekanligi haqidagi gapini eshitishga toqat topolmagan xotin o'zini ichkari uyga urdi. Biroz o'tib, zardalanib uydan chiqdi-da, erining ko'z o'ngida ishga ketgach, anorlarni ko'chaga uloqtiribdi.

Oradan bir necha oylar o'tdi. Shu voqeа sababmi, Umid aka uyga anor olib kelmay qo'ydi. Bir kuni ko'chada o'ynab o'tirganimizda bolalari anor yegilari kelganini aytib qolishdi. Men bir paytlar shu hovli yonidan olib ketgan anorlarni endi qaytarish payti kelganini angladim. Otam mакtabda tushlik uchun bergen bir haftalik pulni ishlatmasdan



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI *Ijod maktabi*

yig‘ib yurdim. Yakshanba kuni do‘konga chiqib, o‘sha pullarga anor sotib oldim va ularnikiga bordim. Qo‘limdagi anorlarni bolalarga ulashdim. Ularning xursandchilagini ko‘rgan ota-onaning ham kayfiyati ko‘tarilib, bir-birlariga shunday samimiyat bilan qarashdiki, anor donalari kabi sochilib ketgan mehr-u muhabbatlari qaytganday bo‘ldi.



Guljahon Sadinova
9- sind o‘quvchisi

RO‘MOLCHA *(Hikoya)*

Yana o‘g‘rilarning ishi o‘ngidan keldi. O‘g‘riboshi Ro‘zimurod otasi o‘tib qolgandan buyon shu yo‘l bilan tirikchilik qiladi.

Yaqinda ijaraidan chiqib yangi uy olishadi. Sharofat xola o‘g‘lining bu hunarini haligacha bilmaydi. O‘g‘lim halol ishlab pul topyapti deb



sevinchi ichiga sig'may yuradi boyaqish. Ro'zimurodning xayolida barcha yumushlarimni bitirib olsam, uylangach, shu qilig'imni tashlayman degan o'y yurardi.

Shu safar rosa omadlari kelib, o'ziga yetar boynikiga o'g'rilikka tushishdi. O'g'irlangan pulni to'rtovlon bo'lib olishdi. Ro'zimurodning og'zi qulog'ida... Qaytishda onasiga sovg'a-salomlarga qo'shib ro'molcha oldi. Ro'molchaning bir chetiga qiyaroq qilib "o'glingizdan" deb yozilgan yozuvi ham bor.

Darvoza taqillashi bilan Sharofat xola o'g'lining kelganini sezib darvozani ochdi. Ro'zimurod qo'lidagi ro'molchani onasiga uzatdi. Ona o'g'li keltirgan ro'molchani ko'zlariga surtdi. Eri rahmatli juda qattiqqo'l bo'lganligi bois uning ko'ngli bilan aslo hisoblashmasdi. Shu xonadonga kelin bo'lib kelibdiki, umrida ilk bor tuhfa olayotgani uchunmi, beixtiyor ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Ro'zimurod uyga kirib, ko'rpachalar qatlami orasiga berkitib qo'ygan quticha ichiga, bugun "ishlab" topgan 70 so'mni uy sotib olish uchun yig'ilayotgan pullari ichiga solib yashirib qo'ydi.

Ertasi kuni tong sahardan apil-tapil choyini ichib bo'lib hovliqib "ish"ga otlanmoqchi bo'lib turgan paytda onasi o'g'liga uy ko'rgani bormoqchilagini aytdi.

– Nasib etsa, chiroyli uy olamiz, bolam, – deya onasi uning izidan duo qilib qoldi.

Ro'zimurod uydan chiqarkan, nihoyat o'z uylari bo'lishligini eslab faxrlanib qo'ydi. Yo'l-yo'lakay ishlarini bitirib bo'ldi hamki, sheriklaridan darak bo'lmadi. Anchadan so'ng bugun tunashlari kerak bo'lgan uy burilishida "qulfbuzar" do'sti Qalqonga duch keldi. Qolgan sheriklari ham birpasda paydo bo'lib qolishdi. Qalqon quvonchidan qichqirib yubordi:

– Omadimiz chopdi, Ro'zi! Bugun sizlarga o'zim bayram qilib beraman, og'aynilar, – deb shodon qichqirdi u.

– Tinchlikmi, do'stim, bu deyman tilla topib oldingmi?!



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI

Ijod maktabi

– Toshloq yo‘ldan kelayotgandim, bir hamyonga ko‘zim tushdi. Ichini ochib qarasam, naqd 600 ming so‘m! Omadni qara, oshna!

Qalqon ularni bog‘ yonboshidagi choyxonada mehmon qildi. Gap orasida: Qalqon, og‘ayni, qani pullaringni chiqarchi, – deya g‘udrandi Ro‘zimurod shirakayf holatda. Qalqon cho‘ntagidagi pullarni olib stol ustiga qo‘ydi. Ro‘zimurodning ko‘zi pullar orasida taxlog‘lik turgan ro‘molchaga tushdi. U ro‘molchaning bir chetida yozilgan “o‘g‘lingizdan” degan yozuvni qiynalib o‘qidi...



Fotima Baxtiyorova
8-sinf o‘quvchisi

GULLAR

(Hikoya)

Bahor yashil ko‘ylagini kiygan. Rosa chiroyli manzaralar. Men esa o‘sha anvoyi gullarni ko‘rish uchun ko‘chaning boshidagi bog‘ga




IJOD BOG'IDAN

Guldasta

o'rtoqlarim bilan birga bordim. Gullar juda xushbo'y va chiroqli, qolaversa, bog'dagi daraxtlarni aytmaysizmi, go'zallikda gullab yashnagan. Men hayratlarimni yashirolmasdan, goh daraxtlardagi gullagan novdaga qo'nayotgan asalarilarni tutmoqchi bo'laman, goh gullarni hidlab huzurlanaman va o'rtoqlarimga qarab: "Nima deb o'ylaysizlar mana shu gullarni xushbo'y hid taratib turishining sababi nimada ekan?!", – deyman entikib. O'rtoqlarimning bergen javoblaridan ko'nglim to'lmaydi.

Shu tariqa bir necha kunlar o'tdi. Kunlardan bir kuni men bir tush ko'ribman. Tushimda osmon va yer o'rtasidagi bo'lgan suhbatni eshitib qolibman. Osmon debdi: "Men yaqinda bulutni yig'latmoqchiman. Sening ekinlaring tayyormi?!" Shunda yer: "Ha Tabiatxonim ularni tayyor qilib qo'ygan. Agar vaqt topolmasang men o'zim ariqlardan suvlarni jo'nataveraman", – dedi. Keyin osmon shoshib: "Ha, aytgancha, yer, qachon gullarga xushbo'y hidli kukunni sepib chiqamiz. Mana, mart oyi ham oxirlab qoldi" dedi. Yer: "Mayli, sen kukunni sepishga tayyorlanaver, men o'zim gullarni ogohlantirib qo'yaman", – dedi. Osmon: "Bo'lmasa ishlarni ertagayoq boshlaymiz", – dedi quvonib. Chunki uning uchun gullarga kukun sepish juda ham quvonarli ishlardan edi.

Tushim shu yerga yetganda, shirin uyqudan uyg'onib ketibman. Nonushtadan so'ng ko'chaga chiqdim. Qarasam, ko'chadagi gullarning muattar hidi taralib turardi. Bu hid kechagi xushbo'yligidan-da shirin edi. Rosa quvondim. So'ngra o'ylab qoldim. Shuning uchun ham bahorning ifori o'zgacha ekan-da...




Gulhayo Narzullayeva
8- sınıf o‘quvchisi

BAHORNI KUTIB...
(Hikoya)

Bobomdan qolgan bogi‘miz bo‘lardi... Zerikkan paytlarim boqqa chiqib aylanardim. Mana, bugun ham darsdan toliqib keldim va charchog‘imni bosish uchun o‘zimni bog‘ga urdim. Sim to‘sqidan shundoqqina ko‘rinib turgan qo‘shni bog‘da hamsoyamiz gullarni parvarish qilayotgandi. U negadir ko‘zimga har doim mahzun ko‘rinardi. Qo‘shni ayol ishga shunchalik berilib ketgandiki, so‘rashib o‘tay “Meni ko‘rib sal kayfiyati ko‘tarilar” deya yonlariga bordim. So‘rashgandan keyin u kishiga “hali bahor kelmadи, siz uni intazorlik bilan kutarkansiz-a?” deya kulimsirab gapirdim. Qo‘shnimiz biroz suket saqlab, gapira ketdilar: “Ayol uchun farzand sog‘inchi og‘ir ekan. Agar

u qiz bola bo'lsa, judayam qiyin. O'g'lim o'qishga ketib bir oyda bir kelsa-da, qizim o'n kungina sayohatga ketganida uni sog'inib qolardim. Yigit kishi har yerda ham o'zini eplay oladi. Lekin qiz bola suv, suvg'a tegsang loyqalanadi, qoladi. Uni eplash ham qiyin. Qiz bolaning joni qirqta bo'lsa ham, Alloh bir marotaba yashash imkonini berar ekan. 2000-yilning yoz oylari. O'g'limning tug'ilgan kunini nishonladik. Ertasiga qizalog'imning tobi qochdi. Ko'p yo'talib o'pkasini uzolmay qoldi, shifokorga olib bordim. Avvaliga oddiy shamollah deyishdi. Keyinchalik ahvoli og'irlashdi, yurishga ham qiynalib qoldi. Ancha kunlik tekshiruvlardan so'ng saratonligi aniqlandi. Qizimga aytmadik. O'sha kundan boshlab ko'nglimga g'ulg'ula tushdi. Atigi olti oy umri qolgan edi. Buni undan yashirdik, lekin bizning horg'in yurganimizni ko'rib o'zi aytib qoldi: "Bilaman, men o'laman. O'lsam ham bahorni ko'rib o'lsam bo'ldi", – dedi va o'g'limni yoniga borib "aka, o'qishdan qaytguningizcha bahorni olib kelng, men uni kutib turaman", – dedi, ko'z yoshlarini yashirolmay. Oradan olti oy o'tdi. Bahorgacha bir oylar qolgandi. Taqdir o'yinini qarangki, qizalog'im bu yorug' dunyonи tark etdi. O'zimga kelishim qiyin bo'ldi. Shu bog'ga chiqib o'zimni chalg'itadiganbo'ldim. Gohidaosmondan uchib o'tganqaldirg' ochlardan bahorni so'rayman, nega bahorni ertaroq olib kelmaganini aytib armon qilaman. Agar bahor tezroq kelganida qizalog'im uni ko'rib, o'n ikki bahorni nishonlab ketarmidi, deya o'ylab qolaman. Bahorni nafaqat o'limidan oldin, balki har yili ko'zлari to'rt bo'lib kutardi. Bog'dagi bu manzaralardan nima uchun qizim bahorni kutib yashaganini bildim. Bahor sizning qalbingizga ezgulik urug'larini sepib sizga kayfiyat ulasharkan. To'g'ri, men ham bahorni kutib yashayman. Lekin mening qizalog'im uni chin qalbidan kutardi. Agar hozir hayot bo'lganida, o'n sakkiz bahorini nishonlardi", – deya ko'zlaridagi yoshni artdilar. Yaralarini yangilaganim uchun uzr so'radim va uyga kirdim. O'ylab qarasam, men bahorni u kishichalik kutmas ekanman. Men bahorni shunchaki daraxt shoxlarini sindirib dovuchchalarni terib yejish,

sho‘xliklar qilish uchun kutar ekanman...




Lazizabonu Ziyodullayeva
8- sinf o‘quvchisi

YUPANCH
(Hikoya)

Osmon bulut. Maktabdan qaytyapman. O‘zi torgina bo‘lsa-da, chumolilar bu yo‘lakchani katta yo‘ldek tutishib, hatto menga ham yo‘l bermasdilar. Hayron qoldim. Nahotki, shu mitti jonzotlarning yumushlari hammanikidan ham ko‘p bo‘lsa-ya?! Balki yomg‘ir yog‘ib, ularning inlarini yopib qolmasidan inlariga kirib olishni o‘ylayotgandirlar. Balki yomg‘ir yog‘ib qolib, yerlar loy bo‘lganidan keyin o‘sha yerda nobud bo‘lmaslik uchundir bu shitobon ketish. Ularni bosib olmay, deya zo‘rg‘a oyoq uchida yuryapman. Mendan ozgina oldinda ketayotgan ona-bola bu sukutni buzishardi. Ona tinmay telefonda dugonasi bilan

allaqanday zamonaviy liboslar-u, oyoq kiyimlar haqida gaplashar, bola esa tinmay shokolad yeyman deb onasini turtardi. Onasi esa unga e'tibor ham bermasdi. Bola zor qaqshab shokolad deb yig'lardi. Bolaning qaysarligi tutib yerga o'tirib yig'lay boshladi. Ona esa hanuzgacha beparvo, ortiga ham qaramay ketaverardi. Qanchalar nodonlik. O'zi yaxshi ayolga o'xshaydi. Shu qadar telefonda gaplashishga berilib ketgandi, shu xolos. Ayol anchagina olislab ketgandi. Yugurib borib bolani turg'izmoqchi bo'ldim-u, shunda Tarbiya fani ustozim aytgan bir gapni shamollar yashin tezligida uchirib keldi. Yaponiyada bolalar yiqilsa turg'izib olinmas ekan. Chunki ular o'zлari turishlari kerak, bu esa ularni kelajakda o'z kuchlariga ishonib ish ko'rishga asqotar emish. Agarda bolaga yordam berganingizni ota-onasi ko'rib qolsa, sizni darrov urishadi. Sababini esa yuqorida aytib o'tdim. Akincha, bizda bu holat boshqacha. Agarda biror-bir bola yiqilib ketguday bo'lsa darrov turg'izib, ovutishga tushamiz. Bu esa o'zligimizdan darak. Men xayolimdag'i bo'limg'ur fikrlarni quvib yuborib, bolani turg'izdim. U hali hamon shokolad yeyman deb xarxasha qilardi. Shunda ukamga olib borayotgan shokoladimni bolaning qo'liga tutdim. Bolakay quvonib ketdi. Men ketayotganligimda bolaning onasi yonimda ekanligini his etdim. U menga rahmat aytib, bolasini yetaklaganicha ketdi. Shu payt jala quyib yubordi. Namchil havodan ezilgan, garchi ukamning istagini bajara olmaydigan bo'lib, uyga qaytsam-da, o'zimni qushdek yengil his qillardim.





Anora Ismatova

8- sind o'quvchisi

YASHIL DENGIZ

(Hikoya)

Biz oilamiz bilan shaharda turardik, buvim esa qishloqda yashardilar. Bir kuni buvimlarnikiga boradigan bo'ldik. Ular yashaydigan qishloq juda so'lim edi. U yerda kattagina bug'doyzor maydoni bo'lib, meni ko'proq o'ziga chorlaydigan narsa mana shu manzara edi. U yam-yashil va to'liq bug'doylarini silkib dengiz kabi chayqalardi. Qishloqning nomi ham "Yashil dengiz" deb atalardi. Aslida, qishloq nomi "Yertepa" edi. Ammo hech kim uni bu nom bilan atamas, mabodo kimdir so'rab qolguday bo'lsa, "Yashil dengiz" deb javob berishardi. Men esa bunga juda ham qiziqardim...

Buvim qishloqda yolg'iz yashardilar. Ota-onam buvimga biz bilan birga yashang deb qancha qistasalar ham, sira unamasdilar. "O'z uyim

o'lan to'shagim. Shu yerda tug'ildimmi, shu yerda o'laman", – deya oyoq tirab turib olardilar.

Erta tongda yo'lga tushdik. Uzoq yo'l yurib, bug'doyzorga ham yetib keldik. Ko'z o'ngimni ajib bir go'zallik qopladi. Bug'doy boshoqlari go'yoki dengiz suvlaridek to'lqinlanib, yoqimli chayqalardi. Buvimnikiga yetib keldik hamki, bu manzara xayolimdan ketmadi. Buvim bizlarni ko'rib sevinganidan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Dasturxon atrofida kechgan suhbat yanada qiziqarli kechdi. Tushdan so'ng bug'doyzorni tomosha qilgani bordim. Mayin shamol jilosida tovlangan bug'doy maysalari yashil dengizga o'xshardi. Ayniqsa, yomg'ir yog'gan paytlarda yanada yashillanib tovlanardi. Odamlar bu yerni nega yashil dengiz deyishganini endi anglaganday bo'ldim. Bu bug'doyzordan qishloq ahli uzoq yillardan buyon foydalanib keladi. Buvim bug'doyzor haqida gapirganda, qattiq ocharchilik yillarida qishloq odamlarining hayotini saqlab qolganligini aytib charchamasdi. Buvim ham, qishloq ahli ham bug'doyzorning kelgusi taqdiri haqida hech nima bilmasdilar. Bu yerlar yaqin orada buzilib, o'rniga ko'p qavatli imorat qurilishi rejalshtirilgani ularga ma'lum emasdi. Aksiga olib, bu loyihaning muallifi mening otam edi. Men ham buni yaqinda bildim. Aslida, qishloqqa kelganimiz boisi ham shu edi. Buvim buni eshitsalar qattiq xafa bo'ladilar. Ammo men ham bu loyihaga qarshi edim. Shunday keng maydonda yashab turgan bug'doylarni yakson qilish vahshiylik edi. Otamga o'sha yerni buzmasliklarini bir necha bor aytib ko'rdim, biroq foydasi bo'lmadi. Otam bu o'zining qo'lida emasligini, unga ham yuqoridan topshiriq berilganini aytib tushuntirdi. Otam buni atayin qilmayotganligini yaxshi bilardim.

Dadam bizga bir muddat qishloqda yashashimizni aytди. Ishga ham shu yerdan qatnaydigan bo'ldi. Otam erta tongda ketar va ishdan juda kech qaytardi. Uyda ham qog'ozlarga ko'milib ishlardi. Keyinchalik buvim ham, qishloq ahli ham bu loyihadan xabar topishdi.

Ular, ayniqsa, buvim bundan norozi edi. Har kuni buvimming eshigi oldida odamlar to‘plana boshladi.

Buvim va men har kuni bug‘doyzorga borardik. Buvim bug‘doyzor bilan o‘z tilida gaplashardi. Bir kuni u shovullagan bug‘doylarga qarab ancha vaqt jim qoldi. Men buvimming nima haqida o‘ylayotganini his qilardim. Uni biroz chalg‘itish uchun savollar bera boshladim.

– Buvi, bug‘doyzorni kim barpo etgan?

– Eh qizalog‘im, bu joylarning tarixi juda uzun. Bu yerlar menga ota meros! Bobom rahmatli: “Qishlog‘imizning ildizi – yashil dengiz!” deya ta‘kidlardi. Hov anavi tegirmonni ko‘ryapsanmi? Uni butun qishloq hashar yo‘li bilan qurban.

– Demak, bu bug‘doyzor boshqasiga o‘xshamas ekan-da?!

– Ha, shunday, bolam! Qani endi boshqalar ham sendek o‘ylashsa!

Buvim to quyosh botguncha bug‘doyzorga qattiq termilib o‘tirdi. Uning ko‘zlarida armonli bir ifoda ko‘rinib turardi.

Bir haftadan so‘ng qishloqda katta buldozer va ekskovatorlar paydo bo‘ldi. Dadam kun-u tun uxlamasdan ishlari bilan band, oyim buvimi olib ketish uchun narsalarini yig‘ish bilan ovora, men esa “yashil dengiz”ga termilgancha xayol surib o‘tirardim. Buvim nega uylarini tashlab, biz bilan shaharga ketmasligini endi tushunib yetgandim.

Ertasiga tong sahardan buldozerlar ishga shaylanib, bug‘doyzorni o‘rab olgan, men esa “yashil dengiz”ni qutqarmoqchiday, u tomon yugurib borardim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, butun qishloq ahli yig‘ilib, bug‘doyzor atrofini o‘rab olgan edi. Shu payt katta yoshli bir kishi: “Hoy, esingiz joyidami, chetga o‘tinglar!” deya tinimsiz baqirardi.

Buvim ham olomon ichida edi. Bug‘doyzorni buzmoqchi bo‘lsangiz, avval bizlarni bosib o‘tinglar deganday yo‘lni to‘sib turishardi. Buldozerlar biror ish qilolmasliklarini bilib, turgan joyida qotib qoldi. Oradan bir qancha vaqt o‘tdi hamki, buldozerlar va ekskovatorlar “yashil dengiz” yonida terilib turardi.





Gulibonu Davronova
10-sinf o‘quvchisi

ABDULLA ORIPOVDAN

ONA TILIM

Ming yillarkim bulbul kalomi,
O‘zgarmaydi yaxlit hamisha.
Ammo sho‘rlik to‘tining holi,
O‘zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman.



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI
Jyod maktabi

РОДНОЙ ЯЗЫК

Слово соловей на тысячи лет,
Целое не меняется.
Но состаяние бедного попугая,
Подражание другим всегда.

Уверен родной язык что ты пойдёш,
Я вложил в стихотворение песню соловья.
Без сомнения, в тот день когда ты исчез,
Я тоже останусь попугаем.











IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI

Ijod maktabi





**Ifora Olimjonova
10-sinf o'quvchisi**

KELASI SAFAR

Hali baxt keladi, ketadi dardlar,
Qalbdagi quvonchlar qozonar zafar.
Armonga aylanmas o'shal fursatlar,
Biz baxtga yetamiz kelasi safar.

Hali tonglar otar beg'ubor, beg'am,
Go'zal o'lkalarga qilamiz safar.
Yenga olmas bizni aslo dard, alam,
Biz baxtga yetamiz kelasi safar.

Bu gal mayli biroz chekinib ortga
Beramiz ul qishga o'z navbatini.
Lek bunda mehr-la yog'ajak qorga
So'ylaymiz qalbimiz hur istagini.

Yana ko'klam kelgach, butun olamga
Ko'z ochgach mudragan jonli tabiat.
Bahorning nafasi ko'chgach nolamga
Biz baxtga yetamiz ana shu safar!

YUKSALISH

O'zgaradi olam, o'zgarar zamon,
O'zgarar insonlar va ilm-u ijod.
Avlodlar yangilik istaydi har on,
Shuning-chun rivojda fan, taraqqiyot.

Zamonaviy ta'lim, yangicha uslub,
Yangicha qarashlar, orzu, o'y, havas.
Intiladi, turmas hech vaqtni kutib,
Yangilikka tashna, zinhor to'xtamas.

Kecha insonlarni qiynagan yumush,
Bugun texnikaning o'z zimmasida.
Osmonni to'ldirib uchgan po'lat qush
Qanotin keng yozar ko'k o'rtasida.

Ertaga topadi bundan-da rivoj,
Nihoya etolmay qoladi aql.
O'zini oqlagay berilgan ishonch,
Yuksalishga qadam qo'ysak biz dadil!



Odina Rustamjonova
9- sind o‘quvchisi

BAHOR

Olam ochib gulchiroy,
Misli yangi hilol oy,
To‘lib oqdi daryo, soy,
Keldi maftunkor bahor.

Gullar terdim men asta,
Onam uchun guldasta,
Kelajakka payvasta,
Keldi maftunkor bahor.

Olamga nur to'ldirib,
Quvontirib, kuldirib,
Qalblarni inontirib,
Keldi maftunkor bahor.


ONAM

Sizga talpinaman hamisha, har dam,
Qadri balandlikda tengsiz, yagonam,
Umidbaxsh jondoshim, aziz hamxonam,
Suyangan tog'imsiz, sirdoshim onam.

Siz borsiz - har makon behisht misoli,
Siz yorsiz - sadoqat, vafo timsoli,
Mehrdan yaralgan o'zbek ayoli,
Dardlarimga darmon, darddoshim onam.

Sizning yoningizda g'am-tashvish netar,
Bilmayman tarqalib qaylarga ketar,
Kulsangiz, bu boshim osmonga yetar,
Qalbimdagi so'nmas quyoshim, onam!





Shaxzoda Abdullayeva

9-sinf o‘quvchisi

ONA TILIM

Sen tonglarning sabosiga jo bo‘lgansan,
Yaproqlarning shitiriday quvnar dilim.
Quyosh, Yer, Suv, bari so‘zlar bisotida,
Tabiatning tarjimoni ona tilim.

Sen kun bo‘yi aytib yurgan istig‘forim,
Ezgulikka undab turar tirikdirsang.
Har yangi kun shukr deyman tabassum-la,
Vujudimda urib turgan yurakdirsang.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Sen onamning allasida mazmun topgan,
Ko'hna turon xalqlarining beshigisan.
Keksa bobom kaftidagi duosi-yu ,
Salom berib kirilguvchi eshigisan.

Ustozlarim ta'rifida balli o'zing ,
Sen shoirsan, sen hofizsan, sen san'atkor.
Madhiyamsan, sportchining ko'z yoshisan,
Ona tilim, Ona yanglig' maqoming bor.

G'alabamning kalitini sendan ko'rdim,
Baxtim o'zing, ahdim o'zing, taqdirim ham.
O'nlab tilda so'zlashishni bilaman-u,
Oxirida faqat senga rahmat deyman.



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
Ijod maktabi



**Shoira Abdumalikova
10-sinf o'quvchisi**

YANGI O'ZBEKISTON

Yangi O'zbekiston, sensan ona yurt,
Quchog'ingda mamnun yashaymiz har dam.
Ko'ngil shodligidan, baxtim to'kis but,
Yuksak orzularga yetamiz shaxdam.

Konstitutsiyam – faxrli kitob,
Oltindek bebahohar bitta modda.
Istiqlol in'omi - misoli oftob,
Har so'zi ma'nodor, lo'nda va sodda.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Uchinchi Renessans – maqsad manzili,
Berilgan yoshlarga cheksiz imkonlar.
Qomusimda huquq, burchlar jo - bajo,
Shundayin Vatanga fidodir jonlar.

Ana, chopqilaydi jajji bolajon,
Kulgulari tutar yer -u samoni.
Intilar, yuragi to'la, hayajon.
Ushaladi xalqim orzu-armoni.

Men uchun muqaddas shu yurt tuprog'i,
Ko'zlarimga surtib aylay to'tiyo.
Vatanga muhabbat - mehr bulog'i,
Bizni havas qilsin bu ko'hna dunyo.

Yurtboshim har ishda oqil, rahnamo,
Yuksak ishonchlari bizga kuch-quvvat.
Olqish aytajakdur hatto yer - samo,
O'zbekiston olam ko'zida uyg'otar hayrat.



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
Sjod maktabi



Baxodirova Dinora

10-sinf o‘quvchisi

**KUZ YAXSHI,
BAHORGA YETMAYDI FAQAT**

Bog‘ uzra yeladi, mayin shamollar,
Mayli, yomg‘irlarga qilarmiz toqat.
Dilimni ezadi bargi – xazonlar,
Kuz yaxshi, bahorga yetmaydi faqat.

Qushlar ishqqa to‘lib boqadi tongga,
Nur sochar quyosh ham saharda loqayd
Chumolilar uyin to‘ldirgan donga,
Kuz yaxshi, bahorga yetmaydi faqat.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Bahorni sevaman, bahor o'zgacha
Anhorlar bo'yida yalpiz, binafsha,
Zavqi so'nmas hatto kuzgacha,
Bahorni sevaman, o'zi boshqacha.

Bog' uzra yeladi mayin shamollar,
Mayli yomg'irlarga qilarmiz toqat.
Dilimni ezadi bargi xazonlar,
Kuz yaxshi, bahorga yetmaydi faqat.



**G'ofurova Rayhona
11- sınıf o'quvchisi**

NAVRO'Z

Xush kelibsan, o'l kamga Navro'z,
Yangi kun, yangi oy, yangi yil o'zing.

Barcha go‘allikni qilarsan ko‘z – ko‘z,
Tenglashtirding tunim - kunduz.

Sumalak taoming dasturxon ko‘rki,
Tandirda ko‘k somsa yopilar nondek.
Tarovating yangilikka o‘zgacha turtki,
E’zozga loyiqsan aziz insondek.

Momolar bobolar tinmay duoda,
Qut-baraka tilar tillari biyron.
Varraklar uchadi qushdek havoda,
Bolalar qiyqirib, olqishlar shodon.

Binafsha, boychechak, lola-yu - yalpiz
Iforidan yayrab - yashnaydi bog‘lar.
Mehr – oqibatni mahkam tutyapmiz,
Jannat daragini berar xush chog‘lar.





Qurvonaliyeva Muhayyo
11- sinf o‘quvchisi

VAQT

O‘tmishga aylanar bugun ertaga,
Vaqt oliy hakamdir hayot bobida.
Umr tashvishlari ko‘pmas jo‘rttaga,
Ey inson, shuni bil vaqtning borida.

Yo g‘aming qachondir tugab qolganmi?
Tashvishsiz yurganing eslaysanmi hech?
Dunyoda abadiy kimdir qolganmi?
Shuni anglab yetgin bo‘lmasidan kech.

Bir kun yakun topar bu foni olam,
Umr ortga qaytmas, u – daryo kabi.

Behuda ketkazma vaqtni hech ham,
Bu senga yagona baxtning talabi!


**USTOZLARIM,
SIZGA TA'ZIM !**

Joningizni kuydiruvchi,
O'zimizni suyduruvchi,
Kuyib turib kulduruvchi,
Ustozlarim, sizga ta'zim !

Uchqun tashlab, dil yondirgan,
G'amni quvib, quvontirgan,
Tillaridan bol tomdirgan
Ustozlarim, sizga ta'zim !

Yiroq ketsak sog'inamiz,
Gar ranjitsak, og'rinamiz,
Siz otamiz, siz onamiz,
Ustozlarim, sizga ta'zim !

Har she'rimning yuragisiz,
Barchaning teng keragisiz,
Shu Vatanning tirkagisiz,
Ustozlarim, sizga ta'zim !



Karimjonova Aziza
9- sind o'quvchisi

NON QADRI

Katta tanaffus payti. O'quvchilar maza qilib koptok o'ynashyapti. Hu nariroqda, sho'x bolalar o'qituvchisining "Sanjar, Murod, pastga tush", – degan gaplariga ham qaramay, daraxtga chiqib, yong'oq uzishyapti. Eh, qanday baxtli onlar... Iye, ana darsga qo'ng'iroq chalindi. Biroz xayolga berilsangiz shu-da!

O'quvchilar hammasi "gurr" etib sinfxonaga kirib ketishdi. 5-sinfda hozir ona tili darsi. O'qituvchi jon kuydirib "Punktuatsiya" mavzusini tushuntiryapti. Dars ham tugadi. Endi uyga ketishadi. Ana, qo'shni qizlar Soliha, Laylo, Madina, Guli doimo birga yurishadi. Hozir kelajakda kim bo'lishlari haqida suhbatlashib borishyapti. Birdan Laylo yo'l ustida yotgan bir bo'lak nonga ko'zi tushib qoldi. Shunda onasi bilan bilan bo'lib o'tgan suhbat esiga tushdi:

– Qizim, non ulug' ne'mat, uni e'zozlash lozim.

IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
Ijod maktabi

– Nega, oyijon?

– Chunki non osonlik bilan yaratilmaydi. Uni dasturxonga tortiq qilingunga qadar inson qancha mashaqqatlarni boshidan kechiradi, to bug'doy ekishdan tortib, ustiga sedana sepilguncha bor mehrini unga qaratadi. Endi tushundingmi, qizalog'im?

Shu so'zlar qulog'ida yangradi-yu, o'rtoqlari uni bosib o'tmasliklari uchun, yugurib bordi-da, ko'zlariga surtdi va cho'ntagiga solib qo'ydi. Laylo o'z ishidan juda xursand bo'lди. Uyida onasidan maqtovlar eshitishini o'ylab, ko'ngliga mammunlik tuydi.



Tursunboyeva Nigora
9-sinf o'quvchisi

OILAGA MUHABBAT

Kech kuz. Atrofga qorong'ilik tusha boshladi. Ko'chadan ketib borar ekanman, turli xil piyoda odamlarga ko'zim tushadi. Kimdir

uyga shoshgan, yana kimdir sovuq bo'lishiga qaramay skameykada gazeta o'qish bilan band. Jimgina ketib borar ekanman nogohon bir to'da kuchuklarga ko'zim tushdi. Yaqinroq borib qaradim. Behol yotgan onasining oldiga borib juda g'amgin ingranishardi. Bilishimcha, onasi betob. Asta sumkamni olib qaradim, ichida tushlik mahali ovqatlanganimdan qolgan bir burda non bor ekan. Oldim-u kuchuklarga tashladim. Och bo'lsa-da nonni onalari oldiga surdi. Onasi nonni yedi. Hayron qoldim. Shu hayvonlarda ham mehr bor-a?!

Bir payt suyak tishlagan bir kattakon it paydo bo'ldi. U ham suyakni kasal yotgan itga berdi. Boshini ko'tarib, suyakni g'ajiy boshladi va ancha tetiklashdi. Bir payt hammalari bir-birlarining pinjiga tiqilib yotib olishdi. Yo'lda davom etarkanman, qo'shnimiz Inobat xola yodimga keldi. Nahotki hayvonlar odamlardan mehribon?!

Inobat xolani kasal holida farzandlari tashlab ketishgan. Qo'shnilar undan xabardor bo'lib turishardi. Nahotki?!

Xayol bilan bo'lib uyga qanday yetib kelganimni bilmay qoldim.

Har kuni uyga kelsam, issiq ovqat tayyor, uylar toza. Onam oshxonadan belini ushlab chiqib keldi.

- Ha qizim, parishonsan?
- Yo'q oyi, o'zim shunchaki...
- Belingiz og'riyaptimi?
- Ey, bilasan-ku, eski kasalim...

Nahotki onamning betobligiga e'tibor bermagan bo'lsam... Dadam ham odatiy holdek ko'nikib ketgan... Onamga qaradim. Yuzlariga ajin tushibdi.

Beixtiyor kuchuk bolalari ko'z oldimga keldi. Och bo'lsa-da nonni onalariga ilindi. Betobligi uchun onasining atroflarida parvona. Shu hayvonchalik aqlim yo'qmi? Alloh bergen shunday oilam bor. Biron marta ota-onam, buvijonimni ko'nglini olmabman. Ukam bilan akam, singlim ham o'z ishlari bilan ovvora.

Onajon meni kechiring.

Ich-ichimdan yig'i keldi. Hamma kechki ovqatga yig'ildi. Yana onam hammadan kech kelib o'tirdi. Ovqatlanib birin-ketin turib ketishdi. Onam bir o'zi ovqatlanib, idishlarni yig'ishtira boshladи.

Yugurib borib qo'lidan idishlarni oldim.

– Bering, o'zim yuvaman!

Onam ko'zlarini pirpiratib hayron qoldi. Endi bu oilada boshqacha bo'ladi, onajon. Bu oilada hamma sizga mehr ko'rsatadi.

– Bu mening oilam, – dedim sekingina. – Oilaga mehr ko'rsatishni, oila muqaddasligini itlardan o'rgandim, ona.

– Isitmang yo'qmi qizim?, – onam hayron edi.

– Siz hotirjam dam oling, onajon.

Onam asta deraza yoniga borib, namlangan ko'zlarini yengini uchi bilan artdi-da meni mahkam bag'rige bosdi.

Tashqarida chiroqlarning miltillashi menga go'yoki ko'zlarini qisib, oilaga mehr ko'rsatishni hayvonlardan o'rgandingmi degandek bo'lardi.

Mehribon onam bor. Mehribon oilam!

Derazani ochganimda sovuq havo uy ichini tutdi. Xayollar og'ushida yomg'ir yuzlarimni silayotganini sezmabman xatto. Yo'qolgan mehr, yo'qotilgan yillar hammasi ko'z oldimdan millardek o'tardi...





**Usmonova O'g'iloy
9-sinf o'quvchisi**

YOSHLIKDAGI ORZULAR

Bugun Amerikadan kelgan sayyohlar bilan Samarqandni aylandik. Endi Buxoroga yo'l oldik. Hamma kelgan sayyohlar xursand edi. So'ng men ularni Buxorodagi bobomning bo'g'iga olib bordim. U yerda hamma o'z o'tmishini gapirib berdi. Men ularning hikoyalarini eshitib yig'lashimni ham, kulishimni ham bilmay qoldim. So'nggi navbat esa menga keldi.

Har bir ketgan vaqtimiz tarixga aylanadi. Tarix esa xotira bo'ladi. Men esa shirin xotiralarimni eslagim keldi. Keling shuni sizga aytib bera qolay.

Yoshligimda tarjimon bo'lish niyatim bo'lgandi. Buning uchun, albatta, chet tillarini bilishim kerak edi. Biroq mening bu taklifimga ota-onam qarshi edilar. Shu payt men ota-onamdan yashirinchcha bir

ish boshlashga qaror qildim, ya’ni ota-onam bergen pullarni to‘plab qo‘ygandim. O‘zimning ham biroz to‘plaganlarim bor edi. Maktabdan so‘ng ingliz va koreys tili kurslariga bordim. 11-sinfni bitirguncha ancha bilimga ega bo‘ldim. To‘lovini ham bir amalladim.

So‘ng ulardan yashirinchha Jahon tillari universitetiga hujjat topshirdim. Shu payt xolam meni Toshkentga sayohatga olib bormoqchi bo‘lgandilar. O‘sha payt qanchalik xursand edimki, tasavvur qila olmaysiz.

Toshkentga bordim. Xolamdan yashirinchha imtihonga kirib chiqdim. So‘ng uyga qaytdik. Men har kuni telefonda sms kutib o‘tirardim va bir kuni oyimning telefonlariga sms keldi. Unda “Siz Jahon tillari universitetiga talaba sifatida qabul qilindingiz. 1230 telefon raqamlariga qo‘ng‘iroq qiling va qo‘srimcha ma’lumotga ega bo‘ling”, degan yozuv turar edi.

Ota-onamga bu haqida xabar berish vaqtি keldi:

- Oyi, buni qarang, – dedim sekingina.
- Voy qizim, baribir to‘xtamabsan-da.
- Ilm oladigan inson har qanday sinovlarga bardosh berishi kerak.

Dadajon, siz nima deysiz?

– Qizim, agar to‘g‘ri yo‘lni tanlagan bo‘lsang, men nima ham derdim. Omad! Men senday qizim borligidan faxrlanaman.

4 yildan so‘ng sovg‘a-salomlar va diplom bilan uyga qaytdim. Ular mendan judayam xursand bo‘lishdi.

So‘ngra ishga joylashdim. Mana hozirda O‘zbekistonimizga kelgan sayyoohlар Vatanimizni maqtamasdan ketmaydi.

Xullas, izlagan imkon topar, izlamagan bahona. Bu mening hayotimdagи shiorim desam ham mubolag‘a bo‘lmaydi.



Nigora Abdusamatova

10-sinf o‘quvchisi

O‘tkir Hoshimovning “Surat”
hikoyasining ingliz tiliga tarjimasi

PICTURE

The affairs of the world are always urgent. As usual, I was having breakfast while standing. My mother made me to sit as usual:

- Sit down, darling, sit down for a while.
- That’s it, I have gone
- Don’t hurry. – My mother stared at me a little bit different than usual. – I have something to tell you.

I was in a big rush and looked at my watch: I had to buy gasoline, go to my work, then go press...

– What happened?

My mum was still staring at me sadly.

– Let's take a picture, - she said suddenly.

I was surprised.

– Why?

– Soon, I will die.

She told this like “I will go to the neighbour’s house”. I laughed:

– What are you talking about, mum?


I said that and got out of home.

Two weeks passed...

I'm restless at nights, thinking. Thinking: You are coward, idiot, why did you laugh then? Didn't you have time to take a picture? If you need you find! For books, for magazines, for work, for park.... Are you a film star?! Or are you a famous person? There are countlees pictures that have no value. Different. Everywhere...However...There is no picture of me standing by my mom.










HALIMA XUDOYBERDIYEVA
NOMIDAGI

Ijod maktabi





Mohiniso Anorboyeva

11-sinf o‘quvchisi

SABR

(hikoya)

Aniq esimda. O’sha paytlarda maktabga chiqar edim. Ko‘cha sovuq. Ukam bilan uyda televizor ko‘rib o‘tiribmiz. Onam oshxonada nonga xamir qoryapti. Bir payt televizor turgan xonaga onam kirib, shunday dedi:

– Turinglar, dadanglar yotaman deyapti, joy solib beray.

Derazadan hovliga mo‘ralasam, dadam turibdi. Boshlari terlab ketgan, kiyimining orqasi ham jiqla ho‘l, oyog‘ida arang turibdi. Men sezdimki, dadam yana ichibdi. Yuragim tez-tez urayotganidan hattoki, o‘zimga ham eshitilyapti. Onam shu vaqt ichida tezlik bilan joy soldi-da, tashqariga yugurib chiqib ketdi. Men ham ukam bilan

eshikdan asta mo'ralab tashqariga qarab chiqyapmiz. Tishlarim o'z-o'zidan bir-biriga tegib qaltirayapti. Negadir sovqotib ketyapman. Sekin tashqariga chiqib, zinaning ustida turdik. Dadam hali ham o'ziga o'zi nimalarnidir gapirib, orada so'kinib ham qo'yardi. Onam oshxonaga kirayotib, eshikni ochgan edi, eshikdagi oyna yerga tushib, chilparchin bo'ldi. Dadam esa hech narsaga tushunmay onamga qarab baqirib ketdi:

– Sen menga jahl qildingmi?, – deb onamning sochlardan tortib, boshini eshik qirrasiga rosa urdi.

– Jahl qilganim yo'q, boshimni yordingiz-ku, – deb yig'ladi.

Dadam bu gaplarga parvo ham qilgani yo'q. Battarroq urdi onamni. Bu yoqda biz "Onamni urmang, iltimos, dadajon, urmang", – deb yolvorib yig'layapmiz.

Uyimiz Jamol bobomlarnikiga qaratib solingan. O'rtada hech qanday to'siq yo'q. Jamol bobom o'sha paytda qishlik uchun ko'mir g'amlayotgan edi. Jamol bobomlarning uyi olti xonadan iborat, katta edi. Uyning uch xonasi hali bitmagan bo'lib, bobom ko'mirlarni o'sha uylarning biriga tashiyotgan edi. Uyimizdagи janjalni eshitib qop-qora bo'lib ketgan kiyimi bilan biz tomon yugurib keldi. Dadam hali ham onamni urar edi.

Jamol bobom tezda dadamning qo'liga yopishdi va onamni qo'yib yuborishini aytди. Onam dadamning qo'lidan arang qochib qutildi. Bobom dadamni zo'rg'a uyga olib kirib ketdi. Biz hali ham nima qilishimizni bilmay zinada yig'lab o'tiribmiz. Onam bizning oldimizga kelar ekan, ro'mollarini to'g'rilib, bizni narigi uyga olib kirib ketdi.

Tong havosi yaxshi-da. Odamning dili yayraydi. Qushlarning sayrashini aytmaysizmi... Kechagi voqeа esa xuddi yuz bermagandek. Onam boshiga kechasi bilan nimalardir qo'yib, hech nima bo'limganday yana o'z ishlari bilan band. Qo'shnilar nima deydi, buni ham o'ylamaydi. Hayotini davom ettiraveradi. Onamning shu xislati meni doim o'ylantiradi.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI

Fjod maktabi

Dadam turdi. Oyim buni tezda payqab, hali so‘rashga ulgurmagan dadamga idishdagi muzdek chalobni shoshib olib bordi. Yana yetmagandek:

– Boshingiz og‘rimayaptimi? Kecha biroz ko‘p bo‘lib ketibdi, mayli, yigitchilikda bo‘lib turadi. Ishqilib, o‘zingiz yaxshimisiz? – deb qayta-qayta hol-ahvol so‘radi.

Dadam ham onamga javob qaytarar ekan, kechirim so‘raganday bo‘ldi. Onam esa “Ichkilikni tashlang, dadasi, hali bizga keraksiz”, – deb qayta-qayta takrorlardi...



Shahzoda Hamraulova

11-sinf o‘quvchisi

TUSHDAGI TUYG‘ULAR

Ajab, qiziqarli ko‘ribman bir tush,
Ikkimiz dunyoni kezib yurardik.
Boshqa hech qandayin yo‘q edi yumush,



IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Sevinchdan, quvonchdan davron surardik.
Sog'inch neligini bilmasdik shu dam,
Yettinchi osmonda yozardik qanot.
Saodat nurlari qalbda mujassam,
Baxtning qo'shig'ini aytardi hayot.

Dillardan, yurakdan chiqardi bir so'z:
Alvido demaylik bizlar umrbod.
Shirin baxtimizga hech tegmasin ko'z,
Armon ko'nglimizga bo'lsin mudom yod.

Va keyin o'ngimda shu baxt bor bo'lsin,
Va aytmasin xayr so'zin tilimiz.
Tushdagi saodat o'ngda yor bo'lsin,
Burkansin nurlarga – ishqqa dilimiz.

Sevgi – muhabbatdan yaralgan olam,
Bizni tark etmasin – bo'lsin yonma-yon.
Bebaho tuhfasin etib havola –
Dilni mo'jizaga to'ldirsin har on.


KO'KLAM ISI

O'tar har kun o'zgacha osmon,
Bulutlarning parvozi nafis.
Ko'kka boqib zavqini har on,
Men qilaman yuragimdan his.

Va shabboda erkalar dilni,
Chorlab turar tuyg'uni samo.
Sadarayhon menga ilinib,

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Ko'klam isin taratar hamon.



Mohira Abduazizova
11-sinf o'quvchisi

QISHLOG'IM

O qishlog'im, Qayirma,
Go'zalsan – chiroylisan.
Qalbimdagi quyoshim,
Sen bebaho boyliksan.

Bog'laring mevaga boy,
Shundan to'kin dasturxon.
Bag'ishlar dilga chiroy,
Sehrli husning har on.

Ariqlarda to'ldirib,
Zilol suvlar oqadi.
Kelib ko'ring, qishlog'im,
Ko'nglingizga yoqadi.


BAHOR...

So'lim go'sha – o'l kamizga,
Bahor yuzin ochib keldi.
Xushnud etdi – dilimizga,
Gullarini sochib keldi.

Bahor keldi – Navro'z keldi,
Doshqozonlarda sumalak.
Butun olam nurga to'ldi,
Ochilganda gul – boychechak.



HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Madaminova Durdona
10-sinf o‘quvchisi**

**YANGI O‘ZBEKISTONDA
EL AZIZ, INSON AZIZ!**

Bir zamin bor jahonda, tuprog‘i zar, eng laziz,
Chindan jannatmakon-da, ta’rifiga til ojiz,
Ulug‘lari bor bo‘lsin, millat borar izma-iz,
Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!

Oh, bu kunga yetgan bor, yetmaganlar ham bisyor,
Oh, bu yo‘lda shahid bor, nomi o‘chmas ulug‘vor,
Yurtin sha’ni, nomus-or, sadoqati chin tengsiz,
Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Muhtojlarni so'ylaydi, oqibatni o'yaydi,
Keksalarни ulug'lab, yoshlarini qo'llaydi,
Olloh o'zi asrasin, tegmasin-a yomon ko'z,
Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

Shamsiddin, Javohirlar shaxmat qiroli bo'ldi,
Nodirbeklar jahonga buyuk nomingni yoydi.
Betakror bu olamda doim o'zingsan tengsiz,
Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

Orzusidir uyg'onish, yuksalish yurt deb yonish,
Yurtboshiga yonma-yon, kelajakka ishonish,
Qo'lni qo'lga beramiz, Renessansga yetamiz,
Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

O'zbekiston, tuprog'ing ko'zga to'tiyo,
Quchog'ingda bo'y cho'zgan bir niholingman.
Buyuk bobolarning avlodi o'zim,
Ertangi kelajak istiqbolingman.

Baxtimdan o'rgilay tonglarim porloq,
Shukrlar aytaman o'z hayotimga.
Ta'rifing maqtasam iftixor bilan,
Jarangdor so'zlarim zar varog'imga.

Asrayman yurtimni yomon ko'zlardan,
Chunki u men uchun ona makondir.
Yurtboshim tufayli gullab-yashnagan,
O'zbeklar diyori - O'zbekistondir.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Ijod maktabi

Dunyoda tinchlikni saqlamoq uchun,
Menda mujassamdir kuchli iroda.
To'maris misoli himoya qilib,
Seni qo'riqlaydi qizing Durdona!



Zuhra Tojiboyeva
11-sinf o'quvchisi

MEN SENI SOG'INDIM...

Sog'inch tirnayapti, alamlı qalbim,
Balki, sinayapti toqatim – sabrim,
Zulmatda qolganman, ko'payar dardim,
Men seni sog'indim, ijod maktabim.

Xayollar sen tomon chorlayveradi,
Bag'ringda o'tgan dam porlayveradi,
Faqat umidlarim taskin beradi,
Men seni sog'indim, ijod mакtabim.

Yana qo'msayapman sinfdoshlarim,
Mehribon ustozlar – har sirdoshlarim.
Sen tomon yetaklar sog'inch – yoshlарim,
Men seni sog'indim, ijod mакtabim.

XIYOBONDAGI BAYROQ

(*maqola*)

Kuz... G'aroyib fasl. Bugun issiq bo'lsa, ertaga qanday havo bo'lishini bilmaysan. Ba'zida esa havo oqimlari o'chakishgandek birdaniga hujum qilib qoladi. Darvoqe, bugun ham shunday bo'ldi. Quyosh charaqlab turibdi-yu, keyin havo bulut bo'ldi...

Shu kabi xayollar bilan bir zumda xiyobon oldiga kelib qolganimni bilmay qolibman. Xiyobonni kesib o'tsam bo'ldi, u yog'i uyimga yaqin. Xonadonimiz yaqinidagi xiyobon juda chiroylida, shahar ko'rkiniz ziynatlab turibdi. Xiyobon yonidagi maydon o'rtasida favvora joylashgan. Turli xil gullardan hayvonlar va boshqa buyumlarning maketlari yasalgan. Yana dam olish uchun o'rindiqlar ham o'rnatilgan.

Yaqindagina xiyobonga uzundan uzun bayroq ham o'rnatildi. Voy, axir bugun bayroqning ochilish marosimi bo'lib o'tadi-ku! Ayni vaqtida kelibman. Ana ochilish marosimi ham boshlanibdi. Sekin bayroq tomon odimlayman. Odamlar nihoyatda ko'p.

Viloyat hokimi bezatilgan qaychi bilan ramziy lentani kesdi. Birpasdan so'ng tantanavor ohangda madhiya yangradi, harbiy kiyimdag'i ikki ofitser bayroqni ko'tara boshladi. Bayroq yuqoriga ko'tarilgach, shamol uni erkalaganday yuzini silab qo'yardi. Har tomonda xursandchilik ovozlari... Keyin ikki qizaloq chiqib she'r aytishdi. So'zga chiqqanlar ham to'lqinlanib gapirar, tantana ishtirokchilari esa davomiy qarsaklar chalardi. Bir-ikki san'atkor qo'shiqlar ijro etgach, tadbir yakunlandi.

Bayram shukuhi bilan yo'lida davom etdim. Yo'l-yo'lakay yuragimda bayrog'imizga, Vatanimga bo'lgan ehtirom, iftixor tuyg'ulari yanada jo'sh urganligini sezsa boshladim. Diyorumiz bayrog'i shunchalar ulug'vor, salobatli, chiroyli ekanligini ko'nglimdan o'tkazar ekanman, beixtiyor kelajakda men ham uni ko'klarga ko'taraman degan maqsad xayolimni egallab oldi...

Inshoollo...





**Shahlo Davronbekova,
11-sinf o‘quvchisi**

DUNYO

Bu yolg‘on dunyo bizdan ham qolgay,
Shu g‘arib boshga ne kunlarni solgay.
Bor-budimni olgay, hayotni olgay,
Men boqmadim bu dunyoning dunyosiga.

Yashash kerak ekan, armonga chidab,
Tuhmatlarga chidab, hijronga chidab.
Ko‘ngil g‘ashligi-yu yolg‘onga chidab,
Men boqmadim bu dunyoning dunyosiga.

Bu kunlar ham o‘tar, egilmas boshim,
Berilgan sinovlarga yetar bardoshim.
Ko‘rmaysiz sira ham ko‘zimda yoshim,
Men boqmadim bu dunyoning dunyosiga.

DILSO‘Z...

Mehribon – onajonim,
Har ishga ulgurasiz.
Bizlarni o‘ylab har on,
Yelasiz, yugurasiz.


Boshimda parvonamsiz,
Zulmatda shamchirog‘im.
Doimo omon bo‘ling,
Sizdir – ko‘ngil ardog‘im.

Menga otilgan toshga,
Doimo qalqonimsiz.
Do‘sst bilganim voz kechsa,
Siz mudom yonimdasiz.

Qaynar buloq mehringiz,
Qizdiradi taftingiz.
Umringiz bersin Alloh,
Mening ko‘ngil baxtimsiz.

Kunduz yerda quyoshim,
Ko‘kda porlar oyimsiz.
Siz silab-silab boshim,
Hamisha muloyimsiz.





Gulsanam Eshqulova
11-sinf o‘quvchisi

QADRDON QALBDOSHLAR
(*hikoya*)

Bahor tongi. Hovlimizdagи hали ochilmagan gullarda, daraxtlarning barglarida shudring tomchilari paydo bo‘lganini ko‘rib tabiatning nafis mo‘jizalariga qoyil qolaman-da... Onajonim ertalabdan nimalardir qilib o‘tirardi. Onam duosini olib, ishga ketdim.

Bugun Halima opam bilan Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi Chubor qishlog‘iga boramiz. U yerdagi bir mакtab Halima opamni Zulfiyaxonim haqidagi mahorat darsiga kelishlarini so‘ragan ekan, hech ikkilanmay rozi bo‘libdi-da. Shu Halima opamning bir odatlari ajoyib: yo‘q deya olmaydi. Jizzaxga kirib borar ekanmiz, Halima opam birdan:

– Muhammadjon, qarang, tabiatni ko‘ring: mana bu daraxtlarga qolsa, shamol bilan quvlashmachoq o‘ynaydi, lekin nima ham qila olardi?.. Bechora. Tanasi yerga bog‘langan. Shuning uchun ham shamolga hasadi kelib, hadeb unga qarshi chiqaveradi. Endi qarang, anavi jimirlayotgan soylarga! Ular hasadchi emas. Shu bois ham ularni shamol yaxshi ko‘radi va uni o‘zi bilan olib ketmoqchi bo‘ladi, ammo bu ilosiz... Bu tog‘lar bir-biri bilan chin do‘st. Qarang, jigarlarday quchoqlashyapti.

– Halima opa, siz ajoyibsiz-da...

Ular doimgidek nim tabassum qilib qo‘ydi.

Chubordagi haligi maktabga ham borib keldik...

Vaqtni ham shamol sevarkan. Bugun onamning tug‘ilgan kuni. Hamma keladi. Kech tushib qoldi, lekin men kutayotgan insondan darak yo‘q. Ko‘chaga chiqsam, uzoqdan bir ayol kelyapti ekan. Halima opam... Xursand bo‘lib ketdim. Birga uyga kirdik. Ular onamga ajoyib sovg‘a olib kelibdi – she’r! Onajonimni hali bunchalik xursand ko‘rmagan edim... Halima opam uylariga ketayotganlarida menga kulib qaradilar-da:

– Muhammadjon, sizga rahmat! – dedilar.

– Nega?


– Siz tufayli Zulayho onamdek mo‘tabar ayolning duosini oldim.

– Sizga unda qancha rahmat aytishim kerak, bilmay qoldim.

– Ukajonim...

– Opajonim...

Bir-biriga samimiyat ulashardi suhbat chog‘ida...



Muslimma Musulmonqulova
11-sinf o'quvchisi

ONAMNING XOTIRALARIDAN...

(maqola)

Ba'zan onamning yolg'iz qolib, allanimalar yozayotganiga ko'zim tushardi. Yaqinda ana shu daftardagilar bilan qiziqqanima yozganlarini qo'limga tutdi. Onamning qoralamalariga ko'z yugurtirar ekanman, bobom va bувимning kechirgan sermazmun hayoti haqida ekan. Beixtiyor mutolaani davom ettirish ehtiyoji tug'ildi. Garchi umr yo'llari qisqa bo'lsa-da, ibrat bo'ladigan jihatlari ko'nglimda ajib zavq va hikoyaga aylantirish istagini uyg'otdi.

...1949-yilning 1-mart kuni. Qayirma qishlog'idan kelin bo'lib tushgan Buvnaroy o'g'il farzand ko'ribdi. Boyovutning bo'z yerlarini o'zlashtirishga kelgan mulla Burhon yaxshi niyat bilan to'ng'ich nevarasining ismini Abdukarim deb qo'yibdi. Abdukarim bobosi

va Oyimsuluv buvisining ardog‘ida pahlavon yigit bo‘lib ulg‘aya boshlabdi. Biroq kutilmaganda Abdukarimning otasi Hoshimboy tuzalmas darddan vafot etibdi. Ko‘p o‘tmay ikki yoshli singlisi Sharofat ham olamdan o‘tibdi.

Shundan keyin onasi Abdukarimni yetaklab, Qayirma qishlog‘idagi otasi Mamatqul polvonnikiga ketibdi. Bu yerda Yoqub, Azim tog‘alari Abdukarimni polvonlarga xos tarbiyalay boshlabdi. Asli qayirmaliklar azaldan kurash, ko‘pkari bilan shug‘ullanisharkan. Abdukarim ham astoydil kurash sirlarini o‘rganib ulg‘ayibdi. El orasida Karim polvon nomi bilan tanila boshlabdi. Keyinchalik bobo va buvisi maslahatlashib, ikkinchi o‘g‘il Hojimurodning to‘ng‘ich qizi Salomatga Abdukarimni uylantirib qo‘yibdi.

Onamning ota-onasi shu tarzda oila qurishgan ekan. Bu oilada ikki o‘g‘il, to‘rt qiz dunyoga kelibdi. Ona tili va adabiyoti fanidan bolalarga saboq bergen buvim o‘ta sabrli, xushmuomala ayol bo‘lib, bobomni nihoyatda hurmat qilgan ekan.

Tabiatan anchagina chapani, dangalchi bo‘lib, butun hayotida belbog‘li kurashning sha’nini yuksaltirish, bolalar va o‘smlilar orasida sportning bu turini ommalashtirishga o‘z hissasini qo‘shgan bobom ham uning samimiyligini doim qadrlagan ekanlar. Belbog‘li kurash bo‘yicha sport ustasi, bir necha bor O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda mutlaq champion bo‘lgan bobom yoshi elliklardan oshganda – mustaqillik yillarida sportni rivojlantirish uchun berilgan sharoitlarni ko‘rib to‘lqinlanar, “qani endi, yigit bo‘lib qolsam-u, bu imkoniyatlardan foydalanib, men ham O‘zbekiston bayrog‘ini yuksaklarga ko‘tarsam”, – deb orziqib ketarkan. Kurash bo‘yicha birinchi jahon championi Abdulla Tangriyevning yutuqlaridan zavqlanar, vaqtini behuda o‘tkazib, kuchlarini qayerga sarflashni bilmay yurgan takasaltang, jinoyat yo‘liga kirganlar haqida eshitib qolgudek bo‘lsa, jig‘ibiyroni chiqib, nafratlangan paytlari ham bo‘lar ekan. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud



IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

ajdodlarimizning nomlariga dog' tushirayotganligini doim qoralab, farzandlari va hamqishloqlariga nasihatlarini kanda qilmas ekan.

...2006-yil. Buvim qattiq betob bo'lib qolibdilar. Shifokorlardan buvimning olti oylik umri qolganini eshitgan bobomning tinchi yo'qolibdi. Tinimsiz asabiylashish, buvimning kun sayin so'lib borayotgan shamday qiyofasini ko'rish, buvimsiz yashashni tasavvur qila olmaslik, shundog'am xurujni boshdan o'tkazgan bobomning yuraklariga og'irlik qilibdi va qishning izg'irinli kunlarida – asr namoz vaqtida olamdan o'tibdi. Onam bu holni dardli hissiyotlar bilan qog'ozga tushirgan, yig'i-sig'ilar, xullas, o'sha kunlarning nafasi shundoq sezilib turardi...

Toshday og'ir, zaminday zalvorli kunlar, oylar o'ta boshlabdi. Xonadonning suyanch tog'i bo'lib turgan otalarining o'limi tog'alarimning ham qaddini bukibdi. Ellik yetti yoshli otalarini qo'msab qizlar zor-zor ko'z yosh to'kibdi. Endi onamiz bizlar uchun uzoq umr ko'rsalar kerak deb, o'zlarini ovutishibdi. Biroq xastalik, taqdir yozig'i o'z maqsadiga erishibdi. Bobomning o'limidan so'ng to'rt oy o'tib, buvimning ahvollari yanada og'irlashib qolibdi. Buvim so'nggi damlarida onamga shunday degan ekan:

– Bolajonim, farzandlaringning ilm olishi uchun tinmay harakat qil, ular o'qimishli bo'lsin. Bolalarim, yig'lasalaring, dard g'aribi – dardkashlarim, hasrati egiz qo'shamoqlarim deb, – yig'langlar. Bir oz tin olibdilar-da: – Otangga munosib farzand bo'linglar, ahil bo'linglar. Baraka ahillik bor joyda bo'ladi”, – debdilar. Birozdan so'ng dard chekib, buvim ham foniy dunyonи tark etibdi.

Ma'yus ohangda duo qilganlarini qog'ozga entikib tushirilgani mening ham ko'zlarimni yoshlantirib yubordi.

Onam bu voqealarni bekorga qoralab yurmas ekan. Buvimning farzandlaringning ilm olishi uchun tinmay harakat qil, degan nasihatini hayotidagi dasturga aylantirib olgan. Men bobom va buvimni ko'rmagan bo'lsam-da, onamning xotiralarini o'qirkanman, beixtiyor

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Fjod maktabi

ularni yanada yaxshi ko'rib ketaman, sog'inch hislari yuragimni egallay boshlaydi.

...Inson xotirasi muqaddas ekanligini anglatayotgan bitiklardan yanayam ruhlanib, har kuni oila davrasida qadrdonlarimizning haqqiga duo qilib, ularga munosib farzand bo'lishni niyat qilamiz.



Gulbahor Yorqinova
11-sinf o'quvchisi

ONAJON YURTIM

Yurtim, madhing kuylamoq uchun,
Arzigelik so'z topmoq qiyin.
Sen haqingda so'zlasam bu kun,
Quvonaman so'zlagan sayin.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Jamolingni she'rlarga solsam,
Lol qoldirar har go'zal bog'ing.
Men mehringni tilimga olsam,
Gulga to'lar ko'ngil quchog'im.

Tinchlik seni tark etmasin hech,
Ona Vatan, bag'ringda bormiz.
O'ynab-quvnab ertadan to kech,
Quchog'ingda biz baxtiyormiz.

O'zbekiston – onajon yurtim,
Senga sodiq farzand bo'lamiz.
Tuprog'ingni ko'zlarga surtib,
G'ururko'kda oydek to'lamiz.

USTOZ

Qo'limga ilk bora qalamni tutib,
Ijod sirlarini o'rgatgan ustoz.
Shogirdin baxtidan har on entikib,
Yiqilsam, qo'limdan tutgan ham ustoz.

Bag'ringiz go'yoki mehrli buloq,
Sizday mo'jizani yaratgan Alloh.
Tunni yoritguvchi misoli chiroq,
G'am-anduh ko'rmasin qalbingiz har chog'.

Dilga ilm nurin taratgan tolmay,
Qalblarga ezbilik ulashgan ham siz.
Ortingizdan yurdik, biz yo'lida qolmay,
Dunyo tugal bo'lmas hech qachon sizsiz!

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Dilnoza Jabborova
10-sinf o'quvchisi**

KO'NGIL QORALAMASI

O, ko'nglimni yoritgan shafaq,
Beza meni ezgu nurlarga.
Ko'zlarimga singib kamalak,
Rang baxsh etay xazon yo'llarga.

Shodliklarga bo'lib yuzma-yuz,
Kulgulardan ko'tarayin bosh.
Quvonchimni hisoblamoqqa,
Yulduzlardan yasab sanoqtosh.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Ruhim she'rga asir et, zotan,
Ilhomlarga chulg'ansin qalbim.
Ilohiy bir hissiyot bilan
Qoniqsin bu ko'ngil matlabim.


Ziyo bo'lsin kichik qalbimga,
Pok hislarning oralamasi.
Yozganlarim asli meningmas,
Xasta ko'ngil qoralamasi.

Shiftga o'zin qadaydi ko'zlar,
Durlar sizar yuzlarim silab.
G'urur dilga qamaydi so'zlar,
Ko'zyoshlarni kulguga ulab.

Samolarga yolvorar yurak,
Tilsiz dilim ingraydi behol.
Tuyg'ularni o'ziga tortgan
Oq qog'ozlar qop-qora, uvol.

Men to'kildim xazonlar yanglig',
She'rlarimga ketdim qorishib.
Yuragimdan ketgan zulmatlar
Yuraklarga borar yorishib.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi



Zulhayo Mingboyeva
9-sinf o‘quvchisi

Bu shaharning qo‘llarida musht,
Bu shaharning ko‘zida nafrat.
Bunda seni ko‘rib bo‘lmas tush,
Bunda senga yozib bo‘lmas xat.

Har narsaning chegarasi bor,
Har tomoning emasdir qibla.
Bunda bobong sen uchun asrab,
Turshak tutmas qish chog‘i imlab.

Do‘stim, uning jodu, sehri bor,
Hatto tonglar tunda otadi.

Kaftda kuzak alahsib yotar,
Bahorlari erta qaytadi.

Sahar ketmon bongi uyg'otmas,
Kipringgaa qo'nmaydi qirov.
Cho'ntagingga dovuchcha otmas,
Huv daraxtlar chang boshib sira...

Bu shaharning qo'llarida musht,
Bu shaharning ko'zida nafrat...

Oppoq oqshom...
Kipriklarning uchrashuv vaqtি
Nigohlar moviyga bo'yalar
Kalima aytib...
To'rtoyoqlar – bekishan ulov
Yer bag'rini qitiqlab ketar.
Zamin ingrab boshin qo'yadi
Darddan yag'ir yelkamga,
Dardin fosh eta.
Men "dod" deb baqirsam,
Sadolar,
Baxt deb qog'ozga chapladi.
G'ijimlab oyoqqa bossam-u,
Qontalash tovonni,
Chechaklar qopladi.
Men sochimni jamalak desam,
Huv tollar ildizi chakalak emish.
Cho'chimayman. Yurakni endi

Bir dilxo'r yemish...
Ruhimda bir siyrat rostlandi
Necha bahordirkim o'zlikka qaytib.
Nigohlar moviyga bo'yalar
Kalima aytib...



Odina Yo'lchiyeva
9-sinf o'quvchisi

YOLG'ON

Haqiqat achchiqdir – shirindir yolg'on,
Deyishar: go'daklar yolg'on so'zlamas.
Balki, yolg'on ichra yashamoq oson,
Balki, yolg'on bir oz qildirur havas.

Yolg'on so'zlaganni suymas Xudo ham,
Ba'zi bir insonlar anglamas buni.
Yolg'onchiga bo'lmas to'g'rilik hamdam,
Yolg'on gapiradi tinmay har kuni.

Bir yolg'on ortidan ergashar yolg'on,
Vale umri qisqa, albat, yanchilur.
Dono xalqimiz ham takrorlar har on,
"Yolg'on so'z bir kun yoqadan chiqur"*.

**O'zbek xalq maqoli*

BURCH

Ohangida – bor samimiyat,
Ziyo – nurdan yaralgan ona.
Nigohingiz tilaydi niyat,
Farishtaday menga parvona.

Qo'llaringiz mudom duoda,
Lek qalbingiz ko'rmasin hech dard.
Onaginam, ko'ngil – dunyoda,
Sizni asrab yashamog'im shart.



HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Dilnoza Eshqulova
9-sinf o‘quvchisi**

QOR

Oppoq qor-ey, oppoq qor,
Yog‘ishingga men xumor.
Osmon uzra uchasan,
Samolarni quchasan.

Yog‘asan o‘ynab-kulib,
Shodliklarga to‘lasan.
Ba’zan qorbobo bo‘lib,
Mehmonimiz bo‘lasan.

Oppoq qor-ey, oppoq qor,
Yog‘ishingga dil xumor.

TUT


Ariqning yonida ulg‘aydim, o‘sdim,
Maymunjonlar mening eng yaqin do‘stim,
Shoxlarimda marjon-marjon donam bor,
Ipak qurtga yemish uchun men tayyor.

Pishganimda inson izlab qoladi,
Yo‘qligimda juda bo‘zlab qoladi.
Men shirinman juda, mazali, totli,
Men ancha yashayman, uzoq hayotli.

Mening nomimni so‘rasangiz gar,
O‘z otim sizlarga qilayin xabar.
Meni deyishadi shiringina tut,
Ta’mimni ko‘rsangiz, bo‘lmayman unut.



HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi



Diyora Saidqulova
9-sinf o‘quvchisi

ONA TILIM

Tilim, sendan qarzim bor,
Ko‘pdir, bo‘lmas nihoya.
Boshqa tillar qilmas kor,
Sening o‘zing kifoya.

So‘ylay desam, ojiz til,
Farzandingman senga zor.
Seni desam, yayrar dil,
Senga cheksiz mehrim bor.

VA'DA

Ey muqaddas, ulug'vor o'lka
Fido bo'lsin senga jon-u tan.
Sening noming ko'targum ko'kka
Farzandingman, jonajon Vatan.

Mangu, abad, tinchlik oshyoni,
Senga cheksiz mehrim bor chindan.
Senga singgan ajdodlar qoni,
Farzandingman, jonajon Vatan.



Ulug'bek Abduqodirov
9-sinf o'quvchisi

BAHOR TUYG'USI...

Yurakda o'ynaydi go'zal bir tuyg'u,
Axir bahor fasli o'lkamga keldi.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi

Insonlar bahorni sevishib mangu,
Bolalar shodlikdan yugurib-yeldi.

Dimog'larga yoqar ko'klam nafasi,
Go'yoki boshlanar xayoliy safar.
Bahorning ajib bir xushbo'y nash'asi,
Bizni uyg'otadi har erta sahar.


O'TINCH

Hayotim ma'nosi, umrim javhari,
Bir lahza ko'rmasam qolaman qumsab.
Ko'ngil tubidagi shodlik gavhari,
Sizni eslayman men ko'zimni yumsam.

Hayotda hech qachon qoqligmang bir dam,
Kuchdan qolibsiz-ku qarang, onajon.
Dardlarim ko'paytib bir kun mening ham,
Yotib qolmang yerda behush, chalajon!

Kuchlisiz, siz juda bilaman, ona,
Yuzingizdan kulgu taralsin doim.
Yurakda o'tinchim, yakka-yagona,
Mehribon onamni asra, Xudoyim.





Sabrina Inomjonova
9-sinf o'quvchisi

SURAT

Ona farzandiga dedi bir kuni:
– Suratga tushaylik, kel, qizim, bir bor.
Nogoh borar joyim gar bo'lsa mozor,
So'ng armonda yig'lab qolmagin zor-zor.

Beparvo farzandi eshitmadi ham,
Onasin zoriga bermas e'tibor.
Axir bir kun o'chsa yonib turgan sham,
Holim ne bo'lar deb, o'ylamas bir bor.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi

Faqat bu so‘zlarni o‘ylar hazil deb,
O‘tib boraverdi kunlar ham bot-bot.
O‘zining tashvishin g‘amlarini yeb,
Eh, loqayd farzandi kechirdi hayot.

Biroq vafot etdi kutmagan payti,
Bechora onaning uzilib joni.
Farzandi uyiga kelganda qaytib,
Yoshlar to‘kdi, boshqa yo‘qdir imkonи.

Afsusda o‘ziga yog‘irdi nafrat,
Ammo ovunishga topmadи jurat.
Tinimsiz qalbini tig‘lardi faqat,
Armon bo‘lib qolgan o‘sha bir surat.

**SENI JONDAN
SEVAMAN...**

Men baxtliman, tug‘ildim
Hur O‘zbekistonimda.
Shukur qilib yashayman,
Har qadam, har onimda.

Go‘zal yurtim oboddir,
Burkangan go‘zalikka.
Ko‘rib ko‘ngillar shoddir,
Hayajondan entikkan.

Sening go‘zal nomingga,
Tegmasin g‘anim ko‘zi.



IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Shon qo'shilsin shoningga,
Muqaddas tuproq o'zing.


Jannatmakon diyorim,
Qalbim mehringga to'lgan.
Baxsh etib senga borim,
Ko'nglim baxtiyor bo'lgan.

Yashayman kundan kunga,
Shukur qilib boringga.
Senga oshiqman shundan,
To'ymasman ruxsoringga.

Istiqlol daraxtida
Yetishgan bir mevaman.
Yurtim, qaytmay ahdimdan
Seni jondan sevaman!



HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Ruxshona Abdullajonova
9-sinf o‘quvchisi**

Keng samoni mayin siypalar,
Sayr qilar yig‘loqi bulut.
Ko‘z yoshlarin oqizib, sochar,
Zamin uzra baraka-yu qut.

Tomchilaring topsin-da to‘zim,
Kecha-kunduz yig‘lagan osmon.
Kel, darmoning bo‘layin o‘zim,
Xomush ko‘rib, bo‘ldi bag‘rim qon.

MUHAMMAD YUSUFNING
“Qushlar ham yig‘lar” she’riga nazira

Ayvon uchun ustun bo‘lay deb,
Terakzorni tark etdi terak.
Endi bizning bu ishimiz deb,
“Tunda qushlar yig‘lasa kerak”*.


Zir aylanib ona chumchuq ham
Bolalarin qidirar halak.
Va chug‘urlab ko‘kda chekib g‘am,
“Tunda qushlar yig‘lasa kerak”*.

Yangi inni qurmoqlik uchun
Xas tashiydi tinimsiz, beshak.
Yurak esa yechilmas tugun,
“Tunda qushlar yig‘lasa kerak”*.

**Muhammad Yusuf satri*



HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Asaloy Suyunova
9-sinf o‘quvchisi**

ISTIQLOL


Istiqlol, qutlug‘ bo‘lsin qadaming har on,
Yo‘lingni yoritsin yoqqan chirog‘ing.
Yashashdan zavq topdik sen kelgan zamон,
Biz endi yashaymiz qilib ardog‘ing.

TONG

Havo namiqqan biroz,
Barglar ko‘zi yoshlanar.
Qichqirar timmay xo‘roz,
Shovqin-suron boshlanar.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Uyg'onib butun olam,
Zamin nurga to'ladi.
Tongni ulug'lab odam,
Cheksiz shodon bo'ladi.



E'zoza Tojiqulova
8-sinf o'quvchisi

Erkin Vohidov she'rlarining turk tiliga tarjimasi

ÖZBEĞİM
(Kaside)

Tarihindir bin asırlar
İçinde gizli, Özbeğim,
Sana yaşıttır Pamir
Aksaç Tiyanşan, Özbeğim.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Söylesin Afrasiyab
Söylesin Orhun Yazılı,
Eski tarih halkasında
Bir mercandır, Özbeğim.

El Biruni, El Harezmi,
El Farabi soyundan,
Aslı nesli belki Uzluk,
Belki Tarhan, Özbeğim.

Geçtiler zorluk yolundan
Oynatıp kılıçlarını
Nice kağan, nice sultan,
Nice bin han, Özbeğim.

Dağların etrafında sanki
Boğucu ejderha oldu,
İki ırmak, iki gözün,
Gözü yaşlı, Özbeğim.

Roma Kayseri mizrağından
Bağrında yara üstüne yara,
Cengiz ve Batu hançerine
Gögsü kalkan, Özbeğim.

Yağdı dört yandan asırlarca
Başına yaydan oklar,
Ömrü kurban, mülkü talan,
Yurdu viran, Özbeğim.

Devrin zulmüne lakin
Bir ömür baş eğmedin,
Sen – Mukanna, komutan – sen,
Özgürlükü kan, Özbeğim.

Sen ne Zerdüst, sen ne Budist,
Sana ne ateş, putum,
İnsanlık dini ile
Temiz iman, Özbeğim.

Bilimin ışığında
Atılıp karanlık içinde,
Gözlerinden aktı geceler
Yıldızlar ülkesi, Özbeğim.

Hazırladı Miraz Uluğbey
Yıldızlar cetvelini,
Sırı gökyüzüne ilk-
Koydu merdiven, Özbeğim.

Mir Alişir seslenişine
Yankı verdi tüm cihan,
Şiir ülkesinde oldu
Sultanlar şahı, Özbeğim.

Bilim ve şiirde sultanlar şahı,
Ancak takdirine kul,
Öz yurdunda çekti gurbet,
Açı sızı, Özbeğim.

Mirza Babür – sen, figanın
Saldı dünya üzre od,
Şah Meşreb kanı sende
Etti isyan, Özbeğim.

Şiirin gül bahçesinde
Soldu mahzun Nadire,
Gümüş teni yıkadı göz yaşı,
Gömdü arzuyu, Özbeğim.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI
Fjod maktabi

Ağladı ayrılıkta Furkat
Hem de kararlılıkta Mukim,
İniltinden Hint ve Afgan
Etti figan, Özbeğim.

Tarihini yazmaya, halkım,
Bin tane Firdevsi gerek,
Çünkü çektiğin bir âhın
Bin destandır, Özbeğim.

Geride kaldı köhne tarih,
Geride kaldı dert, sitem,
Gitti şüphen, bitti zahmetin,
Buldu derman, Özbeğim.

Oldu gökyüzün aydınlik
Talih güneşin ile,
Oldu asırlık mumun,
Parlak ışık, Özbeğim.

Ben vatana bağ desem,
Sensin onda bir tek gül,
Ben vatana göz desem,
Bir tek kirpik, Özbeğim.

Övünürüm, ana halkım,
Göğsümü dağ ederek,
Başında dağ yükselen
Cömert çiftçi, Özbeğim.

Özbeğim diye koca cihana
Ne için övünmeyeyim!
Kimliğimi bilmeye devrim
Verdi imkan, Özbeğim.



Ben büyük yurt oğluyumdur,
Ben insan evladıyorum,
Ama önce sana olsam
Sadık oğlan, Özbeğim.

Bana Puşkin bir dünya
Bana Byron bir dünya,
Ama Nevai gibi atam var,
Gögsü göktür, Özbeğim.

Nereye gitsem başta doppim,
Kaz gibi yürüüm, dimdik,
Dünyaya namını salan
Özbekistan, Özbeğim.

Bu kasidem sana, halkım,
Ak sütü azık hürmeti,
Erkin oğlunum, kabul et,
Özbeğim, can Özbeğim.

TEVAZU HAKKINDA

Gerçi çok gururlu dursa da,
Bardağa eğilir çaydanlık.
Böyle iken kibir ne için,
Kibir, hava ne için gerek?

Mütevazı ol, hatta bir adım
Atma gururun eşiğinden.
Bardağı insan şunun için
Öpmekte her daim alnından.


ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI IJOD MAKTABI






ERKIN VOHIDOV
NOMIDAGI

Ijod maktabi





Bibihajar Abdug‘aniyeva
9-sinf o‘quvchisi

BANAN PO‘CHOG‘I

Bepoyon keng o‘rmonda,
Yashar mitti maymuncha.
Sho‘xligini aytmasam,
Esi bor ancha-muncha.
Bezorining bir kuni,
Rosa qorni ochibdi.
So‘ng so‘ramay bananni,
Uzibdi-yu qochibdi.
Yegach banan po‘chog‘in
Irg‘itibdi shu yerga,
Bu ish bilan o‘zicha.

Tuzoq qo'yibdi sherga,
Ko'paygandan ko'paydi.
Maymunchaning tashvishi,
Ko'tarildi yodidan
Shumtakaning bu ishi.
Igna sanchsang birovga,
Duch kelasan pichoqqa.
Qaytib kelib maymuncha,
Yiqildi shu po'choqqa.
Xulosa shu, bolalar,
Maymun go'yo qand yedi.
Sherga tilab yomonlik,
O'zi oxir pand yedi.

SINGILCHAM

Olmani ham g'ajiydi,
Holvani ham g'ajiydi.
Desam: "Nechta tishing bor?"
Deydi: "Nima ishing bor?"

Ertadan to kechgacha,
"Mondalik" bir ish qilmas.
Go'yo mitti echkicha,
Foydali bir ish qilmas.

Kun tartibi doim shu,
Tinmasdan yeidi faqat.
Bunaqada singlimcham
Bo'pqolar shirin ovqat.



**Farangiz Qahhorova
10-sinf o‘quvchisi**


DO‘PPI

Sotib olsaydi meni
Modachi bu bolalar.
Yaktak, qiyiqlar kabi
Qilmasdim ko‘p nolalar.

Boshdan tushmasdim oldin
Xuddi kepka misoli,
Endi joyim cherdakda,
Orzum – egam visoli!

MUZLIKLARNING ORZUSI

Shimoldagi muzlardan
Chiqib bir kun sas-sado,
Bir o‘zлari zerikib,
Bo‘lganmishlar zap ado.
Ular orzu qilarmish,
Sahro-yu cho‘l, qirlarni.
Borishmoqchi safarga,
Orzulab qum yerlarni.
Yo‘lga chiqdi muz tog‘lar
Tayyorlanib kech tunda.
Terlab-terlab qirlarga
Yetvolishdi o‘n kunda.
Oralari kamaydi,
Do‘stilaridan ayrilib.
Armon bilan boqishdi,
Ortlariga qayrilib.
Rosa afsus chekdilar,
Qolgan yarim muzliklar.
Noshukr-u aqlsiz,
Kalta o‘y, puch so‘zliklar.
Qani qadam bossalar
Na o‘ngga, na chaproqqa,
Eh, hammasi mo‘ltirab,
Singib ketdi tuproqqa.



Mohlaroyim Sayidrahmonova

9-sinf o‘quvchisi

NOVVOY BOLA

Mana, bizning kulchatoy,
Onasi-chi Patiroy.
Otasi – katta Patir,
Butun oilaga tadir.

Opalari qatlama
Barini ol, tanlama.
Dugonasi bulochka,
Yesang, kuch qo‘shar kuchga.

Zog‘orajon – tog‘asi
Jizza – nonning og‘asi.
Piyozli non – ammasi,
Olib qoling hammasin!



Husnirabonu Sobirova
9-sinf o‘quvchisi

DOVUCHCHANING ARMONI

Og‘aynimiz tuz bilan
Birgamiz har bahorda.
Do‘sligimiz tarixi –
Tanishdik o‘rikzorda.

Ko'klam payti ko'karib,
Nordon bo'lib pishaman.
Kaltak bilan teginsang,
Etagingga tushaman.

Bitta g'amim bor mening
Lek qovog'im solmayman.
Boldek shirin mazali
O'rik bo'la olmayman!

Agar pishsam ozgina,
Totli meva bo'lardim.
Mendan sharbat qilishsa,
Baxt-quvonchga to'lardim.

Meni ayrim odamlar,
Yeyishadi tiliimlab.
Hayronmanki ne uchun
Xaridorim kelinlar?

QIZALOQ VA QUYONVOY

Qizaloq va quyonvoy
Ahil-inoq, qadrdon.
Ikkalasi chin o'rtoq,
Bir-biriga mehribon.

Ikki do'stlar doimo,
Birgalikda o'ynaydi.
Ayiqvoy bundan xursand,
Ko'rib ko'zi quvnaydi.


IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Lekin bir kuni ular
Qolishdi janjallashib.
Buni qarang, arzimas
Bir narsani talashib.

Tezda kelib ayiqvoy,
Ularga tanbeh berdi.
Biroz o'ylanib turib,
So'ngra shundayin dedi:

– Tinglang endi yaxshilab,
Urishmoqdan yo'q foyda.
Shunday davom etsangiz,
Uyalasiz har joyda.





**Nodira Xoldoraliyeva
8- sind o'quvchisi**

SINGLIMGA

Shirintoy qaqajon qiz,
Singilginam Mubina.
Hamma gapga suqilar,
O'tirmaydi jimgina.

Shu singlimni oyim ham,
Hech tartibga solmaydi.
Hech kimga bildirmasdan,
Burab-burab olmaydi.

Buvijonim yonida,
O'ng qo'li bo'lib olgan.

Erkalaydi buvim ham,
Shunga o'rganib qolgan.


Daftarlarni to'ldirib,
Yozadi antiqa she'r.
Meni hayratga solib,
Shoira bo'laman der!

UMID

Har yeri yolg'onga to'lgan bu shahar,
Eskirgan yo'lak va qop-qora bulut.
Turaman bekatda yo'l poylab sahar,
Avtobus keladi, boshlanar shukuh.

Ketaman, xayollar oladi qamrab,
Ko'zlarim bu xira oynaga boqqan.
Rangsiz ko'chalarni boraman yo'qlab,
Har bir uy shiftida chirog'in yoqqan.

Avtobus to'xtadi, atrof g'alayon,
Yana o'sha ulkan sharaqli muhit.
Yana o'sha tanish jigarrang ayvon,
Va orzuga to'lgan bepoyon umid.



**Durdona Baxtiyorova
10-sinf o‘quvchisi**

MAKTUB

Shukr, yana tongni ko‘rish nasib etdi.

Deraza tashqarisida, osmonda bulutlar shunday go‘zal manzara kasb etibdiki, ko‘rgan insonni beixtiyor qa’riga tortib ketadi. Kimki unga qarasa, shirin xotiralari esga tushadi.

Men o‘sha pat-pat pushtirang bulutlar orasidan kulib chiqayotgan quyoshda sizni ko‘rdim, ona. Tong osmonini ko‘rib mast bo‘lish mumkinmi, deb so‘rasalar, shubhasiz, “ha” deb javob bergen bo‘lardim. Maydondagi yam-yashil maysalar, daraxtlarning yangi, shudringda yaltiragan barglari shabadada shunday serjilo tebranadiki... Atrofimizdagи qishloq hovlilaridan ahyon-ahyonda xo‘rozlarning qichqirgani eshitiladi.

Har zarra meni sog‘inishga undayapti!..

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Sizning ham umrbod quyoshga aylanib qolishingizni istayman.
Qahratondan eson-omon chiqib olganlar quyoshni ko'rib quvonsalar,
sizni ko'rganimda men undan-da ziyodroq quvonaman.

Ona, siz ko'p aytardingiz, atrofingdagilarning xatti-harakatlaridan xulosa chiqar, turli fe'ljadi insonlarni kuzat, bu senga hayotni anglashda asqatadi, deb. Men shunday qilyapman. Qop-qora tundagi to'lin oy, tikanlar orasidagi atirgullar, sahrodagi yaproqlar va yovuzliklar orasidagi yagona ezgulik endi o'zgacha ko'rina boshladи.

Yomondan ham yaxshilik topoldim, ONA!

Siz sabab...



Nozima Ibrohimova
10-sinf o'quvchisi

MUALLIMNING BIR KUNI

Doskaga mavzuni yozib tushuntirayotgan Shohista opaning xayoli ariq oldida o'ynayotgan sinfidagi o'quvchilari bilan band edi.

Ora-orada derazaga qarab qo‘yar, “Buncha vaqtli kelmasa bular, ishqilib biror falokatni boshlashmasin-da”, — deb o‘ylardi.

Ko‘ngli sezgan ekanmi, o‘quvchisi Dilshoda beton ariq yonida o‘ynab yurib yiqilib dodlab yubordi. Shohista opaning boshiga kimdir bir tushirgandek cho‘chib yugurib, qanday qilib yetib borganini bilmay qoldi. Ichi achigancha birinchi yordam ko‘rsatib, uyiga jo‘natib yubordi. Qizning qo‘li singan ekan...

Ertasi kuni esa ona tili darsida suv quygandek jimjit sinfni eshikning vajohat bilan taqillashi buzib yubordi. Muqaddas opa – Dilshodanining onasi yuzi bo‘g‘riqib, hansirab ichkariga kirdi. Muallimga yuzma-yuz qarab:

– Nega o‘quvchilaringizga qaramaysiz?! — deya baqira ketdi.


Dilxonasi vayron bo‘lgan o‘quituvchi arang:

– Uzr, o‘zingiz ham erta jo‘natmang-da, hali yosh bo‘lishsa, — deb javob berdi.

– Xohlagan vaqtimda jo‘nataman, sizning bu bilan ishingiz bo‘lmasin! — o‘shqirdi ona. — Sal mas’uliyatli bo‘lsangiz edi, bolaga qarardingiz! — davom etdi ayol.

Shohista opa boshini egib turar, qalbida og‘ir hislar tug‘yon urardi. So‘ng boshini ko‘tarib, Muqaddas opadan: “Dilshoda yaxshimi?” — deb so‘radi...





Latofat Sotvoldiyeva
11-sinf o'quvchisi

BOLALIK

Yashashni yosh boladan o'rgansa arziydi. Hech sababsiz tabassum qiladi; yiqilsa, darhol o'rnidan turib ketadi; bir narsani xohlasa, yetishmaguncha chekinmaydi; qiziqtirgan narsasini anglab yetmagunicha uni hech narsa to'xtata olmaydi; aslo qo'rquvni bilmaydi; urishib koyisangiz ham, xafa bo'lib, gina qilmaydi, darhol unutadi.

Mana, bahor nafasi urib turibdi. Bolaligimizda kapalak bilan gavjum bo'lган gulzor yana o'sha holatda. Hali bu qanday jonzot ekanini bilmasa-da, ortidan qolmayotgan Sardor onasining oldiga yetganida to'xtadi-da, qiziqib so'radi:

Oyijon, bu nima, farishtami?

Ona og'iz ochishga ham ulgurmadi-yu, opasi Go'zal kelib gap qotdi:

ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI

Jod maktabi

– Shuni ham bilmaysanmi? Axir bu...

Shunday deb atrofiga qaradi: ukasi yo‘q. U kapalak ortidan ergashib ketib qolibdi.

Bir payt u “farishta”ni tutib oldi:

Opa, qarang, qanolari chiroyli ekan-a?!

...Bolaligimizda kapalakni tuta olgandik, xo‘s, hozir bolaligimizni tutib qola olamizmi?



Ruhshona Oybekova

10-sinf o‘quvchisi

SO‘NGGI YAPROQ

Erta tong. Nasibaning mакtabga borishiga hamma narsa tayyor edi. U erinibgina o‘rnidan turdi-da, yuz-qo‘lini yuvib, nonushta qila boshladi. Onasi Halima ayaning yoshi bir joyga borib qolgan,

yolg'izqo'l, buning ustiga farzand yo'q edi. Nasibani ikki yil burun mehribonlik uyidan o'n yasharligida boqib olgan.O'z farzandidan ham ortiqroq ko'rardi, jonini ham ayamasdi. Ammo qaniydi, qizi ham unga shunday mehr ko'rsatsa, uni yaxshi ko'rsa, buyurgan ishlarini qilsa, qaniydi!


Nasiba dasturxonagi qovurilgan tovuq to'la likopchani surib, do'q qila boshladi:

– Men sizga bir gapni doim takrorlashim kerakmi, oyi! Buncha odamni xo'rlayverasiz, xo'rlayverasiz. Yomon ko'raman sizni! — dedi-da, stulni itarib turib ketdi. Halima aya shu bugungacha bunday haqoratni eshitmagandi.

Yuzidan rang o'chgan, ko'zi emas, qalbi bilan osmonni larzaga keltirib uvvos solardi go'yo. Ba'zi odamlar, ya'ni g'amgin odamlarda shunaqa bo'ladi o'zi: ko'zlar emas, qalblar dod solib yig'laydi. Halima aya ham shunday ahvolda edi. Uning qalbi shu birgina so'zdan o'q yedi, yaralandi. Ona go'yo bir sabr daraxti edi, uning barglari sarg'aya boshlagandi. U ham umrining daryoday oqib borayotganini qalban his qilsa-da, Nasibasini o'yldi-da! Ammo bugun bu holatni ko'tarolmadi. Bunday og'riqli zarbaga dosh berolmadi: yuragi bu dunyo bilan, Nasiba bilan xayrslashdi.

– Oyi, oyi! Sizga nima bo'ldi?! Qo'rqtit mang meni, oyijon, sizni yaxshi ko'raman, oyi...

Mehr daraxtining so'nggi, eng nozik yaprog'i uzildi...



**O'g'iloy Toshpo'latova
10-sinf o'quvchisi**

QALBLARGA YOG'GAN YOMG'IR

Bahorning iliq kunlari qayergadir yo'qolib, ajoyib yomg'irli kunlar boshlanib ketdi. Bir hafta tinmay yomg'ir yog'di. Daraxtdagi oq va pushti gullar xuddi chaqaloqlar sut emgani kabi yomg'ir tomchilarini yutinadi. Lolalar va ba'zi gullar gulkosalariiga to'lib qolgan suvni ko'tarolmay sal shamolga ham egilib ketaveradi. Tomlardan oqayotgan tomchilar marjonga o'xshaydi. Shunday paytlarda tabiat yuvingandek, yana ham yorqin tus oladi. To'g'ri, yomg'ir juda ko'p yog'sa ham insonda xavotir uyg'onadi. Kim biladi, balki osmon insonlarning bir-biriga, hayvonlarga nisbatan shafqatsizliklaridan ezilib yig'layotgandir.

U oynadan oqayotgan yomg'ir tomchilariga termilgancha, otonasining suhabatini tinglab o'tirardi.

– Voy-ey, buncha ko‘p yomg‘ir yog‘di-ya! Hamma yoqni shalabbo qilib yubordi, – ona noligancha qo‘lidagi ishini tikishda davom etdi.

– Shuni ayt. Lekin bunda ham bir ibrat bor, – beg‘am televizorni buray ketdi ota.

– “Ibrat bor” deysiz-u, bu yil ham mevalar yaxshi bo‘lmasa-chi? Yer namiqib ketadi, ekin ekish esa yana kechikadi!

– Buncha vahima qilasan, undan ko‘ra ovqat-povqat qilsang-chi!?

– Shu yomg‘irda ovqatni qanday qilaman? Agar oshxonaning tomini yopib berganingizda qiynalib yurmas edim!

– Eh , biron marta “xo‘p” deysanmi o‘zi?! – ota jahl bilan televizor pultini stol ustiga qo‘ydi.

Shu payt ularning bahsini o‘g‘lining ovozi buzdi.

– Oyi, yomg‘ir yana qancha yog‘sa quriyotgan dengiz va daryolarni to‘ldira oladi?

To‘satdan berilgan bu savoldan ota ham, ona ham hayron qoldi.

– Nega so‘rayapsan? — ota u tomon yuzlanib, ajabsinib qarab qoldi.

Ana, televizorda “bu yil qishda qor yaxshi yog‘magani uchun, yoz issiq kelishi mumkin. Shuning uchun daryo va dengizlar suvi quriy boshlaydi”, deyishdi. Agar daryo va dengizlar qurib qolsa, baliqlar va hayvonlar nobud bo‘ladi. Shuning uchun men Allohdan ular uchun suv so‘ragandim... Kechiring, oyi ! Men bunday bo‘lishini bilmagandim, hammaga yaxshi bo‘lsin? degandim — dedi bola gunohkordek boshini quyi solib.

Otasi chidolmadi, shart o‘rnidan turib, o‘g‘lini bag‘riga bosdi. U hech narsa deyolmas, go‘yo gapirsa yig‘lab yuborgudek edi.

“Yo‘q, o‘g‘lim! Sen bizni kechir. Sen biz, g‘ofil bandalarning ko‘zini ochding! Qachon o‘zimizdan boshqalarni ham o‘ylaymiz-a ? Yo Allohim, shu yomg‘ir bilan bizning qalbimizni poklagin!”

Uning butun mehri bir tomchi yoshda aks etgancha, yerga yumaladi.



Ibodatxon Nasriddinova

9-sinf o‘quvchisi

BALIQ

Baliqcha charaqlagan oftobni suv ustidan kuzatishni juda-juda istardi. U endigina tuxumdan chiqqan, shaffofligidan ichak-chavog‘i ko‘rinib turgani bilan hech narsadan qo‘rqmas, o‘zini jasur va kuchli his qilardi. Unga hamma narsa qiziq tuyulardi: onda-sonda uchraydigan yaproqlar ham, katta-kichik suv mavjudotlari-yu har xil chiqindilar ham. Ba’zida u ana shu chiqindilarning ichiga kirib olib, berkinmachoq o‘ynardi. Yana u doim qirg‘oqqa yaqin suzar, baliqchilarning qarmoqlaridagi ovqatni onasi har qancha taqiqlasa ham yeb ko‘rgisi kelaverardi. Xullas, bu tinib-tinchimas o‘ziga bir baloni orttirib olmasa bo‘lgani edi.

Kunlar ortidan kunlar o‘tar, baliqcha ham ancha katta bo‘lib qolgandi. Ammo suv juda o‘zgargan, qandaydir iflos. Hech qayerdan ovqat topib

bo'lmaydi, keksa-yu yosh baliqlar sekin-sekin nobud bo'la boshlagandi. Bu holdan hammaning ichiga g'ulg'ula tushib qolgan. Shunda baliqcha, balki bu suvdagi chiqindilarning dastidandir deb o'yladi va bu haqda boshqalarga ham aytди. Lekin hech kim unga quloq solmasdi. Yana bir qancha vaqt o'tgach suvda aslo turib bo'lmay qoldi. Baliqlar galasi birvarakayiga bu yerdan qochishga intilardi. Ular shoshqaloqlik bilan qirg'oqqa yaqin suzganlaridagina adashganini tushunishdi.

Suv yuzasi baliqcha aytganday chiqindilar bilan qoplangan va hech narsani ko'rib bo'lmasdi. Baliqlar har qancha harakat qilishmasin, bu yerdan chiqib keta olishmadi va bitta-bittadan halok bo'lishdi. Baliqcha esa uzoq-uzoqlarga suzdi. Lekin tirik qolishga irodasi yetmadi. Uning mittigina tanasini bir qizcha tomorqadagi ariqdan topib oldi. Qizaloqning u bilan o'ynagisi kelar, ammo o'ziga o'xshagan odamlarning aybi bilan nobud bo'lgan bu baliqcha endi hech qachon qimirlamaydi...

(P.S. *Bu hikoya o'zim bir vaqtlar ariqdan topib olgan baliqcha haqida. Uni tiriltirish uchun rosa harakat qilganman, biroq bari besamar ketgan...*)

QATRA


Bu dunyoda hech narsa abadiy emas. Boylik, go'zallik, nafs hamma-hamma. Masalan, siz bir umr go'zalligingiz haqida o'ylaysiz, ammo qariganingizda yuzingiz burishib, tanangizdan kuch-quvvat ketadi... Jasadingiz chirib, tuproqqa singiydi. Siz bir umr boylik ketidan yugurasiz, ammo topganingiz u dunyoda sizga kor qilmaydi. Yana qabringiz ichini oltin-u javohirlar bilan bezata olmaysiz. Bunday xususiyatlar faqat ruhimizda yo'q. Shunday ekan, birinchi navbatda uni go'zallashtirishimiz kerak.

QATRA

Amerikadagi Forks shahrida juda ko'p yomg'ir yog'adi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u yerning o'rmonlari qalin qirqquloqlar bilan

ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI
Jiod maktabi

qoplangan. Quyosh chiqqanida esa ana shu qirqquloqlarning barglari juda ajoyib tovlanadi. Ko'ngilga allaqanday iliqlik soladi. Yuraging entikib ketadi. Forksda uzluksiz yog'adigan yomg'ir u yerdagi odamlar singari to'xtovsiz. Qirqquloqlar esa hech qachon maqsadidan qaytmaydigan insonga o'xshaydi. U quyoshga qarab o'saveradi.



Madinabonu Abdusalomova
9-sinf o'quvchisi

QORA SOVUQ

Qishloq kezdi izg'irin,
Kasal qildi hammani.
Chol-u kampirdan tortib,
Tog'a, xola, ammani.



O'sha kuni chiqdik biz,
Shoshilib ko'cha tomon.
Ammo ayovsiz sovuq,
Qo'yadi bizni omon.

Lekin bizlar kurashdik,
Pisand qilmay sovuqni.
Ertasiga ertalab,
Qurban qildik tovuqni.

ONALAR YOLG'ONCHIMI?

Egningda libosing yaltirar, qara,
Qorning to'q, usting but, emassan yupun.
Onang-chi, ko'nglida ming dard, ming yara,
Yashab yuribdi-ku, kamoling uchun.

Birda bemor bo'lib yotganda arang,
Savol berib ko'ring onangizga siz.
Hammasin unutib, tikilib so'rang:
Yaxshimisiz?...

Shunda ham yostiqdan ko'tarib boshin,
"Yaxshiman, xavotir olma", – deydilar.
Yurakka tuggancha sabr-bardoshin,
Na kiyib, na to'yib ovqat yeydilar.

Yo'q, yo'q, yo'q!
Onalar aldamaydi hech,
Yurakka singadi bu fikr asta.

Qo‘limda tugunni ko‘tarib shu kech,
Kiraman, onamlar yotibdi xasta.

“Onajon, men keldim, erka qizingiz,
Sizni xushnud qilish istadim bugun.
Siz uchun atalgan ishoning, ona,
Qo‘limda tutganim, shu jajji tugun...”

Ko‘zimda yosh bilan shu bir lahzada,
Onamni sinchiklab, zimdan kuzatdim.
Qo‘llari qaltirab ocharkan uni,
Ichidan qip-qizil olma uzatdi.

Onalar yolg‘onchi bo‘lar bilsangiz,
Ularning yolg‘oni chin emas hech ham.
Qo‘lida bo‘lsa ham eng so‘nggi noni,
Shuni ham siz bilan ko‘radi baham.
“Qornim to‘q, shuni sen yeyaqol, bolam...”





Tasanno Abduvahhobova
9-sinf o‘quvchisi

DUNYONING ISHLARI

Qora bulut qora emas,
Uning qalbi pok, oppoq.
Axir ulkan yulduzlar ham,
Ko‘rinadi mittiroq.

Atirgulni go‘zal demang,
Bor bandida tikanlar.
Ul makkora tulkini ham,
Ba‘zan yaxshi deganlar.

Baland cho‘qqi yerda turib,
Orzu qilar samoni.

ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI

Fjod maktabi

To‘tiquish-chi, ming urinib,
Taqlid qilar navoni.

Har odamning so‘zlarida,
Yolg‘on hamroh umrbod.
Bu dunyoning ishlaridan,
Osmon chekar dod, faryod.

Yaratganim, bu ishlarda,
Bizlarga bo‘lgan panoh!
Zaminimni pok saqlagin,

Mehribonim, ey Alloh!

TINCHLIK

Ilon izi qolgan bo‘m-bo‘sh so‘qmoqqa,
Quyosh tinchlik bo‘lib sochadi nurin.
Maysalar uyg‘onar uzoq g‘aflatdan,
Yerga asta qo‘yar labdagi durin.

Egilgan daraxtlar ko‘tarib boshni,
Hayotdan zavq olar bo‘y cho‘zib tinmay.
Mehnatkash chumoli har tomon yurib,
Ter to‘kib ishlaydi umidi sinmay.

Osmon yig‘lamaydi, bugun musaffo,
Qushlar haqiqatni qo‘rqmay kuylaydi.
Tinch bo‘l, urushlardan uzoq tur, xalqim,
Har bitta farzanding seni o‘ylaydi.



Gulyora Hoshimjonova
9-sinf o'quvchisi

ORZU

Ko'zlarim yumilgan, tuyg'ular unsiz,
Qulog'imda giryon yomg'ir tovushi.
Yoki bu yomg'irmas, ko'zyoshimmikin?
Bu havoning emas, dilning sovishi.

Sochim o'ynayotgan mayin shamolmi,
Yoinki qo'llarim uni ezyapti?!
Tolalar hilpirar go'yo musavvir,
Balki dardlarimni u ham sezyapti.

Sohilsiz ko'zimda ko'rinati yosh,
Kiprigim namiqqan, qorachiq bejo.

ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI

Fjod maktabi

Xayollar parishon,o‘ylar to‘zg‘igan,
Tangrim istagimni aylarmi bajo?!

Kuzgi kurtak bo‘lsam yo qishki lola,
Va baxtning ko‘ksiga joylashib olsam.
Falakdan poklikni olib tushguvchi,
Qaniydi, yomg‘irga aylanib qolsam!

SOHILDAGI SATRLAR

Sohildagi satrlarga termilaman,
Jim tinglayman bizga tanish qo‘shiqlarni.
Hatto dengiz mavjlar urib ketar ko‘rsa,
Bizdek ko‘zi chaqnab turgan oshiqlarni.

Sen kelasan asta tutib qo‘llarimga,
Gulgun, go‘zal moychechaklar – ko‘nglimizdek.
Va chizasan sho‘x dengizning sohiliga,
Ikki so‘roq birlashadi – ko‘ksimizdek.

Kechikkanim bilsam hamki talpinardim,
Ko‘p eslabsan birga kechgan xotirlarni.
Ko‘zimda yosh hayajon-la o‘qir edim,
Dilizhoring – sohildagi satrlarni...





Farangizbonu Muhammadaliyeva
9-sinf o‘quvchisi

CHO‘QQI

Yillar bizni kutar, yo‘llar kutadi,
Goho yiqilasan, goho turasan.
Sen uchun shunchalar imkoniyat ko‘p,
Faqat o‘qisang bas, shijoat bilan.

Bilimdan zina qur, tog‘ga yetishgin,
Umringni yoritsin kitob nurlari.
Qalbingga yozilsin ushbu yozuvlar:
“Olg‘a, olg‘a, nurli kelajak sari!”

Samolar eshitsin sening nomingni,
Cho‘qqiga chiqmasang, qirga tirmashgin.

Tushkunlikka tushma, ortda qolsang gar,
Inson bo‘lishlik ham, albatta, qiyin.

INSONIYLIK

Oyim bilan bozorga,
Kechagina borgandik.
Kerak bo‘lgani uchun,
Ko‘proq narsa olgandik.

Qo‘limizda yuk og‘ir,
Borar edik uy tomon.
Yo‘limizda bir mahal,
Duch keldi bir onaxon.

Onaxonning yuklari,
Og‘ir ekan juda ham.
Yordamlashaman deya,
Ko‘tarishdi tez onam.

Onam bilan ularni,
Uyigacha kuzatdik.
So‘ng o‘zimiz shoshilib,
Tez orqamizga qaytdik.

Uyda onamga tezda,
Savol berib tashladim.
“Nega?, nega? nega?” deb
So‘roq-savol boshladim.

“Yukimiz og‘ir edi,
Yordam berdik nimaga?
O‘zimiz qiyaldik-ku,
Pul ham bermadi bizga!”

Oyimning jahli chiqdi:
“Mehr sotilmas pulga.
Yaxshilik qilsang agar,
Duo olasan kunda”.

Oyim uqtirib qo‘ydi,
Insoniylikni menga.
Endi yaxshilik qilib,
Duo olaman kunda.





**Sarvinoz Mahmudova
9-sinf o‘quvchisi**

BAXT SHAHRI

G‘am-u dardlarimni unutib ketgum,
Dengizning havosi esgan shaharga.
To‘p-to‘p chag‘alaylar chug‘ur-chug‘uri,
Albat, uyg‘otadi meni saharda.

O‘shanda ko‘zimdan oqmas tomchi yosh,
Yurakning tubida quvonch yashirin.
Marmar kechalarda baxtning nafasi,
Ba’zan dardlashamiz, aytadi sirlin.

Mehrdan yaralar har narsa unda,
Shodlikning bahosi erur dur, gavhar.

Albatta, yoningga boraman ishon,
Meni kut, baxtlarga yo'g'rilgan shahar.

YOMG'IR

Osmon gulduraydi, yog'adi yomg'ir,
Kuz faslin elchisi berar daragin.
Samo bag'rin tilgan har bitta tomchi,
Kuz bilan bog'laydi mening yuragim.

Osmon gulduraydi, yog'adi yomg'ir,
Tozalar dunyoni g'ubor, gardlardan.
Faqat baxsh etadi olam shodligin,
Qalbni xalos qilar g'am-u dardlardan.

Osmon gulduraydi, yog'adi yomg'ir...





**Ro'zixon Muhammadova
9-sinf o'quvchisi**

OPA

Opa, ko'rgim keldi yana qishloqni,
Bu shaharda yashash bunchalar qiyin.
Quyoshin qidirgan osmondek go'yo,
Seni sog'inyapman kun o'tgan sayin.

Opa, eslaysanmi sen ham men kabi,
Onam yopgan issiq kulcha nonlarni.
Ariqdan olmalar terib yer edik,
Endi sog'inyapman o'sha onlarni.

Opa, esingdami majnuntollardan,
Tolpopuk yasarding atay men uchun.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Bugun sen yasagan tolpopuklardek,
Asta yuragimga bog'lanar ochun.

Opa, uyimizning devorlarida,
Baxtni qo'shib chizgan suratlarim bor!
Sen, men, bolaligim, orzularimiz –
Bizning yosligimiz shunday beg'ubor,
Opa!!!

UCHRASHUV

Mehr bekatida turibman yolg'iz,
Dardimni tinglashga yo'q biror inson.
Mening dardlarim-ku oxirlab qolar,
Mehr bekti-chi, bo'm-bo'shdir hamon.

Ey yurak, ketaylik butkul bosh olib,
Bizni tushunmaydi bu falak, ochun.
Qadri qolmayapti oqibatning ham,
Mehr begonadir odamlar uchun.

Mehrning oldiga bordim bosh egib,
Hech ham tinch qo'ymadi sog'inch va diydor.
Endi yanog'imga kulgi yugurar,
Bugun mehr bilan uchrashuvim bor.



**Nodirabegim Saidjonova
9-sinf o‘quvchisi**

MEN BOLAMAN

Men bolaman, dunyo dardlarin,
Quvonch, baxtga alishib yurgan.
Qo‘g‘irchog‘im olib qo‘yishsa,
Yig‘lamasdan jilmayib turgan.

Men bolaman, bolalik haqqi,
G‘amlar menga yarashmas zinhor.
Yuragimda quvonchga o‘xshash,
Baxtga moyil qancha gaplar bor.

Men bolaman, sofdir, beg‘ubor,
G‘o‘ra bilan do‘s tuzni.

Arra degin demangiz aslo,
Aytolmayman bu qiyin so'zni.

Men bolaman, har nega qodir,
Hali ko'kdir yurakda kuchim.
Bor ilmimni saqlab qo'yganman,
Meni kutgan kelajak uchun.



**Mushtariybonu Sulaymonova
9-sinf o'quvchisi**

KETAMAN

Ketaman.
Ozorsiz bir makon izlab,
Qalbimning qiymati qilchamas, bildim!

Mehrim ham qoladi yetimday bo‘zlab,
Asli sizni suyib ko‘p xato qildim.

Ketaman.

Quvonchim qoldirib sizga,
Baxtli kunlarimni, xursand damlarni.
Parcha-parcha bo‘lgan bu yurak menga,
Quchoqlab ketaman alamlarimni.

Ketaman.

Yoqmadim sizga do‘stijon,
Aslo tilga olmang tuyg‘ularimni.
Yuragim og‘ridi demangiz zinhor,
Berkitib ketaman kulgilarimni.

BEDIL

Xayolim osmonda uchgan dilqushim,
Meni quvonchlarga to‘ldirgan baxtlar.
Bir sado kutmagan ko‘ngilda hushim,
Sening so‘zing kabi turgan daraxtlar.

Ne kunki, jilmayib turganda ohim,
Sening-chun aytilgan so‘zlarda titroq.
O‘zing qarog‘imda turgan gunohim,
Gullagan daraxtda eng yashil yaproq.

Azobsan, bir dardsan ko‘chalarimda,
Gavharlar misoli tizilgan jodu.
Tush bo‘lib turibsan kechalarimda,
Shafaqn ni yoritar eng yorqin yog‘du.

IJOD BOG'IDAN
Guldasta

Alamsan. Yutaman alamlarimni,
Ko'yingda titragan men ko'ngli gado.
Har kun kezmoq istab olamlaringni,
Qush qilib yaratса bo'larkan Xudo.

Atrofni o'ragan xazon yaprog'i,
Sog'inch yomg'irlari dildagi g'ubor.
G'amgin kuylar bilan asli bu kuzni,
Biz uchun atagan hikoyasi bor.



**Behruz Mo'minov
10-sinf o'quvchisi**

VATAN

Yovvoyi yo'rg'adek kishnab, erk so'rab,
Ko'kka talpinganing eslayman, Vatan!

Sendan mard o‘g‘lonlar najot so‘rganda,
Bosh ko‘tara olmading paxtazoringdan.

Qorachiq sachradi bu osmoningga,
Ko‘zlariningdan yulduz bo‘lib tomdi yosh.
Yuragingga qadalganim bilaman men,
Jadidingga la‘nat bo‘lib otilgan tosh.

Yuguraver keng dalada erkni tuyib,
Haq yo‘lida o‘zim bo‘lay senga sarboz.
Hurkimagin, g‘am-anduhdan kechib butkul,
Bugun senda na egar bor, na chavandoz!

OY

Qaro tunda raqs etadirsan,
Egningda-chi, kumushrang ko‘ylak.
Sen jilmayib boshing burasan,
Sir tutilgan isming so‘rasak.

Senga boqib asta uxlayman,
Raqs etasan zabonsiz, tilsiz.
So‘z deyishing kutdim va men ham,
Seni suydim izhori dilsiz.

Qaro tunda raqs etadirsan,
Egningda-chi, kumushrang ko‘ylak.
Moviy rangli parda tortasan.
Sir tutilgan isming so‘rasak.



**Shoiraxon Omonova
10-sinf o'quvchisi**

TONG

Tong. Osmon yorisha boshlaydi sekin,
Bulutlar ortida ajib o'lka bor.
Meni anglamagan cheksizliklarga,
Hali ham sepini yoymadi bahor.

Maysalar ustida shabnam raqs tushar,
Daf'atan ko'nglimga sig'maydi ranglar.
Tongning suratini tasvirlamoq-chun,
Musavvir, eng yaxshi bo'yoqni tanla.

Shoir, saralab qo‘y so‘zlarni tezroq,
Tanda jon titrasin, qolmasin bedor.
Tongning yuragida – osmonlarimda,
Bulutlar ortida ajib o‘lka bor.


JADIDLAR

Arslon bo‘lib tug‘ilganlar arslon albat,
Tomirida buyuklarning qoni oqar.
Qodiriy-u Cho‘lponlar-u Abdullani,
Suratlari bugun ko‘zi yoshda boqar.

O‘tgan kunlar osonlikcha o‘tib ketmas,
To‘lin oyni etak bilan yopolmaysiz.
Ko‘ngil tusab qolganida asarlarin,
Kishan solgan qo‘llarini topolmaysiz.

O‘g‘ling bugun haqiqatni aytib o‘ldi,
O‘zbek eli,davring keldi ko‘kraging ker.
Devorda ham temirda ham qolib ketmas,
Sibilarda qoni bilan yozilgan she‘r.





Oyatulloh Normuhammadov
10-sinf o‘quvchisi

SARVIQOMAT DILBARIM

Quvonchdan porlaydi jajji yulduzlar,
Jilmaygancha boqar sohil bo‘yiga.
Har dam ikki oshiq kecha-kunduzlar
Visol dardi bilan yetmas o‘yiga.

Rangsiz xotiralar sarlavhasiga
“Chaqmoq yulduz” deya, nom qo‘ygan bir qiz.
Sarguzashtli hayot peshtaxtasida
Tuyg‘ular mavj urar, ummon qirg‘oqsiz.

ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI


Fjod maktabi

**BOLALARGA QOLIB
KETMASIN!**

Bola ko'nglin podsho deydilar,
Podsholarda ulug'roq asli.
Tillagamas baxtlarga bezar,
Tushlarida qurilgan qasrin.

Hayot suvlar kabi oqizib,
Shodliklarni olib ketmasin.
Bu dunyoning tashvish-u g'ami,
Bolalarga qolib ketmasin!





Mirjalol Safarov
10-sinf o‘quvchisi

DUO

Qalaming yo‘nolmay qolgan kunlaring,
Yosh emas, ko‘zingdan oqsa xunlaring,
O‘tkinchi dunyodan mehr ko‘rmading,
Otang duosiga muhtojsan endi.

Atirgulning tikani bor, bilasanmi,
Hatto tegsa og‘riydi-ku jimmilog‘ing.
Yuz ming tikan sanchgan eding qachonlardir,
Yer-la bitta bo‘lganida do‘s-t-o‘rtog‘ing,
Bobong duosiga muhtojsan endi.

Qo‘lin ochayotsa tabassum bilan,
Yopib tashladi-ya ko‘zing mazmuni.
Endichi qo‘llari kalta deydi-da,
Ko‘zing yoshlatadi jamiyatning uni,
Momong duosiga muhtojsan endi.

Ey do‘stim, bu dunyo boyligi sarob,
Bir kuni chalinar tikka oyog‘ing,
O‘sanda ablah deb seni hattoki,
Or qilib turadi qo‘ltiqtayog‘ing,
Otang duosiga muhtojsan endi.

KUZ QO‘SHIG‘I

Bir chetda joylashgan ko‘nglim qasrida,
Yigirma bir emas, sevgi asrida.
Bog‘lar uzra yurgan shamol dastidan,
Kuz qo‘shiq aytadi, raqsida yaproq

Raqsi yoqmas qasrim malikasiga,
Bilmadim, o‘zini zo‘r deya bildi.
Ularni to‘xtatib bir necha kunga,
Qorlarning ostiga zindonband qildi.

O‘zi uyaldimi qilgan ishidan,
Tillarang kuzga deb qo‘shiqlar yozdi.
Raqsida o‘ynagan daraxtni ko‘rib.
Qalbim malikasi aqldan ozdi.



Amirulloxon ISMOILOV

11- sinf o‘quvchisi

CHEKSIZLIK

“Yo‘q halovat istamayman”

Erkin Vohidov

Yo‘q, halovat istamayman, bas,
“Jim” so‘zini ishlatmang ortiq.
Vujudimga sig‘mas yuragim,
Ishqsizlarga shoirdan tortiq.

Yo‘q, halovat istamas jussam
Beg‘amlarga ketgum tupurib.
Bu dunyoni titratgan tovush –
Yuragimning dupur-dupuri.

Halovatni suymas she‘riyat,
Lug‘atimda yo‘qdir erksizlik.
Mening ismim – chin hurriyatdir,
Mening qalbim – asl cheksizlik!


MATLAB

Ona, dunyo sendan yaralmaganmi?
Yo jannat emasmi ikkinchi noming?
O‘g‘lingni duo qil qo‘lingni ochib,
Ilohi omin...

Dunyolarga hokim bo‘lsin demagin,
Nafsga qul bo‘lmasin desang yetarli.
Allohga muhabbat qo‘y degin, bo‘lsin,
Ishqim ilohiy.

Shaytonlar yo‘liga chorlagan payti,
Nafsim bo‘ynimga ip solar bir onda.
“Alhamdulilloh”ni qiroat bilan,
O‘qib ber, ona!..





Dilnura Hamdamova
11-sinf o‘quvchisi

YOMG‘IRDA

O‘rindiqda o‘tiramiz jim,
O‘rtamizda qiqirlaydi baxt.
Xiyobonni yuvarkan yomg‘ir,
Tomchilar-la sirlashar daraxt.

Shum xayollar kezar atrofni,
Daraxtlar ham egik meningdek.
Menga ta‘zim qilar bulutlar,
To‘g‘ri, qaddim egik, g‘urur tik.

Yomg‘irlarni ko‘mar qa‘riga,
Bizga hamroh bo‘ladi zamin.
O‘rindiqda o‘tiramiz jim:
Soyabon va men!

SONET


Qo‘shqanot baxt tiladim sizga,
Bulutlardan, ko‘nglimdan-da oq.
Tomirimda yangicha sezgi,
Ruhim uyg‘oq, vujudim uyg‘oq.

So‘roqlardan muzladi boshim,
Ko‘nglingizda ne bor, bilmayman?
Qorachiqqa qo‘ndi ko‘zyoshim,
Men yashayman, hali o‘lmayman.

Xayollardan bezigan bag‘ir,
Lolalarning qirmiz etagi,
Sensiz yashash, na qilay, og‘ir.

Serjilo ishq tutdi mo‘yqalam,
Sizni chizdim yoningizdagi,
Baxtga to‘lgan qoraqiz bilan!





Shoirkbek Rahmatullayev

11- sinf o‘quvchisi

SAODAT

Men seni izladim devona bo‘lib,
Soat millarini quvGANIMDA ham.
Men seni izladim devona bo‘lib,
Oltin qafasdagI bulBULLARDAN ham.

Va lekin topolmay chekdim ko‘p azob,
Misrda ehromlar qurdim qul bo‘lib.
Bozorda sotildim Bilol Habashdek,
Mehnatga yaralgan qora qo‘l bo‘lib.

Men seni izladim devona bo‘lib,
Qidirdim bu dunyo mayxonasidan.
Men seni izladim mastona bo‘lib,
Va topdim Vatanim ostonasidan.

QISHGACHA

Dunyo tor-u, odamlar ko‘p,
Qalbimda bir dunyo dard.
Turli-tuman insonlar bor,
Kimlar tinglar,
Kimlar karaxt.

Yurak yondi, tuyg‘u olov!
Saratonda yurgan bizlar.
Qishga borib bahoriga,
Yetolmadi sabrsizlar.

Yer qorigan zuvalamni,
Osmon ezgan bu gavdamni,
Kuzlar o‘tib so‘ng qahraton
Muzlatadi, qish hammani.

Qahratonda qolgan hislar,
Muzlab qoldi, muzlab qoldi.
Qadrim bilmas qadrsizlar,
Bo‘zlab qoldi, bo‘zlab qoldi!




OGAHİY İJD MAK TABİ




MUHAMMADRIZO
ERNIYOZBEK OĞLU OGAHİY
1809-1874






MUHAMMADRIZO OGАHIY
NOMIDAGI

Ijod maktabi



MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Fjod maktabi



8 - sınıf o‘quvchisi
Nargiza Baxtiyorova

KELAJAKDAGI KASBIM

Osmon to‘la yulduzlar,
Nur taratib porlaydi.
Ulardan biri meni,
O‘z bag‘riga chorlaydi.

Kasblar ko‘pdir dunyoda,
Bir-biridan ziyoda.
Tarjimonlik, bilsangiz,
Keltiradi ko‘p foyda.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Ham nasr, ham nazmda,
Bitilgandir xazina.
Tarjimonlar tarixda,
Son-sanog'i ozgina.

Ogahiy solgan yo'ldan,
Chopib, yelib boraman.
Bobom tergan durlarning,
Sirin ochib boraman.

Tillar ham ko'p dunyoda,
Bir-birdan ziyoda.
Arab, fors, turk tillarin
Bilmak juda ko'p foyda.

Ko'p tillarni o'rganib,
Zo'r tarjimon bo'laman.
O'zbegimni tanitib,
Cheksiz zavqqa to'laman.

Kasbiga berib mehr,
Qizing kamol topadi.
Tarjimalari bilan,
Qolar nomi abadiy.

OGAHIY IJOD DARGOHI

Qadim Xiva - muqaddas makon,
Har parcha g'isht tarixdan nishon.
Olislarga tikar shoir nigohin,
Bizniki Ogahiy ijod dargohi.

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMİDAGI

Ijod maktabi

Ne asrlar uchdi xuddi yelkanday,
Og'riqlar kaftimga kirar tikanday.
Ijodidan yashnar xonning borgohi,
Bizniki Ogahiy ijod dargohi.

Shoir-u tarjimon, tarixchi, mirob,
She'r ilmida durlar tergaydur serob.
Har satrida elning dardi-yu ohi,
Bizniki Ogahiy ijod dargohi.

Asarlarin o'rganamiz mehr berib,
Ummonida kezamiz biz durlar terib.
She'riyat osmonin oftobi-mohi,
Bizniki Ogahiy ijod dargohi.





Nigina Rustamboyeva
8 -sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTONIM

Tug'ilgan jon yurtim, jannatmakonim,
Eli tinch, beg'ubor moviy osmonim,
Sen xalqim imkoni, balki iymonim,
Muqaddas Vatanim – O'zbekistonim!

O'zingsan ulug'vor, olamda buyuk,
Onamday mehribon, otamday suyuk,
O'zbegim farzandi bo'lsin mard, yetuk,
Muqaddas Vatanim – O'zbekistonim!

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMİDAGI
Sjod maktabi

Bayrog‘ing hilpirar, madhiyang yangroq,
Barchaga qadrli bu ona tuproq,
Hattoki tog‘-u tosh, har bitta yaproq,
Muqaddas Vatanim - O‘zbekistonim!

Niholman! Kuch bergen sensan - bog‘bonim,
Hamisha madadkor bo‘lgan qalqonim,
Yurtboshim - tog‘im bor, o‘zing sarbonim,
Muqaddas Vatanim - O‘zbekistonim!

Poyingga gullardan yozay poyandoz,
Tuprog‘ing ko‘zimga surib, o‘psam oz,
Bag‘ringda shod o‘ynab, o‘ssam qanday soz,
Muqaddas Vatanim - O‘zbekistonim!

Hur diyorum! Yashnab, yutuqlarni quch,
Dunyoda g‘urur-la yuksaklarga uch,
Osmonimiz doim bo‘lsin mangu, tinch,
Muqaddas Vatanim - O‘zbekistonim!

OGAHİY MEROSI – BEBAHO XAZINA

Gavdalalar ko‘zim oldida,
Tarixshunos davlat arbobi.
Kitoblarin o‘qib - o‘rgansak,
Katta hayot har bitta bobi.

Buyuk shoir she’r – o‘gitlari,
Qalbim ichra porlaydi mudom.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Shoir, olim, hattoki mirob,
Elparvardir Ogahiy bobom.

Bu dunyoda aslo topilmas,
Asarlarin ta'rif - qiyosi.
Go'yoki bebaho xazina,
Ma'rifat-u nuri, ziyosi.

Nomlariga atalib mana,
Ochilibdi ilmlar koni.
Unda o'qib bizdek yosh avlod,
Lol qoldirgay bir kun dunyoni.

Buyukligi, ijodi bilan,
Yuraklarda porlagay boqiy.
Tarixnavis, olim-u shoir,
Ulug'verdir bobom Ogahiy.

Derazamdan qarasam agar,
Ko'rinar bobom ekkan tut.
Asrlarni surib orqaga,
Buyuk shoir bo'lmaydi unut.



MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Sjod maktabi



Nafisa Aminboyeva
9-sinf o‘quvchisi

KASBIM-FAXRIM

Qaysi kasbda bo‘lmasin inson,
Obro‘ topar mehnati bilan.
Tanolasak gar dilga yaqinin,
Husn berar ziynati bilan.

Maktabga ilk qadam qo‘yarkan,
Ustoz mehrin qalbimda tuydim.
Fanlar ichra adabiyotni,
Odobiyot ilmi deb suydim.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Ignan bilan quduq qazish bu -
Muallimlik mashaqqatli kasb.
Shunday ulug' kasbni egallah,
Bizlarga ham qilsin-da nasib.

Ilm olib maqsad yo'lida,
Deyishganda meni ham "Ustoz!"
Kasbim qadrin baland tutgayman,
Ustozlarga ko'rsatib e'zoz.

ASRLARDAN O'ZGAN BOBOM


Ikki yuz o'n uch yil oldin yozilgan,
Bebaho asarlar moziy qa'ridan.
Kelmoqda tarixdan bebahosabiq,
Hikmat bo'y ko'rsatar bari-baridan.

"Riyoz ud-davla" da xonlik tarixi,
Davomi Munisning "Firdavs iqbol"sin.
"Tarixlar qaymog'i", "Gulshani davlat"
Bitiklar anglatar yurt istiqbolin.

Mohirona qilib turkiy tarjima,
Mirxondning "Ravzat us-saf"sin.
Turkiy tilga o'girdilar forsiydan,
Durbekning "Yusuf-u Zulayho"sin.

Donishmand-u buyuk bobom bitiklari,
Ma'rifatning ummoniga eltar hamon.
Ogahiy yashaydi qalblarda mangu,
Bobomiz birla biz oshgaymiz dovon!

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Fjod maktabi



**Gulira'no Mamatsolayeva
9-sinf o'quvchisi**

JONLI SURAT

Buvim men tug'ilmasdan oldin vafot etgan. Buvam ularning ismlarini menga bergen. Buvam bувимning о'limidan qattiq ta'sirlangan, о'згариб qolgандilar. Oвqat kam yerdilar, kam gapirardilar, uzzukun derazaga tikilib xayolga sho'ng'ib o'tirardilar.

Men juda sho'x edim, yerga ursa ko'kka sapchirdim. Bir sho'xligim tutsa uyni boshimga kiyardim, yarim tungacha tinmay uyning u burchagidan bu burchagiga borib kelardim. Dadam va oyim menga nuqlu uyda tartib saqlashni buyurishardi. Lekin quloq solmasdim. Bir kuni shu o'yinlarqoligim sabab bir voqeaga guvoh bo'lib qoldim...

IJOD BOG'IDAN

Guldasta

Yarim tun. Dahlizdan qo'g'irchog'imni o'ynab o'tib ketayotganimda buvamning ovozini eshitdim. Asta xonasi eshigiga qulqoq tutdim.

– Seni qadring bilinyapti... Meniyam yoningga chaqir...


“Buvam kim bilan gaplashyapti ekan? Axir telefon ishlatmasdi-ku? Hech kim mehmonga ham kelgani yo‘q. Kim bo‘lishi mumkin?” Shunday o‘ylar girdobida men eshikni tovush chiqarmasdan sekin qiya ochdim... Buvam devordagi buvimming surati bilan gaplashayotgan ekan. Ba’zi odamlar bundan kulishi mumkin. Lekin bu holat menday shaddod qizga ham kulgili tuyilmadi. Rahmim keldi...

Buvam buvimga dadam, oyim, mening hol-ahvolimizni, hayotimizdagi o‘zgarishlarni gapirib berayotgan edi. Men haqimda gapirganda sho‘xliklarimni, erkaliqlarimni goh yig‘lab, goh kulib aytib berardi. Nevaramiz xuddi sening o‘zing. Senam bolaligingda shunday shaddod eding...

Negadir ko‘nglim g‘ashlandi, kayfiyatim tushib xonamga jo‘nadim. O‘shanda buvamni oxirgi marotaba ko‘rayotgan ekanman...



MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Sabrina Omonboyeva
9-sinf o‘quvchisi**

SARIQ LOLALAR

O‘sha kuni u uyiga sariq lolalardan guldasta ko‘tarib keldi. Bu ayolining eng sevimli guli edi.

Ayoli uni bugun a’lo kayfiyatda kutib oldi. Dadasining kelganini payqagan qizi xonasidan yugurib chiqib, quchoqlab oldi. Ayoli uning qo‘lidagi guldastani olib, suv to‘ldirilgan vazaga solib qo‘ydi. Qizaloq dadasi bilan ko‘rishib bo‘lgach, qaytib xonasiga kirib ketdi. U xonasida jimgina kitob o‘qib o‘tirardi. Bir payt “Bo‘ldi, hammasi tugadi, sabrim qolmadi, men ortiq bularga chiday olmayman” deya zardali ohangda aytilgan so‘zлarni eshitdi. Ha, onasi negadir bugun bir dugonasi bilan gaplashib, uning allanimalar xarid qilganini eshitib, kuni bo‘yi


kayfiyatsiz yurgan edi. Qizaloq nima bo'lyotganiga qiziqib, xonasidan chiqdi. Hali hech narsani anglab ulgurmasidan dadasi eshikni qarsillatib yopgancha uydan chiqib ketdi. Onasi esa stulda o'tirgancha yuzini qo'llari bilan berkitib olib, yum-yum yig'lardi.

Qiz garangsirab qotib qolgan, nima bo'lganiga tushunmasdi. U asta oyisining oldiga bordi. Oyisidan jur'atsizgina nima sodir bo'lganini so'radi. Oyisi: "Ayrim narsalarni bilmay qo'ya qolganing yaxshi", - dedi xolos.

Kun botdi. Hamma yoqni tunning qora pardasi qopladi. Borliqni sukunat egallagan, butun shahar tinch uyquda. Ammo qizaloq kechasi bilan deraza oldida o'tirgancha mijja qoqmadi. U nimalar bo'lganini, dadasingning nega uydan chiqib ketgani-yu oyisinining nega yig'laganini o'ylar, lekin hech narsaga tushunmasdi. Qiz tuni bilan faqat shu narsalarni o'ylab chiqdi. Quyosh asta nur socha boshladi. Soat endi olti yarim bo'lyapti. U kechasi bilan uxlamagani uchun uyqusi kelib ko'zlar astasekin yumila boshladi. Qizaloq qanday uyquga ketganini sezmay qoldi. U qo'rqinchli tush ko'rdi va seskanib uyg'ondi. Soatga qarasa, ropparosa sakkizdan sakkiz daqiqa o'tgandi. Qizaloq yuz-qo'llarini yuvib bo'lgandan so'ng oshxonaga kirdi. Ko'zlar uyqusizlikdan qizargan onasi nonushta tayyorlayotgandi. Bir payt oyisiga notanish raqamdan telefon keldi. Oyisi telefonga javob berar ekan, birdan qo'lidagi telefon tushib ketdi. U bor ovozi bilan "Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas" deya qichqirib yubordi. Qizcha nima bo'lganiga hayron qolgancha, oyisi tomon yugurib keldi. Oyisi pastda o'tirgan holda ikkala qo'li bilan yerni urib, kechagidan-da badtarroq yig'lardi. Noshukurligi uchun o'zidan nafratlanar edi... O'zini so'kar, dadasidan kechirimlar so'rар edi... Qizaloq unga javdirab qaradi, yugurib kelib bo'ynidan quchdi. Shu payt uning ko'zlar kecha dadasi olib kelgan stol ustidagi sariq lolalarga tushdi. Ular so'liy boshlagan, qoramtil sarg'ish gulbarglar stol ustiga to'kilib yotardi...

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI

Fjod maktabi



**Zahro Rahmonova
9-sinf o‘quvchisi**

ORZU


Bir kuni maktabdan kelsam, eshik oldida bitta qanoti singan qushcha yotgan ekan. Achinganimdan uyga olib kirdim. U qushcha juda nozik, nimjon bo‘lgani uchun o‘lgandek yotar edi. Unga kichkina uycha yasadim va uni gullar bilan chiroyli qilib bezadim. Qushchaning qanotini avaylab bog‘lab qo‘ydim. Unga don, suv berdim, boqdim, parvarishladim. Shu tariqa unga butun mehrimni berdim. Qushcha astasekin tuzala boshladи. Shu tariqa kunlar, haftalar, oylar bir-birini quvib o‘tdi. Qushcha ulg‘aydi. Men unga Orzu deb ism berdim. U bilan do‘sit bo‘lib qoldik. U bilan gaplashar edim, ba’zida hech kimga aytolmagan sirlarimni aytar edim, chunki u hech kimga sotib qo‘ymasdi-da! Ammo Orzuni tashqariga chiqara olmasdim, sababi meni tashlab uchib ketishidan juda qo‘rqrar edim. Uni yo‘qotish men uchun juda og‘ir bo‘lishini his qilardim...Lekin tushunardimki, Orzuning orzusiga

yetishiga yo'l qo'y mayotgan edim. Uni qafasda ushlab ozor berish ham yaxshi emasligini bilardim. Bir kuni jur'at qilib qafasni ochdim. U hayratlanib menga qaradi, go'yoki men o'ylab turgan narsani u ham o'layotgandek. Orzu asta chiqib deraza oldida o'ynay boshladi. Judayam yoqimliligidan qancha vaqt tikilib o'tirganimni bilmadim. Ikkinchchi, uchinchi kuni esa asta-sekin uy ichida ucha boshladi. Keyin uy ichida uchishdan zerikdimi, bilmadim, bir joyda o'tiradigan bo'ldi.

Bir kuni oynani ochib qo'yib ketibman. Birdan esimga tushib, xonamga yugurib kelib qarasam, u yo'q... Qattiq tashvishga tushdim. Unga juda o'r ganib qolganimdan ko'zimga milt-milt yosh keldi. Shunda birdan qushcham uchib keldi. Xursand bo'lib ketdim, xuddi mo'jizaviy narsani ko'rganday ko'zlarimda quvonch porladi.

Shundan keyin qushcham har kuni tongda aylanib kelardi. Men qafasni ochib, uni erkin qo'yadigan bo'ldim. Bir kuni uxlavotgan paytim qushcham uchib ketibdi. Tongda turib qarasam, yo'q ekan. Qo'rqmadim, chunki sayr qilib kelar, deb o'yladim. Ammo kech tushdi hamki, undan dom-darak yo'q... Men tashvishga tusha boshladim: bir tomondan undan ayrilish, ikkinchi tomondan u biror falokatga yo'liq madimikin, degan xavotir meni chulg'ab oldi. Oradan ikki-uch oy o'tdi. Har kuni uni eslardim. Bir kuni maktabdan xomush keldim, negadir xonamga kirishim bilan Orzuni o'yladim, yig'lab yubordim. "Men uni boqdim, qaradim, parvarishladim, unga ishondim, o'z onasidek qaradim. Ammo nega u meni tashlab ketib qoldi?!" degancha xo'r ligim kelib, yig'lay boshladim. Birozdan keyin qulog'imga yoqimli ovoz eshitila boshladi. Bu – Orzuning ovozi edi. Qulqlarimga ishonmasdim. O'girilib qarasam, derazam oldida qushcham turar edi. Ne ko'z bilan ko'rayki, yonida jufti ham bor edi! Shu payt angladimki, qushcham bekorga ketib qolmagan ekan, uning yaqinlari, oilasi bor ekan. Demak, u ham shuncha yildan beri yaqinlarini unutmagan ekan. Demak, meni ham unutmaydi! Shularni o'ylar ekanman, Orzuni qo'yib yuborib, uning parvoziga yo'l ochib bergenim to'g'ri bo'lganiga amin bo'ldim. Parvozing baland bo'lsin, Orzu!

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Fjod maktabi



**Mohinur Ro'zimatova
9-sinf o'quvchisi**

VATANIMGA QASIDA

Qir-u adiringda esgan shamoldek,
Samolarga uchib quvnagim keldi.
Sharqirab soyingda oqqan ziloldek,
Vatanim, men seni kuylagim keldi!

Serquyosh zaminim, jannatmakonim,
Mehnatsevar xalqim, bobodehqonim,
Nomingni aytganda yayrab zabonim,
Vatanim, men seni kuylagim keldi!

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Buyuk zamingingga dunyo parvona,
Buxoro, Samarqand, go'zal Farg'ona,
Yurtimiz olamda tanho, durdona,
Vatanim, men seni kuylagim keldi!

Ko'klarga ko'tarib, Vatan, bayrog'ing,
Dunyoni zabit etar qiz-u o'g'loning,
Madhiyang jaranglar sharaflab shoning,
Vatanim, men seni kuylagim keldi!

Sarhadlarda sergak mard o'g'lolnaring,
Temurdek sheryurak pahlavonlaring,
Tuprog'ingni asrar shu posbonlaring,
Vatanim, men seni kuylagim keldi!

Xumo qush boshingdan ketmasin aslo,
Farzandlaring oqil, barkamol, zukko,
Ko'rib o'zbegimga tan bersin dunyo,
Vatanim, men seni kuylagim keldi!

Istiqlol ne'mati bardavom bo'lsin,
Dono yurtboshimiz sog'-omon bo'lsin,
O'zbekiston nomin keng jahon bilsin,
Vatanim, men seni kuylagim keldi!

Onamdek mehribon, otamdek g'amxo'r,
Qadringni bilmagan ko'r bo'ladi, ko'r,
Men uchun eng buyuk ham o'zingsan zo'r,
Vatanim, men seni kuylagim keldi!

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMİDAGI
Fjod maktabi

Nurli istiqboling qo‘lingda bu kun,
Shukrona keltirib, yashaylik mamnun,
Mustaqil diyorda baxtliman bugun,
Madhiyam, men yana kuylagim keldi!

KUZ OQSHOMLARI

Yurak birdan entikib ketar,
Izhorlarim qalblarga yetar,
Qayg‘ularim biroz tark etar,
Kuzning salqin oqshomlarida.

Mayin yelning sho‘xchan ovozi,
Qushlar uchar, baland parvozi.
Muhabbat ham ko‘ngildan rozi,
Kuzning salqin oqshomlarida.

Gul ifori mast qilar o‘zga,
Tashbeh uchun muhtojman so‘zga,
Oy shu’lasi ko‘rinar ko‘zga,
Kuzning salqin oqshomlarida.

Goho yog‘ar shivirlab yomg‘ir,
Bu kuz uchun bitilgan taqdir,
Yomg‘ir kuyin kuylagan haqdir,
Kuzning salqin oqshomlarida.

Sayr etmoqlik bo‘lar muddao,
Dardlar ketsin bo‘lmay bedavo.
Tabiat ham berar aks-sado,
Kuzning salqin oqshomlarida.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

O'z-o'zimni qilaman taftish,
Yoz tugadi, olmadim olqish,
Ortib ketar ijodga xohish,
Kuzning salqin oqshomlarida.

Sabr degan taomim tayyor,
Baxtim uchun sabablar bisyor,
Bo'y qizlarga aytilar yor-yor,
Kuzning salqin oqshomlarida.

Maftunkordir sarg'aygan xazon,
Barglar ila boshlanar to'zon.
Daraxtlar ham jilmayar shodon,
Kuzning salqin oqshomlarida.

Yurak birdan entikib ketar,
Umidlar ham samoga yetar,
Yana bir yosh bizni tark etar,
Kuzning yangi oqshomlarida.



MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Muxlisa Amatova
10-sinf o'quvchisi**

Qalbga qil sig'masdan ketadi gohi.
Gohida botmasdan ketadi kunlar.
Ayni yoz oqshomi, ayni yoz chog'i,
Ko'p ilhaq qiladi yulduzli tunlar...

Ha, men shunday qizman, shundayin g'alat,
Nuqlul intilaman tanholik tomon.
Balki yolg'izlik bu o'limga tengdir.
Netay, telba hislar yengadi hamon.

Netay, menga yoqar shamol sevgisi,
Yomg'ir ko'zyoshini artgim keladi.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Bu mehr rishtasin, buning belgisin,
Faqat men bilaman, ular biladi.

Visol mujdalarin bog'lagim kelar,
Oy ishqida yongan zarrin quyoshta.
Lek ko'p achinaman dardlarim tinglab,
Ko'zyoshim zarbidan teshilgan toshga.

Men shundayin qizman, shunchalar nozik,
Jindek g'ubor tegsa, so'lib qolaman.
Mendan oldin o'lsa onaizoram,
Bilmam qanday yashab, nafas olaman?!

Qizg'aldoq bo'lsam-u to'kilsam qirga!
Husn qo'sholsaydim aqalli biroz.
Tuproqqa aylanib ketsam agarda,
Endi qo'yib bering, qilmang e'tiroz.

Tuproq bo'lmoqliknii tusasa ko'ngil,
Endi bo'lmanq deyman men uchun kulol.
Tiklashga urinmang, yasamang qayta,
Qalbim xohishidan bo'lmanq deyman lol.

Onam axtarsalar gar qo'msab meni,
(Garchi parvonadek ketmas boshimdan).
Yomg'ir iforidan axtaring meni,
Va yana axtaring qirlar boshidan!!!

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Sjod maktabi

OTA

Ota, ulg‘aymoqda biz ekkan nihol,
Kundan kun ko‘klarga cho‘zmoqda bo‘yin.
Bu yil kurtak yoydi, gulladi alvon,
Hozir ham chalmoqda oshiq dil kuyin.

Gohida shamollar bukdi novdasin,
Gohida to‘kildi alvon gullari.
Ul badbaxt chaqmoqlar bo‘g‘dilar sasin,
Zulmatga burkandi ba’zan tunlari.

Yo‘limga poyandoz bo‘lgan yaproqlar,
Sizga yetolmasdan quridi, bitdi.
Men yetmagan yo‘lga dardakash shamollar,
Barcha iztirobim uchirib ketdi.

Sog‘inchimni sizga yetkazdimi u,
Shivirlab aytdimi qulog‘ingizga?!

Nechog‘lik anglabsiz lek, bilmadim-u,
Tashnadurman mehr bulog‘ingizga.

“Qizim” deyishingiz dil kutdi ilhaq,
O‘sha yupanch so‘zni qo‘msadi yurak.
Toblanay ko‘ksingiz alangasida,
Tanhogina o‘sha harorat kerak.

Ha, o‘sha harorat kerakdir dilga,
O‘sha taft, iliqlik – go‘yo suv, havo.
Mening bitmas dardim sog‘inchdir asli,
Faqat diydor unga bo‘lolgay davo.

Ota, ulg‘aymoqda biz ekkan nihol...



**10-sinf o‘quvchisi
Baxtiyorov Jahongir**

TAFTISH

Kundan kun boshqacha bo‘ladi qalbim,
Yuragim qaltirab, bo‘laman yomon.
Butun vujudimni ezar so‘zlarim,
She’rlar, omon qo‘ying, qo‘yinglar omon.

Qog‘ozga dardlarim to‘kib-sochaman,
Qalbdagi so‘zlarim yupundir-yupun.
Qo‘limda qalamim - tez yonar gugurt,
Yuragim o‘tindir, yuragim o‘tin.

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Fjod maktabi

QISHLOQ ODAMI

Keng dalalar bo‘ldi taqdirim,
Umrim ham yo‘l (g‘adir-budir yo‘l).
Pastakkina hovli - nasibam,
Va mehrli oltin qadoq qo‘l.

Beshiklarda unib-o‘sganman,
Shunday torlik yetarli menga.
Qishloqlikning uyi past, lekin,
Joyi bordir o‘n mingta “Sen”ga.

Hali nolish yarashmas bizga,
Yoshdir hali she’ring, qasidang.
Hayot davom etyapti hali,
“Yer bo‘lmasa bo‘ldi nasibang”.





Dilnura Begmatova
10-sinf o‘quvchisi

XAFA BO‘LMA...

Osmonda kech kuzning yelpig‘ichdek yupqa, qat-qat bulutlari suzib borar, shamol o‘zining ming yillardan beri bajarib kelgan ishini davom ettirib, ularni ko‘z ilg‘amas olis-olislarga olib ketardi. Mahzuna tabiatning bu o‘yinidan judayam rohatlanardi. Nimaga rohatlanayotganini o‘zi ham bilmasdi. Tabiat ham o‘ziga o‘xshab borayotganidanmi yoki kundan kunga so‘lib borayotganidanmi?! Ko‘zlarini yumib, qayta ochmaslikni juda ham istardi. “Na iloj? Bu hayot bizning barcha ehtiyojlarimizni qondirolmagan, qondirolmaydi ham”, deya xo‘rsinib qo‘ydi. Chuqur nafas oldi. Nafas chiqorganida barcha dardlari-yu g‘am-tashvishlari shu bilan birga chiqib ketishini juda ham xohlardi. Qo‘lidan kelmad... Ahvoli oldingidan ham

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMİDAGI *Fjod maktabi*

og‘irlashganini sezib, o‘zining befayz xonasi tomon yo‘l oldi. Xonasiga kirishni umuman yoqtirmsadı. Xonasi xuddi shifoxonaga o‘xshardi. Hamma yoqda dori-darmonlar sochilib yotibdi. U yoqqa qarasang ham dori, bu yoqqa qarasang ham. Xonaga kirishi bilan yoqimsiz dorilar hidi dimog‘iga urildi. Boshi aylanib, ko‘zi tina boshladı. Nafas olishi ham oldingidan yomonlashdi. O‘zini dori turgan stol ustiga urdi. Ichmoqchi bo‘lib og‘ziga olib bordi, lekin ichmadi. Qachongacha bu dorilar bilan kun ko‘rishini o‘ylab, jahli chiqib ketdi. Jahl bilan stolni ag‘darib yubordi. Barcha dorilarni sochib tashladi. Hamma yoqni ostin-ustun qildi. Nafrat ko‘zi bilan derazadan hayotni bir dam kuzatdi. Hayot qaynayapti. Ko‘chada yog‘ayotgan yomg‘ir olov ustiga moy sepgandek uning toliqqan asablarini yana qaqshatib yubordi... Chuqur nafas olib, biroz tinchlanishga harakat qildi. Yuzlarini sovuq suvda yuvdi. O‘zini qo‘lga oldi.

“Mahzuna, o‘zingni bos. Tinchlan! Xafa bo‘lma! Barchasi o‘tib ketadi hali. Barchasi ortda qoladi. Na bu dardlar qolguvchidir, na-da bu umr?! Xafa bo‘lma. Siqilma! Robbingga tavakkal qil. Bularning barchasi Robbing uchun osondir... Umring – Ollohnning omonati. Istagan paytida oladi bu omonatini”, – deya o‘zini yupata boshladı.

Har kungi paytda yana telefon jiringladi. Mahzuna bu qo‘ng‘iroqni intiqlik bilan kutardi. Telefonga javob bermas, faqat sukut saqlar edi. Shunday bo‘lsa ham go‘sakdan keladigan qadrdon ovozni juda sog‘inar, shu daqiqani intiq bo‘lib kutar edi.

- Oyijoooon, oyijoooon...

Mahzunaning ko‘z yoshlari yuzida sizardi. Xuddi bu ovozga aks sado qaytganday quloqlari ostida takror-takror jaranglardı: “Oyijoooon, oyijon...” Bu ovozni eshitish uchun u soat emas, soniya sanardi. Lekin javob bera olmasdi. Jigarbandiga ushalmas umid berishdan qo‘rqar edi, biroq bu hayotbaxsh tovushni eshitgisi kelaverardi. Eshitganda esa, yuragi erib, ko‘zlaridan sel bo‘lib oqardi go‘yo. So‘zlar bo‘g‘zida qolib ketardi. Agar bu so‘zlar tashqariga otilib chiqsa, balki, dunyonи sel bosib

ketardi... Bu ovozni yana bir bor eshitgisi kelib go'shakni qulog'iga yana-da yaqinroq olib bordi.

– Oyijon...

Endi armoni yo'q. Armonsiz ketadi bu dunyodan. Go'shakni qo'ymadi. Lekin qiziga bir og'iz ham gapira olmadi. O'z jigarbandi va jufti halolining taftini xayolan his qildi. Go'shakni o'sha yerda qoldirdi va o'z o'rni tomon yo'l oldi.

– Allohim, mushkulimni oson qil... Oilam senga omonat... Yolvoraman. Qizimni xafa qilishlariga yo'l qo'yimagin, oxirgi o'tinchim, Robbim...

Ruhi yengil tortdi. Asta ko'zlarini yumdi. Omonatini topshirdi... Ko'zidagi so'nggi tomchi yosh ham oqib, boshqalari kabi yostig'ining gullarini sug'orardi. Qizalog'i go'shakni qo'ymasdan umid bilan:

- Oyijon, oyijon qayerdasiz? – deya zorlanardi.


- Bo'ldi, qizim. Bu onang emas ekan. Adashibman. Onang bo'lganida allaqachon javob bergen bo'lardi. Xafa bo'lma, jon qizim.

“Agar rostdan ham bizni yaxshi ko'rganida umuman tashlab ketmagan bo'lardi. Bizni tashlab ketmasin...” deya shivirladi faqat o'zi eshitadigan ovozda.

- Dada, oyim...

Mahzuna nega oilasini tark etganini o'zining dardlari-yu xastaliklariga qo'shib, qalb jomadoniga joylab, o'zi bilan birga olib ketdi.

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Sjod maktabi



Qo‘ziboyev Dadaxon
10-sinf o‘quvchisi

SEVGI DESAM...

(*Hamid Olimjonning “Sevgi desam...”*
she’riga nazira)

“Sevgi desam, faqat sen desam,
Sening bilan yashasa qalbim”.
Qalb qo‘rimda faqat sen mavjud,
Shundan o‘zga yo‘q mening baxtim.

Borliq bizga ishqidan darakchi,
Hamroh doim sayrona qushlar.
Kezsam deyman butun dunyoni,
“Erkam” deya qo‘llaring ushlab.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Men muhibing, ishqning yo'lida
Sendan topdi jonim halovat.
Zamin bizga ash'or to'qiydi,
Olam bo'lar she'rdan iborat.

Senga bo'lgan tuyg'ular so'nmas,
Qalb otashin qo'ydim yondirib.
Bas, biz shunday sevib yashaylik,
Mangu ishqni meros qoldirib.

"Sevgi desam, faqat sen desam..."

IMONIM AMIN

Dedim...

"Yurak, endi uni o'ylamagin hech,
Telba xayollar deb qiynama o'zing.
Bilmadi-ku qadring, qancha uqtiray?
Bo'ldi, unut uni, endi undan kech!"

Dedi...


"Ishq o'ti jismimni qo'ygan kuydirib,
Ne qilay, sevgidan ko'ksim ming pora.
Men-chi voz kechardim ikkilanmasdan,
Sen unga malhamni topsayding, zora".

To'zg'itma xotiram har yon tentirab,
Sevgi o'chog'idan yaralgan zamin.

Kun kelib, kun kelib unitsam uni,
Yuragim og'rimas imonim amin!

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI

Sjod maktabi



**Sevinchoy Alimova
11-sinf o'quvchisi**

SO'ZNING KUCHI

“Kishi nutqining kuchi shundaki, u boshqa kishilarga ham ta'sir qila oladi”

Abu Ali ibn Sino

Maydonda futbol o'ynayotgan bolalarning orasida Suhrob bilan Akmal bir-biriga beodob so'zlar bilan qichqirishayotgani shu atrofdan o'tib borayotgan ustozining xayollarini to'zg'itib yubordi. Qarasaki, o'zining 6-sinf o'quvchilari. Shu tobda ong-u shuuridan ming bitta savol o'tdi: “Nima qilay, tanbeh beraymi, qanday yo'l tutay?”

Shu xayollar bilan hozir ularning qulog'iga gap kirmasligi, buning uchun ertaga birinchi soatdagi ma'naviyat darsi qulay fursat ekanligi biroz ko'nglini tinchitdi.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Ustoz darsni salomlashishdan boshlab, o'quvchilarga yuzlandi:

– “Assalom-u alaykum” so‘zining ma’nosи “Sizga tinchlik, salomatlik tilayman” degani, ertalabki bir-biringiz bilan shunday chiroyli salomlashishdan keyin, nahotki, do’stlaringizga beodob so‘zlarni, tilaklarni ravo ko‘rsangiz?

Insonga Alloh taolo tilni halol va to‘g‘ri so‘zlar gapirish uchun ato qilgandir. Rasululloh (s.a.v.): “Alloh kimni ikki jag‘i orasidagi yomonlikdan saqlasa, u jannatga kiradi”, – deganlar. Bu so‘zlar umringizning oxirigacha qulog’ingizda bo‘lsin, – dedi.

Shu so‘zlarni aytarkan, zimdan kechagi o‘quvchilariga nazar soldi. Ular boshini egib, yuzlari qizargan holda, og‘izlaridan chiqqan noo‘rin so‘zlardan hijolat bo‘lib o‘tirardilar.

Ustoz:

– Kimdir shu bo‘yicha o‘zining fikrini bildira oladimi? – dedi. Sinfning faol o‘quvchilari qo‘llarini ko‘tarib, “Men”, “Men” deyishdi. O‘qituvchi esa:

– Keling, yaxshisi, Akmal va Suhrobdan o‘z fikrlarini eshitsak, – dedi.


Akmal o‘rnidan zo‘rg‘a turib:

– Ustoz, kechiring, bundan keyin yomon so‘zlarni og‘zimga olmayman, – dedi. Suhrob esa yuzlari qizargan holda:

– Bolalar, kechiringlar, men ham bugundan boshlab bunday bema’ni gaplarni ishlatmayman, eng yaxshi odam bo‘laman, – dedi.

Bu so‘zlarni eshitgan ustozining ko‘ngli shunday yorishdiki, o‘zining sharafli kasb egasi ekanligidan yana bir bora faxrlanib qo‘ydi.

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Fjod maktabi



**Komila Bahodirova
11-sinf o‘quvchisi**

TUSHLARIMDA YASHAYMAN...

...Tushlarimda yashayman...

Unda yashar ma’sumgina qiz,

Tashrifimga intizor, mahtal.

Sochlari tun misol,

Ko‘zlari tun misol,

Lablarida gul misol ifor taratar ismim...

J. Yo‘ldosh

Ko‘ngillarga orom bag‘ishlovchi qish o‘zining dardini shoir
bo‘lib oppoq qor parchalariga ko‘chirdi. Qor parchalari mo‘jizakor edi.

Barcha jonzotlar kabi ona zamin ham shirin uyquga ketgan. Uni uyg‘otib yuborishdan qo‘rqqandek odamlar qadamlarini sekin bosishadi.

Bilol uyiga keldi. Shifokorlar Bilolni og‘ir kasal deyishgandi. Achinarlisi, bu dardning davosi yo‘q emish...

U juda charchabdi. O‘zini karavotga otdi-yu, uxbab qoldi. Bilol ajoyib tush ko‘rdi. Qizg‘aldoqlar ochilgan, osmondagи yulduzlar jiloli nur sochadi. Bu shunday joyki, bu yerda ko‘zlar g‘amdan namlanmaydi, qalblardagi dardlar butun umrlik uyquga ketgan. Har tomonda oppoq kabutarlar ishqni mayin ovozi-la kuylaydi. Bu yerda bir qiz yashaydi. Sochlari tun misol, ko‘zlar tun misol bir qiz. Bilol bu guldan-da go‘zal qizga ko‘zi tushdi-yu, unga mahliyo bo‘lib qoldi. Bilolning yurak urishi musiqa sadosi kabi otilib chiqib, qulqlarni qomatga keltiradi. Qiz bu yurak sadosini eshitayotgandek ko‘zlarini yigitning ko‘zlariga tikdi. Qizning ham yurak tovushi tog‘largacha bordi. Bu ikki qalb bir-biriga so‘zsiz oshiq bo‘lgandi.

Bilol qizning oldiga borayotib oyog‘ining ostida yastanib yotgan moychechaklardan oldi. Gulni qizga berdi. Qizning yuziga qizil rangni yurgizdi. Ular so‘zsiz gaplashishardi. Ko‘zlar so‘zlarning o‘rnini bosdi. Ular uzoq vaqt bir-birlariga tikilib qolishdi.

Oradagi vaqt nomli kema bir oyni suzib o‘tdi. Bilol har kun o‘sha qizni ko‘rish uchun juda ko‘p uxbab qoldi. Lekin uning kasalligi tobora kuchayib borardi.

Oxiri, ahvoli juda yomonlashib, yotib qoldi. Ko‘zini yumganida tushidagi sochlari tun misol, ko‘zlar tun misol malak uni chaqirayotgandi. Oshiq yigit o‘ylab o‘tirmay uning ortidan ergashdi...

Qiz uni quyosh hech qachon botmaydigan joyga olib ketgan edi...

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Muxlisa Boynazarova
11-sinf o‘quvchisi**

ILHOM PARILARI

Qop-qora ko‘rpaga burkangan olam,
Dunyo orom olar, qalbim-chi uyg‘oq.
So‘ngsiz xayollar-la yolg‘iz qolaman,
Dilimni bir nima o‘rtaydi biroq.

O‘yladim, qalbimni uyg‘otgan ne deb,
Nima meni beorom qiladi har tun.
Topdim, va nihoyat, topdim javobin,
Ilhom parilari uyg‘otar beun.

Parilar uyg‘otib meni har tuni,
“Qog‘ozga boringni to‘kib sol”, – deydi.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Yozmasam, o'tadi tunlarim uyg'oq,
Qalbimga o't solar yozmasam endi.

Hozir ham parilar uyg'otib meni,
Qo'limga tutqazdi asta qalamni.
Qog'ozga tushirdim ko'nglim sasini,
Quvamiz qalbdagi dard-u alamni.

Ular menga bag'ishlar ajib bir tuyg'u,
Ijod-la sehrli har bitta kunim.
Shunchaki yozmasman ular-la, axir,
"Shunchaki yozmoq bu - shoirga o'lim".*

Ey, qalbi ijod-la oshno bo'lganlar,
Tunlar bedor siz ham bitsangiz she'rlar.
Xursand bo'ling, chunki sizni uyg'otgan,
O'sha mittigina ilhom parilar!

* - Halima Xudoyberdiyeva satri

Ulkan shahar,
Hayot qaynar,
Vaqt domiga tortar tinmayin.
Qadrdoning o'shal qishloqda,
Qalbing qolgan hamon ko'nmayin.

Diling o'ksir, lablar kulsa ham,
Qalbing borin sira yorolmas.
Odamlarning g'ala-g'ovuri,
Ko'ngling sukutini buzolmas.

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Sjod maktabi

O'shal sukut ortida ne bor,
Balki achchiq faryod, yo sog'inch.
Dunyoning g'amiga men o'sha,
Munis ko'zdan topyapman ovunch.

O'shal munis ko'zlar xayolda,
Eslaysan-u, kulasan mayin.
Yellar, elting onam iforin,
To'yib-to'yib hidlab olayin...



Parizodabonu Bunyodova
11-sinf o'quvchisi

BAXT

Baxt!
Eh, seni qaylardan izlayin,
Go'yo bir tilsimsan yashirin.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Samoda, sahroda kezayin,
Seni axtarishning o'zi bir shirin.

Baxt!

Eh, seni qaylardan izlayin,
Xuddi sen chiroqsan porlagan.
Dillarni yoritib, shoshmayin,
Yo'llar ham sen tomon chorlagan.

Baxt!

Eh, seni qaylardan izlayin,
Sendirsan men uchun bir ro'yo.
Xayolmi, hayotmi, bilmayin,
Telba sifat tentiyimiz go'yo.

Baxt!

Eh, seni qaylardan izlayin,
Sen tomon intilar tirik jon.
Qidirib, axtarib, lek topolmayin,
Baxtli yuribdi-ku xayolan inson...

“SEN TUG‘ILGAN KUN”

(Hamid Olimjon she'riga nazira)

“Bu kun sening tug‘ilgan kuning”,
Dildagi hislarim ko‘char qog‘ozga.
Yoningda emasman, qolma o‘ksinib,
Xayolan bo‘lamан bir zum, birozga.

Yeldek o‘tib ketgan tushdir bu dunyo,
Yillar yo'llar kabi ortda qolmoqda.

Gardunda charx urar armonim go‘yo,
Yolg‘iz seni o‘ylab yurak tolmoqda.


Qalbdagi sevgi-yu izhorim senga,
Falakning sanoqsiz elchisi eltar.
Jangda yurgan yoringdan sen-chun,
Bag‘ri kuyuk yorimga salomim yetar.

Erkam, tavallud-la qutlaydi yoring,
Qabul et dilimdan chiqqan izhorim.
To abad sen uchun kurashar boring,
Sen mening azizam, hayotim, borim.

O‘n to‘qqiz bahoring qarshilading sen,
Faqat meni kutgin, shoshilma hech ham.
Intizor ko‘nglimni qoldirmagin, kel,
Qaytib so‘ng qalbingga bo‘laman malham.

Eshitmoq istadim sohir so‘zingni,
Tushingga kiraman ro‘yodek bu tun.
Ash’orim tizaman marjonlar kabi,
Bugun go‘zal kundir, sen tug‘ilgan kun!





Hilola Jumanazarova
11-sinf o‘quvchisi

Mayli...

Men siz kabi osmon emasman,
Va yoxud ko‘klarda porlagan yulduz.
Sizchalik ta’rifi doston emasman,
Har satri yurakka o‘rnashguvchi so‘z.
Men bir kuy...
Yurakda tug‘ilib,
Va o‘shal yurakka ko‘milgan.
Men bir o‘y...
Xayolda to‘qilib,
Ro‘yo bo‘lolmayin bo‘g‘ilgan.
Ovozim sizchalik tutmas jahonni,

Dildan o‘zga yerga chiqqa olmaydi.
Kim ham tinglar edi manday “yomon”ni,
Unlarim qush kabi ucha olmaydi.
Men jodu emasman hammani
Birdayin o‘ziga qarata olgan.
Men yog‘du emasman olamni
Yorqin nurlariga tobe qilolgan.
Mayli...
Men sizchalik Sino emasman,
O‘zimning dardimga yo‘q hali malham.
Bedorman...
Bemorman...
Darmon emasman,
Yuragim dardini bilmas Sino ham.
Men hazon bargiman,
Lek kuzda emas,
Bahor shamolida so‘g‘rilgan. *(sovurilgan)
Men mungli bir kuyman,
Sadoga emas,
Tonggi shabadaga yo‘g‘rilgan.
Alamni, armonni ko‘mdim yurakka,
Ohlarim, unlarim tutmasin jonni.
O‘zimni baxsh etdim bitta tilakka,
Uni ham ko‘rarsiz ushalgan oni.
Mayli...
Siz eshitmang qalbim sasini,
Dilginam bu holga o‘rganib qolgan.
Men qalam emasman butun dardini
To‘yib oq qog‘ozga to‘kolgan.

MEN O'ZGA DUNYOMAN

Men o'zga dunyoman, yerga begona,
Samolardan baland mening maskanim.
Ko'nglim undan baland bitta pog'ona,
Baxtlarga madhiya bo'lar aytganim.

Xazonlarni erkayman, bahor guliday
Ko'zimga surtaman alvon barglarin.
Xazon bo'lishsa gar, ularda ne ayb?
Mayli-da, iforsiz bo'lsa-da bo'lsin!

Tonggi shamollarga chiqaman peshvoz,
Yuzimga urilar umid uchquni.
Orzudan o'zimga yasayman qanot,
Ne qilay, bu ko'ngil tusaydi shuni!

Sevaman qorong'i nursiz tunni ham,
Kundan ko'ra yorug' ko'rinar menga.
Yulduzlarga uzoqligim qiladi alam
"Oyga eltgin"- deya aytaman yelga!

Tushlar ham o'ngimdan azizroq menga,
Unda istaklarning barisi vojib.
Imkonsiz baxtlarni menga tush bergen,
O'ngim-chi bir zumda bo'ladi g'oyib!

Men o'zga dunyoman, yerga begona...

MUHAMMADRIZO OGAHİY NOMIDAGI
Sjod maktabi



**Saidova Shahnoza
11-sinf o'quvchisi**

SOYABON

Xona doimgiday qorong'u... Qiz charchab uyga kirar ekan, zimiston ichra chiroqni ham yoqmay o'z xonasiga kirdi. Uni hech narsa qiziqtirmay qo'ygandi. Xona yorug'mi yoki qorong'u - buning ahamiyati yo'q. U shunchaki ertalab ishga borar va tun yarmida ishdan qaytardi.

Qizning bugungi kuni ham avvalgilardan farq qilmasdan boshlandi. Ko'zguga qarar ekan, o'zining horg'in achinarli chehrasiga rahmi ham kelmasdi. Shunchaki doimgidan uzoqroq o'z aksiga tikilib turaverdi. Uzoq tikilib turgach, bu mashg'ulotdan zerikdi va o'rniga yotib, tungi sukunat bag'riga singib ketdi.

IJOD BOG'IDAN


Guldasta


Sukunatni soatning jiringlashi buzdi va qiz shoshib uydan chiqib ketdi. Qiz olomon ichiga qo'shilib o'z manzili tomon yo'l olayotgan payt sharros yomg'ir quyib yubordi. Soyabon olib chiqmagan qiz to'satdan asabiylashdi. "Nega men bunchalar omadsizman, nega aynan men? Nega?!" - dedi-yu, ko'zlaridan yosh oqayotganini payqadi. Qiz ko'cha o'rtasida qotib qoldi. U osmonga qaragancha yum-yum yig'lardi. Buni boshqalar umuman sezmasdi. Qayerdan ham sezishsin, axir, qizning ko'z yoshlarini yomg'ir tomchilari berkitayotgan edi. Qiz shu qadar ruhan azoblangandiki, kimdandir yordam so'rashga o'zida kuch topolmayotgan edi. Koshki uni kimdir sezsa, koshki edi. Birgina so'z qiz uchun yetarli edi... Atigi birgina so'z...

-Yaxshimisiz? Yordam kerak emasmi?

Kimdir qizga soyabon tutdi... Bu odam qizning ko'ziga najot farishtasidek ko'rindi.







ABDULLA QODIRIY
NOMIDAGI

Ijod maktabi



ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
Ijod maktabi



**Abdurahmonova Xadichabonu
8- sind o'quvchisi**

SHAHIDLARNI ESLAB

Ming to'qqiz yuz qirq birinchi yil,
Bu sanani tarix unutmas.
Eslaganda o'rtanar ko'ngil,
Va qalblarda yaralar bitmas.

Ming to'qqiz yuz qirq birinchi yil,
Daydi o'qdan charchagan dunyo.
Bobolarim jang qilgan u yil,
Qonlar oqqan misoli daryo.

Jang qilganlar bunda beayov,
Botqoq kechib shu Vatan uchun.

IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

Har millatni demagan birov,
O'z bag'riga olgan tinchlik-chun.

Shahid ketgan shahidlar uchun,
Bugun tinmay qilamiz duo.
Jannatlarda bo'lingiz bugun,
Qahramonlar sizga tasanno.

Minnatdormiz yurt osoyishta,
Xizmatingiz eslaymiz shukur,
Unutmaydi Vatan, albatta,
Tinch yurt uchun sizga tashakkur.

OFTOB OYIM NOLASI

Ona bo'lib farzandini o'pmaganim,
Yor bo'lishib ro'shnoligin topmaganim.
O'zgalarga shundoq berdim sotmaganim,
Go'zallikda hatto oydan boyim qizim.

Men oftobni bulutlarga ko'mib ketding,
Yorim bor deb Toshkentlarga yelday yetding.
Bolish qolib qaro yerga nechun yotding?
Armonlari suvlar kabi soyim qizim.

Mendan olib O'zbekoyim o'zlashtirdi,
Shirin-shirin so'zlariga so'zlashtirdi,
Zaynab degan kundoshiga yuzlashtirdi,
Kundoshidan og'u ichgan oyim qizim.

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
Fjod maktabi

Sen kulganda jilg‘alar ham hayron edi,
Otabek ham yo‘llaringda sarson edi.
Men sho‘rlikning yurak bag‘ri vayron endi,
Yodgorini tashlab ketgan jonim qizim.



Mahmarajabova Gulsanam
11- sinf o‘quvchisi

Chumchuq bilan chumoli

Chumchuq der chumoliga:
Ishlaysan tinim bilmay,
Yugurasan, yelasan,
Mehnatni kanda qilmay.



Mening-chi qanotim bor,
Osmonlarda uchaman.
Xohlasam-chi ko'kdagi,
Bulutlarni quchaman.

Ko'p vaysama chumchuqvoy,
Yolg'on va'da to'qiysan.
Qancha parvoz etmagan,
Shu yerdan don cho'qiysan.

TULKI BILAN ZAG'IZG'ON
(masaldan ilhomlanib)

O'rmonda yashar ekan,
Maqtanchoq bir zag'izg'on.
U kelsa hamma joyda,
Boshlanar to's-to'polon.
Uningdir chaqimchilik,
Yagona kasb-u kori,
Qaytarkan uyga xursand,
Kelsa ishning barori.
Bu o'rmon ahli undan,
Qilishibdilar dod-voy.
Bir ishni boshlagandir,
U shoshqaloq hoynahoy.
Bir kuni ko'lga borib,
Tutmoqchi bo'lsa baliq,
Yoniga kelib tulki,
Boshlabdi so'zni iliq:
Kuylaysan-u sayraysan,



ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
Ijod maktabi

Hammadan sensan dono.
O'rmonning eng go'zali,
Barcha qushlardan a'lo.
Aqli va donosan,
Sendek qush dunyoda yo'q,
Baliqni ne qilarsan?
Axir sen o'zingga to'q.
Uyimda bo'lgin mehmon,
Shayladim senga taom.
Gar shuni qilsang qaror,
Uyimda baliq bisyor.
Shunday qilib zag'izg'on,
Mehmon bo'ldi tulkiga.
So'ngra esa tulkining,
Kirdi og'iz milkiga.
O'zidan ham ayyorning,
Bo'lib aziz mehmoni,
Tulkining nonushtaga,
Bo'ldi shirin taomi.





**Gulasal Omonova
11- sınıf o‘quvchisi**

ASSALOM, TOSHKENT

Ust-boshimdan nurlaring sochding,
Kelgan edim, keng bag‘ring ochding,
Shuncha yillar sen mendan qochding,
Salom berdim senga, Toshkentim!

Tomiringda Qodiriy qoni,
Sen yurtimning mustaqil oni,
Sen emasmi baxtlarning koni?
Salom berdim senga, Toshkentim!

Bugun bordim minorlaringga,
Osilgayman tumorlaringga,
To'yib olay xumorlaringga,
Salom berdim senga, Toshkentim!

O'zbekman, deb faxrlanaman,
Yomonlashsa qahrlanaman,
Seni sevib bugun yana man,
Salom berdim senga, Toshkentim!

SIRDOSHIM

Ko'chamizning boshida bor teraklar,
Shitirlashib, goho tushar raqsga.
Ularda ham bordir balki yuraklar,
Ular qul bo'lmaydi xunxo'r nafsga.

Ko'chamning boshidan o'tganimda men,
Teraklarga sirim ayтиб ketaman.
Shoirlik zavqini kutganimda men,
Ular-la shivirlab suhbat etaman.

Gohi shamollardan arazlayman men,
Ularni sindirib yo egib qo'yayr.
U yerda baxtimni farazlayman men,
Teraklar hovuri qalbimni o'yayr.

Daraxtlar – sirdoshim mening soddaroq,
Ular men-chun tosh ko'chaning sulton'i.
Shabboda ularga bo'lyapti taroq,
Maktabga shoshgandek ko'pirar shoni.





Gulira'no Anvarova
11- sınıf o'quvchisi

KELAJAK

Olamda yulduzlar nur sochar hamon,
Demak, davom etar ilm yo'llari.
Shu yo'lida jamuljam qadam tashlasak,
Omadga to'ladi o'ng-u so'llari.

Yuksalish zarurdir kelajak uchun,
Turgin, davom etgin, to'xtading nechun?
Avlodlar umidi, ajdodlar ruhi,
Barchasi sen bilan, sen bilan ochun.

Islohotlar qurdi ravon yo'llarin,
Borar manzil aniq, maqsadlar aniq.
Qo'ldan kelar ochish dunyo sirlarin,
Agar dilda bo'lsa shijoat yoniq.

Tamom, tur, davom et, to'xtama hech ham,
Toki ulg'ayyotir Navoiy, Bobur.
Istagim bo'lmasin yo'lingda hech kam,
Ilm ol, izlangin, barchasi kamdur.

YO'LDAMAN

Boshda do'ppi, dilda iftixor,
Qalbi quvnoq o'zbek qiziman.
Orzu doim ko'kka intizor,
Parvozga shay elning qiziman.

Ilm istar dil, qo'lda kitobim,
Madadkorim yo'lda shiorim.
Chorlar ko'kka yorqin yulduzlar,
Quloch yoyar asta ildizlar.

Niyat xolis, yo'ldaman doim,
Qaynar jo'shqin tomirda qonim.
Asta-asta uradi yurak,
Qanot qoqar ko'ngilda tilak.

O'zbekiston Vatanim mening,
Kelajagim barqaror bunda.
Ishonch, omad yetaklar doim,
Yo'llar ravon mening yurtimda.





Gulshoda Do'lanova

11- sind o'quvchisi

UCHINCHI RENESSANS

Uchinchi renesans – “Yuksalish davri”,
Kelajak avlodga ochmoqda yo'lin.
O'qi, intil deya maqsadlar sari,
Dadil ishonch ila cho'zmoqda qo'lin.

Har neni xohlasang topasan imkon,
Islohotlar katta, keng dunyoqarash.
Talpinib yangilik, yantuqlar tomon,
Maqsad shu, Vatanning koriga yarash.

Ajdodlar shamshiri tushmasin qo‘ldan,
Avlodlar ishonchi bo‘lsin mustahkam.
Baland cho‘qqilarga bo‘y cho‘zgin deya
Ta’lim poydevori qurildi mahkam.

Talay imkoniyat barcha jabhada,
Chorlamoqda ulkan, oliy safarlar.
Vaqti keldi, yuksal har bir sohada,
O‘zbekning farzandi quchsin zafarlar!

TABRIK AYTAY O‘ZBEKISTONGA

Dunyolarcha sevaman seni,
Qiyosi topilmas diyorum.
Ishqing otashida yondirma meni,
Sen-la yashar g‘urur va orim.
Jonim qurban bu jonajonga,
Tabrik aytay O‘zbekistonga.

Barcha uchun ajib bir makon,
Tuprog‘i zar, ma’danga to‘la.
Zilol suvi dardlarga darmon,
Sevgim izhor etay bir yo‘la.
Ta’zim qilib tinchlik zamonga,
Tabrik aytay O‘zbekistonga.

Betakrorim, bir mehribonim,
Abad gulla sen bizga kerak.
Zirapchangga tashna tovonim,
O‘ttiz yoshing bo‘lsin muborak.
Nur yog‘ilsin o‘zbek tomonga,
Tabrik aytay O‘zbekistonga.





Komila Abdug'aniyeva
10- sınıf o'quvchisi

**O'ZBEKNI BEK QILAR
AVLODLARING BOR**

Gar yog'iy ko'tarsa qonli qilichin,
Jonimiz bergaymiz shu Vatan uchun.
Shiroq, Spitamen, Alpomishlar chin,
O'zbekning mard, polvon o'g'lonlari bor.

Madh etar shoirlar o'lka, diyorin,
Ko'rolmay o'tgan bor Vatan diyordin.
Millatning saqlaymiz nomusin-orin,
O'zbekning bizdek qiz-ayollari bor.

Olis o‘tmishlardan keladi sado,
Qarshimizda bo‘lar bobolar paydo.
Ikki dunyo bizni mag‘rur tut, Xudo,
G‘ururlan arzигай ajdodlaring bor.

Porloq kelajakning poydevori biz,
Mustasno emasdир hech bir o‘g‘il-qiz.
Yurtim cho‘l bo‘lsa ham tark etmam hargiz,
Elim, sening buyuk umidlaring bor.

Buxoriy keladur hadisni olib,
Termiziy kelmoqda yuraklar yonib.
Kubroning bir qo‘li bayroqda qolib,
Ey xalqim, sening din peshvolaring bor.

Nodirabegimlar bizlarga o‘rnak,
Oybarchin, Uvaysiy, To‘maris kerak.
Bugun yosh avlodlar bir tan bir yurak,
O‘zbekni bek qilar avlodlaring bor.

Olis o‘tmishlardan keladi sado,
Qarshimizda bo‘lar bobolar paydo.
Ikki dunyo bizni mag‘rur tut, Xudo,
G‘ururlan arzигай ajdodlaring bor.

O‘zbekni bek qilar avlodlaring bor...

BOBUR YODI

Sabr yaxshilikning go‘zal mevasi,
Ildizi o‘qdayin bo‘lmog‘i kerak.



IJOD BOG'IDAN *Guldasta*



Faryod etar Umarshayxning bevasi,
Taxtida dilbandi, u ham bir go'dak.

Yoshlik, beg'uborlik oxir unutib,
Taxt, jang-u jadalga qo'shildi majbur.
Ey avlod, unutma sening ajdoding,
Yosh boshin egmadi, yurgandir mag'rur.

Na bu shavkatli taxt, na urug'-aymoq,
Bevafo yaqinlar tirdi yurak.
Kerakmi insonni yurtdan ayirmoq,
Suyanchiq yo'qdir onadan bo'lak.

Ey Bobur onasi – Qutlug' Nigorxon,
Farzandin ortida suyanchiq bir tog'.
Avlodi yurt uchun berar edi jon,
Yordanaytirilgan ko'nglida bor dog'.

Bobur bormoqdadir Hindiston sari,
Iqbolin ko'zlagan sen yosh bir sulton.
Endi dard, g'avg'olar tugarmi bari,
Vatan sog'inchi qiyarnardi hamon.

Andijon yo'lida handalak isi,
Vatandan uzoqda joni ham halak.
Ona yurt tomondan uzilmas ko'zi,
Bas, yetar yig'idan to'xtagin yurak.

Shunday davlat bo'ldi Boburiy nomi,
Zamoni kelganda suribdi davron.
Sher bo'lib jang qilar, shoirdik kuylar,
U asl turkiyidir, asl muslimmon.

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
Ijod maktabi

MUNDARIJA

**IBROHIM YUSUPOV NOMIDAGI
IJOD MAKTABI**

JULDIZLAR	8
USTAZ	8
ÓMIR-GÓZZAL	9
KEWIL MUZLASA	11
BIZ JASLAR	12
IBRAYIM ATAMIZDAY	13
QÁLEM MENEN ÓSHIRGISH	15
SHAYIRA ZULFIYA APAMA	17
SAĞINIP JASAYIQ	18

**MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI
IJOD MAKTABI**

BOBUR – PODSHOH	22
VATAN	24
URUSH NAFASI	25
“PADARKUSH” ASARI HAQIDA O’YLARIM	28
VATAN	29
BOLALIK PILLAPOYALARI	31
NAVOIY YODI	32
BOLALIK	34
ZULFIYAXONIM	37
ONA TILIM	38
QIZG’ALDOQ (MUHAMMAD YUSUF SHE’RIGA NAZIRA)	39

AGAR	43
SHOIR BO’LISH ORZUSI	44
BAHOR	46
OYGA ILTIJO	47
TA’TIL	48
BIR QIZ YIG’LAR BULOQ BOSHIDA	49
SHAMOL HIKOYASI	51

**HAMID OLIMJON VA ZULFIYA
NOMIDAGI IJOD MAKTABI**

HAZIL SHE’R	58
“KAMTAR QIZALOQ”	59
QUSHLAR	60
ARZIMAS DUNYO	63
UYQU	64
ESHITGIN, HAYOT	65
MADAD	66
DIL IZHORIM	67
LOLAJON	68
OTA (XAYOLLARIM)	69
YURAK	71
BAHOR	73
MUHAMMAD YUSUFNING “TILAK” SHE’RIGA NAZIRA	76
BAXT QOMUSI	77
DENGIZ	79
BO’LMADING RO’YO	81
DRABLAR	81



IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

QIZIQARLI JUMBOQ.....	82
HAR YURAKNING BIR BAHORI BOR.....	83
DRABLLAR.....	86
QORPARCHA	87
TELEVIZORIM (BOLA TILIDAN).....	88
DRABLLAR.....	89
DO'STALARIM (NAZIRA).....	90
"IRTERNET" (BOLALAR TILIDA "INTERNET" SO'ZINING AYTILISHI).....	91
OLMANING ALAMI).....	92
MEHMON KELSA.....	95
O'ZLIGING ANGLA.....	97
ZULFIYAXONIM	99
 ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI IJOD MAKTABI	
ABDULLA ORIPOV XOTIRASIGA	104
MADHIYAM MADHI.....	106
BAHOR NAFASI	108
OTA.....	110
SOG'INCH	111
YECHIM.....	113
SAVOL.....	114
UMMON ICHRA GAVHAR, DUR	115
ANOR.....	118
RO'MOLCHA	120
GULLAR	122
BAHORNI KUTIB	124

YUPANCH	126
YASHIL DENGIZ	128
ONA TILIM	131
 IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI IJOD MAKTABI	
KELASI SAFAR.....	136
YUKSALISH.....	137
BAHOR	138
ONAM	139
ONA TILIM	140
YANGI O'ZBEKISTON	142
KUZ YAXSHI, BAHORGА YETMAYDI FAQAT	144
NAVRO'Z	145
VAQT	147
USTOZLARIM, SIZGA TA'ZIM	148
NON QADRI	149
OILAGA MUHABBAT	150
YOSHLIKDAGI ORZULAR	153
PICTURE	155
 HALIMA XUDOYBERDIYЕVA NOMIDAGI IJOD MAKTABI	
SABR	160
TUSHDAGI TUYG'ULAR	162
KO'KLAM ISI	163
QISHLOG'IM	164
BAHOR	165
YANGI O'ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ	166

IBROYIM YUSUPOV NOMIDAGI
Ijod maktabi

MEN SENI SOG‘INDIM	168	NOVVOY BOLA	208
XIYOBONDAGI BAYROQ	169	DOVUCHCHANING	
DUNYO	171	ARMONI	209
DILSO‘Z	172	QIZALOQ VA QUYONVOY	210
QADRDON QALBDOSHLAR	173	SINGLIMGA	212
ONAMNING		UMID	213
XOTIRALARIDAN	175	MAKTUB	214
ONAJON YURTIM	178	MUALLIMNING BIR KUNI	215
USTOZ	179	BOLALIK	217
KO‘NGIL QORALAMASI	180	SO‘NGGI YAPROQ	218
YOLG‘ON	184	QALBLARGA YOG‘GAN	
BURCH	185	YOMG‘IR	220
QOR	186	BALIQ	222
TUT	187	QORA SOVUQ	224
ONA TILIM	188	ONALAR YOLG‘ONCHIMI?	225
VA‘DA	189	DUNYONING ISHLARI	227
O‘TINCH	190	TINCHLIK	228
SURAT	191	ORZU	229
SENI JONDAN SEVAMAN	192	SOHILDAGI SATRLAR	230
MUHAMMAD YUSUFNING “QUSHLAR HAM YIG‘LAR”		CHO‘QQI	231
SHE‘RIGA NAZIRA	195	INSONIYLIK	232
ISTIQLOL	196	BAXT SHAHRI	234
ÖZBEĞİM	197	YOMG‘IR	235
TEVAZU HAKKINDA	201	OPA	236
 		UCHRASHUV	237
ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI		MEN BOLAMAN	238
IJOD MAK TABI		KETAMAN	239
BANAN PO‘CHOG‘I.....	204	BEDIL	240
SINGILCHA	205	VATAN	241
DO‘PPI.....	206	OY	242
MUZLIKLARNING ORZUSI.....	207	TONG	243
		JADIDLAR	244



IJOD BOG'IDAN *Guldasta*

SARVIQOMAT DILBARIM	245	IMONIM AMIN	285
BOLALARGA QOLIB KETMASIN	246	SO'ZNING KUCHI	286
DUO	247	TUSHLARIMDA YASHAYMAN	288
KUZ QO'SHIG'I	248	ILHOM PARILARI	290
CHEKSIZLIK	249	BAXT	292
MATLAB	250	"SEN TUG'ILGAN KUN"	293
YOMG'IRDA	251	MEN O'ZGA DUNYOMAN	297
SONET	252	SOYABON	298
SAODAT	253		
QISHGACHA	254		
 MUHAMMADRIZO OGAIY NOMIDAGI IJOD MAKTABI			
KELAJAKDAGI KASBIM	258	SHAHIDLARNI ESLAB.....	302
OGAIY IJOD DARGOHI	259	OFTOB OYIM NOLASI	303
O'ZBEKISTONIM	261	TULKI BILAN ZAG'IZG'ON	305
OGAIY MEROSI – BEBAHO XAZINA	262	ASSALOM, TOSHKENT	307
KASBIM – FAXRIM	264	SIRDOSHIM	308
ASRLARDAN O'ZGAN BOBOM	265	KELAJAK	309
JONLI SURAT	266	YO'LDAMAN	310
SARIQ LOLALAR	268	UCHINCHI RENESSANS	311
ORZU	270	TABRIK AYTAY O'ZBEKİSTONGA	312
VATANIMGA QASIDA	272	O'ZBEKNİ BEK QILAR AVLODLARING BOR	313
KUZ OQSHOMLARI	274	BOBUR YODI	314
OTA	278		
TAFTISH	279		
QISHLOQ ODAMI	280		
XAFABO'LMA	281		
SEVGI DESAM	284		

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi

IJOD BOG'IDAN GULDASTA

Muharrir:
Said Ashirov

Loyiha Koordinatori:
Sulaymon Nazarov

Dizayner va sahifalovchi:
Sanjar Doniyorov

Texnik muharrir:
Sherzod Kodirho'jaev

Nashriyot litsenziyasi AI № 3988. 14.09.2020.
Bosishga 31.01.2024 - yilda ruxsat etildi. Bichimi 70×100 1/16.
«Palatino Linotype» garniturasi. Shartli bosma tabog'i 20
Adadi 500 Buyurtma №

Original-maket «ADASTPOLIGRAF» MCHJda tayyorlandi.
«_____» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.